

ISBN 978-83-68188-13-4

Mustayev B.B.

# BOG‘ - PARK SAN’ATI

O‘quv qo‘llanma

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA  
QURILISH UNIVERSITETI

Mustayev Bahrom Bahodirovich

## **BOG‘ - PARK SAN’ATI**

**O‘quv qo‘llanma**

**60210400 – Dizayn (Landshaft dizayni) bakalavr ta’lim yo‘nalishi**

**Warszawa - 2024**

## **UDK 725.731(575.1)**

*O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024 yil 29 maydagi 194-sonli buyrug'iiga asosan nashr etishga ruxsat etilgan.*

### **Taqrizchilar:**

**Z. Matniyazov** – Arxitektura fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining dotsenti;

**I.T. Maxmatqulov** – Arxitektura fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining dotsenti.

**Mustayev B.B.** Bog‘-park san’ati [Matn]: O‘quv qo'llanma – Warszawa: iScience Sp. z.o.o. – 2024. – 96 s.

Mazkur o‘quv qo'llanma 60210400 – Dizayn (Landshaft dizayni) ta'lif yo'nalishi bakalavr talabalari uchun yaratilgan bo'lib, O'zbekistonda bog‘-park san’atining vujudga kelish asoslari va tarixiy rivojlanish jarayonlari, mustaqillik davri bog‘-park san’atining o‘ziga xos xususiyatlari, respublikadagi mavjud bog‘-parklarni ta'mirlash va qayta qurish tajribalari, bog‘-park san’atining rivojlanishidagi zamonaviy xorijiy tajribalar haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Qo'llanma “Dizayn” yo'nalishi Davlat ta'lif standartlari va “Bog‘-park va landshaft san’ati tarixi” fanining o‘quv rejasi va namunaviy dasturi mavzulariga moslanib yoritildi. Qo'llanmada bog‘-park va landshaft san’ati tarixi haqida keltirilgan ma'lumotlar dizayn yo'nalishida tahsil oladigan talabalarni bu sohadagi bilim va ko'nikmalarini shakllanishida yordam beradi.

**ISBN 978-83-68188-13-4**

© Mustayev B.B., 2024  
© iScience Sp. z o. o.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	9
<b>I-BOB. O'ZBEKISTONDA BOG‘-PARK SAN'ATINING SHAKLLANISH ASOSLARI.....</b>	11
1.1. O'zbekistonda ilk bog‘-parklarning vujudga kelishi va shakllanishi .....	11
1.2. Amir Temur va temuriylar bog‘larining o‘ziga xos xususiyatlari va semantikasi .....	19
1.3. Xonliklar va Chor Rossiyasi davridagi bog‘-parklar .....	24
1.4. Sobiq ittifoq davri bog‘-parklarining tahilili .....	35
<b>II-BOB. O'ZBEKISTONDA ISTIQLOL DAVRI BOG‘-PARK SAN'ATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISHI.....</b>	45
2.1. Mustaqillik davrida bog‘-park san’ati.....	45
2.2. Memorial bog‘lar (xotira va qadriyat bog‘lari, shahidlar xiyoboni), yoshlar bog‘lari, ekoparklar, akvapark, disneylendlar.....	49
2.3. Respublikamizdagi mavjud bog‘-parklarni qayta qurish va takomillashtirish tajribalari.....	58
<b>III-BOB. BOG‘-PARK SAN'ATINING RIVOJLANISHIDAGI ZAMONAVIY XORIJY TAJRIBALAR.....</b>	61
3.1. O‘rta va Yaqin Sharq, islom mamlakatlari tajribalari .....	61
3.2. Uzoq Sharq mamlakatlarining bog‘-park san’ati tajribalari .....	65
3.3. Yevropa mamlakatlarining tajribalari.....	74
<b>TALABALAR BILIMLARINING REYTING NAZORATI UCHUN TUZILGAN ORALIQ, YAKUNIY SAVOLLAR .....</b>	80
<b>GLOSSARIY (ASOSIY ATAMALAR LUG‘ATI) .....</b>	89
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>	91

## ОГЛАВЛЕНИЕ

<b>ВВЕДЕНИЕ .....</b>	9
<b>ГЛАВА I. ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ САДОВО-ПАРКОВОГО ИСКУССТВА В УЗБЕКИСТАНЕ.....</b>	11
1.1. Возникновение и историческое формирование первых парковых зон в Узбекистане .....	11
1.2. Особенности и семантика садов Амира Темура и Тимуридов .....	19
1.3. Сады-парки в Узбекистане во времена ханств и царской России.....	24
1.4. Анализ садово-парковых комплексов периода бывшего Союза.....	35
<b>ГЛАВА II. ОСОБЕННОСТИ И РАЗВИТИЕ САДОВО-ПАРКОВОГО ИСКУССТВА ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ .....</b>	45
2.1. Садово-парковое искусство периода независимости.....	45
2.2. Мемориальные сады (парки памяти и ценности, аллея мучеников), молодежные сады, экопарк, аквапарк, диснейленд.....	49
2.3. Эксперименты по реконструкции и благоустройству существующих парковых зон в республике .....	58
<b>ГЛАВА III. СОВРЕМЕННЫЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ В РАЗВИТИИ САДОВО-ПАРКОВОГО ИСКУССТВА .....</b>	61
3.1. Опыт исламских стран Среднего и Ближнего Востока.....	61
3.2. Опыт дальневосточных стран.....	65
3.3. Опыт Европейских стран .....	74
<b>ПРОМЕЖУТОЧНЫЕ, ИТОГОВЫЕ ВОПРОСЫ И ТЕСТЫ, СОСТАВЛЕННЫЕ ДЛЯ РЕЙТИНГОВОГО КОНТРОЛЯ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ.....</b>	80
<b>ГЛОССАРИЙ (СЛОВАРЬ ОСНОВНЫХ ТЕРМИНОВ).....</b>	89
<b>СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....</b>	91

## CONTENTS

<b>INTRODUCTION .....</b>	9
<b>CHAPTER 1. FUNDAMENTALS OF HISTORICAL FORMATION OF GARDEN AND PARK ART IN UZBEKISTAN.....</b>	11
1.1. The emergence and historical formation of the first parks in Uzbekistan ..	11
1.2. Specific features and semantics of Amir Temur and Timurid gardens .....	19
1.3. Parks in Uzbekistan during the Khanate and tsarist Russia.....	24
1.4. Analysis of the parks of the former Union period .....	35
<b>CHAPTER II. SPECIFIC CHARACTERISTICS AND DEVELOPMENT OF GARDEN AND PARK ART OF UZBEKISTAN IN THE INDEPENDENCE PERIOD .....</b>	45
2.1. Park art in the period of independence .....	45
2.2. Memorial parks (parks of memory and value, avenue of martyrs), youth parks, ecopark, water park, disneylands.....	49
2.3. Experiences of reconstruction and improvement of existing parks and gardens in the republic.....	58
<b>CHAPTER III. MODERN FOREIGN EXPERIENCES IN THE DEVELOPMENT OF GARDEN AND PARK ART.....</b>	61
3.1. Experiences of the Islamic countries of the Middle and Middle East .....	61
3.2. Experiences of Far Eastern countries .....	65
3.3. Experiences of European countries .....	74
<b>INTERMEDIATE, FINAL QUESTIONS AND TESTS DESIGNED FOR RATING CONTROL OF STUDENTS KNOWLEDGE.....</b>	80
<b>GLOSSARY (DICTIONARY OF BASIC TERMS) .....</b>	89
<b>LIST OF USED LITERATURE.....</b>	91

## ANNOTATSIYA

O'quv qo'llanmada O'zbekiston bog'-park san'atining shakllanish asoslari va rivojlanish bosqichlari, bog'-parklar rivojlanishidagi vatanimiz va zamonaviy xorijiy tajribalari haqidagi ma'lumotlar jamlanib, tahlil qilingan. O'quv qo'llanmada keng ko'lamlı faktologik materiallar jamlangan bo'lib, kirish, 3 ta bob, xulosa, glossariy-asosiy atamalar lug'ati, amaliy mashg'ulotlar uchun topshiriqlar, uyg'a vazifalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

O'quv qo'llanmaning 1-bobi O'zbekistonda bog'-park san'atining shakllanish asoslari" deb nomlanib, unda O'zbekiston ilk bog'-parklarning vujudga kelishi va shakllanishi, Amir Temur va temuriylar davri bog'larining o'ziga xos xususiyatlari va semantikasi, xonliklar va chor Rossiyasi davridagi bog'-parklar, hamda sobiq ittifoq davri bog'-parklarining shakllanish va rivojlanish asoslari tahlil etilgan.

2-bobda "O'zbekistonda istiqlol davri bog'-park san'atining o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanishi" deb nomlanib, unda mustaqillik davri bog'-park san'ati, me'morial va yoshlар bog'lari, ekopark, akvapark, disneylendlar, zamonaviy bog'-park san'atida "Chorbog"" uslubini qayta tiklash, respublikadagi mavjud bog'-parklarni qayta qurish va takomillashtirish tajribalari umumlashtirilib, bu sohadagi o'ziga xos xususiyatlar, yetakchi yo'nalish va an'analar yoritib berilgan.

3 bobda "Bog'-park san'atining rivojlanishidagi zamonaviy tajribalar" deb nomlanib, unda O'rta va yaqin Sharq, uzoq Sharq va Yevropa mamlakatlarining tajribalari, bog'-parklarni takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy yo'nalishlar tahlil qilinib, xorijiy mamlakatlar bog'-park san'ati rivojlanishiga xos asosiy an'analar aniqlangan.

## **АННОТАЦИЯ**

В учебном пособии обобщена и проанализирована информация об основах формирования и этапах развития садово-паркового искусства Узбекистана, отечественном и современном зарубежном опыте развития садово-паркового искусства. Учебное пособие содержит обширный фактологический материал и состоит из введения, 3 глав, заключения, глоссария-словаря основных терминов, заданий для практических занятий, домашних заданий, списка использованной литературы.

Глава 1 учебного пособия называется "Основы формирования садово-паркового искусства в Узбекистане", в котором рассматриваются возникновение и формирование первых садов-парков Узбекистана, особенности и семантика садов эпохи Амира Темура и Тимуридов, садов-парков времен ханств и царской России, а также формирование садов-парков бывшего союзного периода. и проанализированы основы развития.

Глава 2 "Особенности и развитие садово-паркового искусства периода независимости в Узбекистане", в которой рассматривается возрождение садово-паркового искусства периода независимости, архитектурных и молодежных парков, экопарков, аквапарков, Диснейлендов, стиля "Чорбог" в современном садово-парковом искусстве, развитие существующих садово-парковых обобщен опыта реконструкции и благоустройства парков, освещены особенности, ведущее направление и традиции в этой области.

В 3 главе под названием "современный опыт развития садово-паркового искусства" проанализирован опыт стран Среднего и Ближнего Востока, Дальнего Востока и Европы, современные направления совершенствования и развития садово-паркового искусства, выявлены основные традиции, характерные для развития садово-паркового искусства зарубежных стран.

## **ANNOTATION**

The textbook summarizes and analyzes information about the basics of the formation and stages of development of landscape gardening in Uzbekistan, domestic and modern foreign experience in the development of landscape gardening. The textbook contains extensive factual material and consists of an introduction, 3 chapters, a conclusion, a glossary-dictionary of basic terms, assignments for practical exercises, homework, and a list of references.

Chapter 1 of the textbook is called "Fundamentals of the formation of landscape gardening in Uzbekistan", which examines the emergence and formation of the first gardens of Uzbekistan, the features and semantics of gardens of the era of Amir Temur and Timurids, gardens of the khanates and tsarist Russia, as well as the formation of gardens of the former Soviet period. and the fundamentals of development are analyzed.

Chapter 2 "Features and development of landscape gardening art of the period of independence in Uzbekistan", which examines the revival of landscape gardening art of the period of independence, architectural and youth parks, ecoparks, water parks, Disneylands, the Chorbog style in modern landscape art, the development of existing landscape parks, the experience of reconstruction and landscaping of parks, The features, the leading trend and traditions in this field are highlighted.

In Chapter 3, entitled "modern experience in the development of landscape gardening", the experience of the countries of the Middle and Middle East, the Far East and Europe, modern directions for the improvement and development of landscape gardening art are analyzed, the main traditions characteristic of the development of landscape gardening art of foreign countries are identified.

## KIRISH

Bugungi kunda dunyoning ilg‘or mamlakatlarida aholining rekreatsion istirohat xizmatlariga bo‘lgan ehtiyoji tobora ortib bormoqda va bog‘-parkchilik san’ati ekologik ustuvor va iqtisodiy samarador yo‘nalish sifatida faol rivojlanmoqda. Hozirda yo‘q bo‘lib ketgan, lekin arxeologik qazishma ishlariда aniqlangan tarixiy me’moriy bog‘larni joyida qayta tiklash turizm sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. shunga ko‘ra jahon bog‘-parkchilik san’atida qadimiy bog‘lar an’analalarini tadqiq qilish va ularning uzviy davomi sifatida yangi milliy bog‘larni yaratish amaliyoti shakllanmoqda.

Jahon halqlari bog‘-park qurilishi an’analardan oqilona foydalanish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda milliy bog‘larning shakllanish va rivojlanish yo‘llarini o‘rganish, ularning rejaviy-tarhiy yechimi qonuniyatlarini aniqlash, mavjud tarixiy bog‘larni ta’mirlash va qayta qurish tajribalariga qaratilgan kompleks yondoshuv muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu ilmiy tadqiqotlarda qadimiy bog‘larning qiyosiy o‘rganiilmaganligi, loyihalashdagi zamonaviy innovatsion yo‘nalishlarning aniqlanmaganligi, shu vaqtgacha milliy bog‘larni yaratishning me’moriy dasturi ishlab chiqilmaganligi va bu sohadagi harakatlarning sustligi bir qator muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Mustaqillik yillarda respublikamizda bog‘-parkchilik san’atining samarali yo‘nalishlarini aniqlash va takomillashtirish borasida Toshkent, Buxoro, Andijon, Farg‘ona, Samarcand va boshqa shaharlarda, tuman markazlarida mavjud parklarni qayta qurish, ularga zamonaviy funksiyalar kiritish, texnik va badiiy jihozlash, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish, ularning faoliyatini qayta jonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Bu borada istiqlol yillarda respublikamizdagi bog‘larning bir nechtasini joylarda qayta tiklash chora tadbirlari belgilab olindi. shunday ekan, bugungi kunda bog‘-parkchilik san’atining ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish, mazkur bog‘-parklarni yaratishda zamon talablariga uyg‘unlashtirgan holda ishlab chiqish bog‘-park san’ati va shaharsozlik amaliyotining dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 fevraldagagi PQ-322-soni “2011-2015-yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari Dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” hamda 2013 yil 13 avgustdagagi PQ-223-soni “O‘zbekiston Respublikasida landshaft dizaynnini rivojlanТИRISH Dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek 2017 yil 1 maydagи PF-5030-soni “O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida va landshaft arxitekturasi sohasiga

tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tasarrufidagi barcha loyiha-qidiruv tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan loyihachi arxitektorlar, landshaft dizaynerlari, bog'-park qurilishi mutaxassislari hamda mazkur sohada o'qiyotgan talaba yoshlar uchun mazkur o'quv qo'llanma muayyan darajada xizmat qiladi.

**I-BOB.****O'ZBEKISTONDA BOG' -PARK SAN'ATINING SHAKLLANISH  
ASOSLARI****1.1. O'zbekistonda ilk bog'-parklarning vujudga kelishi va shakllanishi**

*Qadimgi davr bog'-parklari.* O'rta Osiyoning qadimgi bog'lari Ahamoniylar sulolasiga asos solgan podshoh Kir I va uning davomchilari (miloddan avvalgi 550-330 yillar) davridayoq shakllana boshlaganligi manbalardan ma'lum [28; 30-b.]. Jumladan, qadimgi Eronda davlat tomonidan tashkil etilgan maxsus bog'-qo'riqxonalar mayjud bo'lib, ularda turli hayvonlarni saqlash, urchitish va ov qilib dam olish uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Buloqlar, daraxtzoqlar va o'rmonzorlarga g'arq bo'lgan bunday bog'lar baland devorlar bilan o'ralib, ov qilish uchun maxsus burjlar va qulay joylar qurilgan. Ahamoniylar davrida va keyinchalik Sosoniylar davrida (eramizning 200-600 yy) bunday bog'lar «payridez» deb atalgan [35; s. 11-117]. Bunda «payri» (atrof) va «dez» (devor) -atrofi devor bilan aylantirilgan bog' ma'nosini bildirgan. Bunday sifatlari ov bog'lari o'zining kengligi, tanlangan landshafti va go'zal tabiatini bilan ajaralib turgan.

Qadimgi Eron shohlari o'zлari qurdirgan ulkan saroylari qoshida ham bog'lar yaratgan. Qadimgi Persepol saroyi qoshidagi bog' shunday bog' jumlasiga kirgan.

Hind olimi M. Randxavaning fikricha, Eron shohi Kir II Eron va Turonda "chorbog"lar bunyod etgan ilk hukmdor ham hisoblanadi. Qadimgi Eronning poytaxti Pasargad shahri atrofida eramizgacha VI asrda yaratilgan Chorbog' ana shunday bog'larning biri sanalgan [61].

Tarixchi Ksenofontning yozishicha, Kir yaratgan "Chorbog" muntazam simmetrik rejaviy yechimiga ega bo'lib, undagi xiyobonlarni sersoya daraxtlar, xushbo'y o'simliklar, gullar bezagan. Bog' to'rt qismiga bo'linib, unda turli-tuman manzaralari va mevali daraxtlar ekilgan, ariqlar va sharsharalardan Sharqirab suv oqqan. Chorbog'lar Eronning suvgaga tanqis issiq iqlimi sharoitida suvdan tejamlari va samarali foydalanish tajribasi asosida yaratilgan bo'lsa ajab emas.

Qadimgi Eron bog'lari chinar daraxti ko'proq ekilgan. Bu bog'lar ekzotik o'simliklar, xonaki hayvonlar, hovuzlar, tabiiy havzalar, ko'shklar, ko'shk oldilari gulchamanlar bilan bezatilgan. Bog'larda zilol suvli buлоqlar bo'lgan. Bularning barchasi bog'larga firdavsimonand manzara bergen. Qadimgi Eronda "Bo'ston" deb ataluvchi mevali bog'lar ham keng an'ana bo'lgan. Sa'di sheroziyining shu nomli poemasi buning isbotidir.

Eron gullar shohi atirgulning vatani deb ham bekorga aytilmagan. Atirgul bog'lariga «Guliston» deb nom berilgan. Hatto Eron milliy eposining

nomi ham «Gulnoma» («Atirgul haqidagi poema») deb nomlangan. Eron, nafaqat atirgulning, balki siren, lolagul, chinnigul, nargislар vatani hamdir. Yozishlaricha, Qadimda Eronning poytaxti bir vaqtlar So'za, ya'ni Piyozgul gulining nomi bilan atalar ekan [33; 11-31-b., 43; 29-b.]. Umuman olganda Eron bog '-parkchilik san'ati butun Qadimgi Sharq bog 'larining rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Qadimgi Sharq bog '-parkchilik san'atining esa dunyoning ko'pgina bog 'lari-Turkiya va Ispaniyada Mavritan bog 'lari, Qirimda tatar xonlari bog 'larining vujudga kelishida o'ziga xos o'rni bor.

O'rta Osiyo bog '-parkchilik san'ati tarixiga bag 'ishlangan ilmiy adabiyotlar bir talay bo 'lsada, ular asosan islomdan keyingi davrni, aniqrog 'i XI asrdan to XVIII asrlargacha barpo etilgan bog 'lar tarixini qamrab olgan. Ular ichida kengroq o 'rinni Amir Temur va temuriylar davri bog '-parkchilik san'ati egallaydi. Biroq bizga tarixiy ma'lumotlar shuni ko 'rsatadiki, Sharq mamlakatlarida bog 'lar yaratish san'ati me'morchilik va shaharsozlikning muhim tarkibiy qismi tarzida juda qadim zamonlardan boshlab taraqqiy topgan [33; 11-31-b., 5; 51-30-b.].

Masalan, Sug'diyonaning qadimgi bog '-parklari haqida antik davr mualliflari, jumladan Diodor va Kvint Kursiy Ruflar xabar beradi. Ularning yozishicha, bunday bog 'lar uchun, odatda, mayjud keng yashil maydonlar, suvloq tog ' oldi yaylovları va qalin o 'rmonzorlar tanlanib, ular hukmdorlarning ov qilishlari va dam olib hordiq chiqarishlari uchun mo 'ljallangan. Ularda hatto ov paytida foydalanimadigan maxsus burjlar va imoratlar qurilgan. Bog 'larda turli xil yovvoyi hayvonlar saqlanib o 'rchitilgan [35; s. 11-25]. Bunday bog 'lar o 'sha davr hukumdorlarining boyligi, yashash, dam olish va istirohat uslublaridan darak beradi. Bu bog 'lar maxsus tarh asosida qurilganmi yo yo 'qmi, bu haqda biror narsa deyish qiyin. Biroq, ular o 'zlarining shakllanish omillari, egallagan joylari va tabiiy manzaralariga qarab muntazam rejali me'moriy bog 'lardan keskin farq qilgan. shu boisdan ularni erkin rejali manzarali istirohat bog 'lar turkimiga kiritish mumkin.

"Makedoniyalik Iskandar tarixi"ning muallifi rimlik Kvint Kursiyning yozishicha, Iskandar Sug'diyonaga bostirib kelganda "Bazayra" nomli joyda barpo etilgan manzarali bog 'da askarlari bilan ov qilib dam oladi va ov paytida to 'rt ming hayvonni otib o 'ldiradi [52]. Tarixchi olimlarning fikricha, ushbu bog ' Maroqand shahriga, ya'ni qadimgi Samarqandga yaqin joyda bo 'igan. Bog ' joylashgan joyni qadimgi yunon tarixchisi Diodor "Bazayra" emas, "Basista" deb nomlangan. Olima E. Monchadskaya esa "Basista"ni "Bog 'iston" so 'zining yunonlashtirib yozilgan ko 'rinishi emasmiikan, degan fikrni bildiradi. Tarixchi V. Tomashek esa Basistaning joyini Urgut tumani hududiga to 'g 'ri keladi, deb taxmin qiladi. Tarixiy manbalarda ko 'rsatilishicha, bu bog ' o 'ta keng tog 'liq yaylovlarg'a, qalin

daraxtzorlarga, turli xil yovvoyi va qo'lga o'rgatilgan hayvonlarga boy bo'lgan [29; s. 10-20].

Shuningdek, antik davr manbalarida Afg'onistonidagi Toshqo'rg'ondan mozori-sharifgacha bo'lgan keng yaylovlarda Amudaryoning o'ng sohiliga yaqin to'qayzorlarda qadimgi zamonlardagi podshohlarning hayvonlar saqlanadigan ulkan bog'lari bo'lganligi haqida ham ma'lumotlar mayjud [22; s. 96]. Ularda son-sanoqsiz kiyiklar va yovvoyi cho'chqalar to'dasi, ular orqasidan tushgan bo'rilar galasi va hatto go'yoki sherlar ham o'stirilgan. Ana shunday sherlarning qo'shni Tojikistonda ham bo'lganligi haqida eramizning boshida Xitoy yilnomalarida eslatib o'tiladi. Masalan, eramizning 87-yilida Kushon elchilari Turkistondan xitoy podshohlariga sovg'a sifatida sherlar eltg'an. Taxminan shu joylarda 1256-yili Chingizzxonning o'g'li Xulaguxon ham sherlarni ov qilgan, sherlar haqida mashhur xitoy sayyohi Marko Polo hamda XV asr mualliflari ham eslatib o'tadi [38; s. 68].

Tojikistondagi Mug' qasridan topilgan XIII hujjatlarining biridan Panjikent hokimi Devashtichning baland devorlar bilan o'ralgan istirohat bog'i – "paradiz" bo'lganligi haqida xabar beradi. Devashtichning ushbu bog'i shahardan tashqarida, Panjikent tog'liklari joylashgan deb taxmin qilinadi. O'sha hujjatlarda ushbu boqqa maxsus boshliq tayinlanganligi ham ko'rsatilgan [40; s. 20]. Bu narsa bog'ni haqiqatdan ham qo'riqlanganligi hamda hukumdar Devashtich hayotida alohida ahamiyat kasb etganligini bildiradi.

*Ilk o'rtalasrlar bog'- parklari.* Miloddan avvalgi II asrlarda O'rtalasri Osiyodagi Parfiya davlatining podshohlari o'zlarini uchun saroylar qurdirib, ularning atrofini tartibli rejadagi bog'lar va suv havzalari bilan o'ragan. Demak, chorborg'lar Eron va Turonning islomgacha bo'lgan bog'lariga ham xos me'moriy uslubiyatdir [39; s. 8].

Shunday qilib, O'rtalasri Osiyoning qadimgi va islomgacha davridagi bog'-parklarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin: ov qilishga va qo'lga o'rgatilgan turli xil hayvonlar saqlashga mo'ljallangan shahar tashqarisidagi bog'-qo'riqxonalar, hukmdorlarning oilalari bilan dam olishga mo'ljallangan shahar tashqarisidagi bog'-saroylari (Chorbog'lar) va shahar ichidagi, uning maydonlarida bunyod etilgan mo'jaz bog'lar. Har uchchala yo'nalihsidagi bu bog'-parklar O'rtalasri Osiyoda islomdan so'nggi davrlarda ham saqlanib qoldi va rivojlantirildi.



Hayvonotga boy, yaylovi ko'kalamzor bog'lar bunyod etish an'anasi O'rtalasri Osiyoda o'rtalasrlarda ham davom ettirilgan. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobida yozilishicha, Qoraxoni shams al-Mulk (1068-1080) Buxoroga hoqonlik qilgan davrida shaharning Ibrohim darvozasiga yaqin bo'lgan qariyb yarim farsang joyda go'zal bog' bunyod etib, ul joyga "shamsobod" deb nom beradi [5; 26-b.]. shamsobodga tutash joyda keng

o'tloq (o'lan) tashkil qilib, uni "qo'riq" deb ataydi [8; 180-b.]. Qo'riq atrofini devor bilan o'rab, ichiga podsholikka xos qasr va kaptarxona quradi. Qo'riqda qo'lga o'rgatilgan turli hayvonlar: bug'i, kiyik, tulki va ayiqlar saqlaydi. Hayvonlarni parvarish qilib turadigan maxsus kishilar tayinlaydi. Xullas, shams al-Mulk ushbu bog'ni dam olib hordiq chiqarishga mo'ljallangan maxsus qo'riqxonaga aylantirgan edi. V.V. Bartoldning yozishicha, Buxoroda islam davrida o'z uylarining yarimini arablarga bo'shatib berib, ular bilan yonma-yon yashashdan bosh tortgan mahalliy zodagonlar shahristonni butkul tark aylaganlar va shahar atrofidan o'zlariga yangitdan joy qilib saroylar qurbanlar va har bir saroy darvozasi oldiga bog' va o'tloq bunyod etganlar. Bunday saroylar va saroy atrofi bog'larining soni 700 ga etgan va shahristonga ko'ra ancha katta joyni egallagan [18; 43-b.].

X asrda Samarcandga sayyohatga kelgan arab geografi Ibn Xavkal shahardagi yashil maydonlar va ulardagi turli xil oroyishlar xaqida quyidagilarni yozadi: «Shahar arkdan, shahriston va uning atrof joylaridagi rabodlardan iborat... Ark tepasiga chiqqanimda kishi faqat tushida ko'ruchchi nihoyatda hayajonlantirli ko'rinishdan qalbim zavqlandi: ko'm-ko'k daraxtlar, yarqiragan koshonalar, Sharqirab oqayotgan anhor va jilg'alar, atrof chet chaman, gulgun tabiat. Har bir daraxt, har bir gullayotgan boqqa qarab qalbing quvonadi. shahar maydonchalari go'zalligining esa cheki yo'q. Sarv daraxtlariga o'ta g'alati oroyishlar berilgan. Bular bir-biriga zimdan tashlanmoqchi bo'lib turgan yoki bir-biridan hadiksirayotgan, yo ehtimol tanishmoqchi bo'layotgan yashil sun'iy fillar, tuyalar, sigirlar, yovvoyi hayvonlar shaklini eslatadi. Kishi qalbini ochadigan bunday yashil oroyishlar har qadamda. Bularga Sharqiragan ariqlar, balıqlarga to'la hovuzlar, dam olishga qulay ko'shk va shiyponlar qo'shilgan [21; 26-27 b.].

Tarixiy ma'lumotlar asosida olimlarimiz Samarcand shahri atrofida yaratilgan chorbog'larning grafik ko'rinishlarini tasvirlashga harakat qilishgan (*I-rasmlar*).

Ibn Xavkal yana bir boshqa joyda shaharning markaziy qismidagi ko'pchilik uylarning mevali bog'lari, barcha hovlilarning sug'orish ariqlari borligini eslaydi. «shahar bog'larga burkangan, agar unga yuqorida qarasangiz hatto uylar ko'rinxay ketgan», deydi.





Samarqand X asrda manzaraviy daraxtlardan kuzab ishlangan "yashil hayvonot bog'i"ning grafik rekonstruksiyasi (N.V. Drobchenko bo'yicha)

[https://rusneb.ru/catalog/000200\\_000018\\_RU\\_NLR\\_bibl\\_574746/](https://rusneb.ru/catalog/000200_000018_RU_NLR_bibl_574746/)

1-darvoza; 2-bosh xiyobon; 3-hovuz;  
4-gulzor; 5-bog' ko'shki (saroy); 6-shiypon (taxt); 7-sayrgoh yo'llar.

Chorbog'ning ko'rinishi.  
(Iz xudojestvennoy sokrovishnisi Srednego Vostoka. Sredneaziatskiye sadi I parki XV veka/ G. A. Pugachenkova. – Tashkent: Literatura i isskustvo im. G. Gulyama, 1987. 173–185).




Chorbog' va uning ko'shki T.Sh. Mamatmusayev ishlangan grafik rekonstruksiyasi.  
2011 y.:1-ko'shki-saroy; 2-yozgi ko'shklar; 3-hovuz; 4-darvozalar

### 1-rasmalar.

(Mamatmusayev T.Sh. Ulug'bek davri arxitekturasi. Nomzod. diss. ilovalari. – T.: 2011).


Ibn Xavkalning ushbu yozganlari Samarqandda bog'lar bunyod etish an'anasi juda qadimdan, ya'ni bu erga Ibn Xavkal kelgunga qadar ham mavjud bo'lganligiga, X asrning oxirlarida esa shahar ichidagi yashil maydonlarda manzaraviy daraxt va butalar kuzalgaligiga, ya'ni daraxtlar

oroyishi san'atining ham Samarqand uchun an'anaviyligiga, o'ziga xosligiga ishoradir [44; 66-72 b.].



**1-rasm.** Tarixiy ma'lumotlar asosida Samarqand X asrda manzaraviy daraxtlardan kuzab ishlangan "yashil hayvonot bog'i"ning grafik rekonstruksiyasi (A.S. Uralov, E. Muxammadiev va A.E. Jonuzogov bo'yicha).

Arxeologik ma'lumotlar bizga o'rta asrlarda Xorazmda ham bog'-parkchilik san'atining rivojlanganligidan darak beradi [34; s. 135-152]. XII asrda Xorazmshohlar davlatining mustahkamlanishi Amudaryo vohalarida bir qator: *Jend, Vazir va shoxsanam bog'* majmualarining vujudga kelishiga imkon yaratadi. Bu bog'lar shahardan tashqarida qulay iqlimli va ko'rkm landshaftli joylarda joylashib, shohlarning oilalari bilan yoz paytleri yashashiga va dam olishiga mo'ljallangan bog'lardir. Atrofi devor bilan to'silgan bu bog'lar sahni nisbatan tekis bo'lib, bog'da saroy, bog' ko'shklari, xo'jalik imoratlari, mevali bog'lar, xiyobonlar, hovuzlar bo'lgan. Bog' majmuasi to'g'ri chiziqli muntazam rejaviy yechimga ega bo'lib, darvozadan kirilgach bosh xiyobon bog' markazida joylashgan asosiy binosaroy va uning yonidagi hovuzga etilgan. Bog' sahni katta va kichik bog'lar va chamanzorlarga bo'lingan. Bu davr bog'larining me'moriy inshootlari asosan xom g'isht, paxsa va sinchkor imoratlardan iborat bo'lib, davr o'tishi bilan buzilib ketgan (*2-rasm*).




**2-rasm.** Qadimgi Xorazmdagi Vazirbog'. Chorbog'ining rejaviy tuzilishi XIII asrlar (M.S. Toxtaxodjaeva bo'yicha)  
*(Нозилов Д.А. Чорбог.-Т.: ТошДТУ, 1997).*

Ibn Battuta O'rta Osiyoga qilgan sayohati haqida yozar ekan Movarounnahr sultoni Tarmashirinning (1326-1334) ham ovga mo'ljallangan bog' qo'riqxonasi bo'lganligini eslatib o'tadi [24; s. 87]. U Tarmashirinni so'nggi bor uning ana shu qo'riqxonasi yo'lida ko'rib xayrashgan va so'ng Samarqandga qarab yo'l olgan. Demak, qo'riqxona Buxoro atrofida, Samarqand yo'liga yaqin joyda bo'lgan ko'rindi. Ma'lumki, Amir Temur va Mirzo Ulug'beklar o'z zamonasida Samarqand shahri atroflarida 14 ta turli bog'-rog'lar yaratgan edilar. Ushbu bog'lar orasida ov qilib ko'ngil ochishga mo'ljallangan bog'lar ham bo'lgan. Jumladan, Amir Temurning Bog'i Jahonnamo, Bog'i Behisht, Bog'i Qoracha va Davlatobod bog'ları ana shunday maqsadlarda foydalilanigan. Bu bog'lar egallagan hududlar va ularning maydoni Temurning boshqa bog'lariga nisbatan ancha katta bo'lib, ularda ov uchun mo'ljallangan maxsus yovvoyi hayvonlar va parrandalar saqlangan. Masalan, Davlatobodda kiyik va qirg'ovullar saqlangan bo'lsa, Jahonnamo va Bog'i Behishtning maxsus hayvonot xonalari bo'lgan [49; 13-b.]. Bog'lar uchun tanlangan joylar ham ov qilib dam olishga qulay, ko'ngil ochar joylar bo'lgan. Bu bog'larda ovga moslashtirilgan qurilmalardan tashqari dam olishga mo'ljallangan shohona ko'shk-saroylar ham bo'lgan. Bu esa ularning nafaqat bog'-qo'riqxona, balki bog'-saroylar vazifasini ham bajarganligidan dalolat beradi.

Qo'riqxona bog'larni tashkil etish O'rta Osiyoda so'nggi asrlarda ham davom ettirilgan. Jumladan, Qo'qon xoni Xudayorxonning ov uchun tashkil etilgan maxsus qo'riqxonasi bo'lgan [40; s. 20].

Bog'lar bunyod etish va ularga oroyish berish san'ati O'rta Osiyoda juda qadim zamonalardan boshlab shakllanib kelganini biz yuqorida ko'rib o'tdik. Bunga O'rta Osiyoning o'ziga xos iqlimi, serquyoshligi, uzoq issiq yozning o'tkir ta'siridan saqlanishga qaratilgan harakat ham sabab bo'lgan. Badavlat odamlar dastlab mo''jaz oromgohlar bunyod etib jazirama yoz kunlariida soya salqin bog'larda, hovuzlar qoshidagi supali shiyponlarda, shabboda joylarda dam olishgan. Bunday oromgohlarda, odatda, sersoya manzarali dov-daraxtlardan tashqari turli-tuman mevali daraxtlar, gullar, xo'jalik uchun toqlar va boshqa ekinlar ham ekilgan. Bunday bog'lar ko'pincha shahar atroflarida, tog' yonbag'irlaridagi qiyaliklarda, buloq bo'ylarida bunyod etilib, yoz kunlari ularga ko'chib o'tilgan. Ekinlar uchun er tekislanib chellar ishlangan, ariqlar olingen, hovuz, shiypon, ayvonlar, supalar, ular oldida mo''jaz gulzorlar tashkil qilingan. Hokim va amaldorlarning shahar chetlaridagi bunday oromgohlari atrofi paxsa devorlar bilan aylantirilib, darvozalar ishlangan. Ular yozgi ko'rg'oncha bog'lar ko'rinishini olgan. Bunday bog'lar sahni o'q ariqlar bilan bir necha, odatda, to'rt qismga bo'linib, «chor-bog» hosil qilingan. O'qariqlar bo'ylab dovdaraxtlar, ular ostidan sayrgoh yo'llar-xiyobonlar ishlangan. Bu qismlar ham katta-kichikligiga qarab yo'lakchalar va ariqchalar yordamida to'rt va undan ko'p alohida bo'laklarga bo'linib, «Chorchaman»lar hosil qilingan. Chorchamanlarga turli xil mevali daraxtlar, ular orasiga chiroyli va xushbo'y gullar ekilgan, sayr uchun yo'lakchalar o'tkazilgan. shunday simmetrik va muttazam xandasaviy tartibda rejallangan bog'lar xalq orasida, pirovardida «Chorbog» nomini olgan [12; s. 103-108]. Badavlat oilalar o'z chorbog'lari ichiga chiroyli shiyponlar qurib, yoz oylari mehmonlarni shu bog'larga taklif qilishgan. Bunday mo''jaz qo'rg'oncha-chorbog'lar suv manbalariga yaqin, nisbatan tekis joylarda bunyod etilgan [32; 82-b.]. (3-rasm).



3

(Нозилов Д.А. Чорбод. – Т.: ТошДТУ, 1997. – 82 б.).

Xerman Vamberi o‘zining «Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi» kitobida Samarqandni mo‘g‘ullar istilo qilganda (1221 y.) bu yerdagi «usta bog‘bonlar uzoq Sharqqa, mo‘g‘ullar yurtiga yuborilgan edi» degan fikrni bildiradi. Ma’lumki, mo‘g‘ullar Samarqandni bir yarim asrga yaqin davr ichida mustamlaka qilib turgan. Ana shu uzoq yillar davomida Samarqand va Movarounnahrda deyarli to‘xtab qolgan bog‘chilik san’atini Amir Temur qaytadan rivojlantirdi. Endi u qo‘rg‘oncha ko‘rinishidagi bog‘lar va shahar ichi maydonlaridagi mo‘jaz bog‘lar bilan chegaralanmasdan, shahar atroflaridagi xushmanzara joylarda katta-katta istirohat bog‘-saroylarini va ulardagi turli xil go‘zal oroyishlar va bog‘ ziynatlarini avj oldirdi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. O‘rta Osiyoning qadimgi bog‘lari qaysi davrda shakllana boshlagan?
2. «Payridez» so‘zining ma’nosi nima?
3. Eron va Turonda «Chorbog» larni bunyod etgan ilk hukmdor kim?
4. Qadimgi Eronda mevali bog‘lar qanday atalgan?
5. Atirgullar bog‘lari nima deb nomlangan?
6. Amir Temur va temuriylar davridagi chorbog‘ uslubidagi bog‘larning boshqa davlatlardagi bog‘laridan qanday farqi bor?
7. Ov qilib dam olish uchun mo‘ljallangan bog‘lar qanday nomlangan?

#### **1.2. Amir Temur va temuriylar bog‘larining o‘ziga xos xususiyatlari va semantikasi**

O‘rta asrlarda Amir Temur va Temuriylar o‘zlarining keng ko‘lami, xush havosi, go‘zal manzaralari, ertaknamo saroy va ko‘shklari, g‘aroyib

hovuz va favvoralari, beozor hayvonlari bilan Mavarounnahrda temuriylargacha mavjud bo'lgan dala bog'lari: mo'jaz qo'rg'oncha-chorbog'lardan ajralib turgan. Ammo Temuriylar istirohat bog'-saroylari ham qo'rg'oncha-chorbog'lar kabi atroflaridan baland devorlar bilan aylantirilib, darvozalar orqali kirib chiqilgan. Temur buniyod etgan ayrim istirohat bog'larining maydoni juda katta bo'lib, ular ichida sersoya daraxtzorlar, turli mevali bog'lar, hovuzlar, gulzorlardan tashqari maysazorlar, hatto o't-yalangliklar bo'lgan.

Temurning shahar Arki ichida Bo'stonsaroy qoshida mo'jaz Chorbog' ham tashkil etganligi haqida ma'lumotlar bor. shuningdek, manbalarda shahzoda Muhammad Sulton qurdirgan madrasa (hozirgi Go'ri Amir) atrofida «Bir nechta uyni buzib jannat misol bir bog'» yaratilganligi ham eslatib o'tiladi. Ammo, bog'larning asosiy qismi shahar atroflarida, xisordan tashqarida mahobatli istirohat bog'-saroylari tarzida buniyod etilgan. Temurning o'zi o'ndan ziyod shunday bog'larga asos solgan edi. Quyida ularni sanab o'tamiz [33; 11-29-b.]. (4-rasm).

*Bog'i Naqshi Jahon.* Bu bog' XIV asrning 70-yillarida buniyod etilgan deb taxmin qilinadi. U Cho'pon-ota qirligining janubiy etagidagi Obirahmat arig'inining atroflaridagi erlarda joylashgan. Bog'da zebu-ziynatga boy hashamatli saroy ham qurilgan [31; 5-mart soni].

*Bog'i Bihisht.* Temurning yosh xotinlaridan biri Tuman oqa uchun 1378-yili shaharning janubiy-g'arbiy tarafida buniyod etiladi. Bog'da sun'iy tepalik ustiga oq marmardan ishlangan ko'shk tiklanadi.

*Amirzoda shoxrux bog'i.* Bu bog'ni 1394 -yili Temurning kenja o'g'li shoxrux Mirzoning Kavkazorti yurtlariga qilgan yurishidan qaytishi sharafiga qurilgan deb taxmin qilinadi [10; 72-b.]. sharafiddin Ali Yazdiy ushbu bog'ni Samarqandning g'arb tomonida, chorraha darvozasiga yaqin yerda joylashganligini yozadi.

*Bog'i Dilkusho.* sharafiddin Ali Yazdiyning fikricha, bu bog', Mavarounahrning eng yaxshi bog'laridan biri bo'lgan. Bog'da mahobatli va munaqqash gumbazli uch ravoqli ko'shk-saroy ham qurilgan bo'lib, u bog'ga sadafdag'i marvarid kabi ertaknamo chiroy berib turgan. Ayrim adabiyotlarda, ushbu bog' bizgacha saqlanib qolgan Ishratxona obidasining atrofida qurilgan, Ishratxonaning o'zi esa o'sha jannatsimon bog'ning ko'shki bo'lgan deyiladi [23; s. 142]. Ko'shk devorlarida Amir Temurning Hindiston yurishidagi jang manzaralari tasvirlangan. Ali Yazdiyning xabar berishicha, bog' qurilishi 1396-yilning kuzida boshlangan. Bog' Temurning kichik xotini To'kalxonimga atab buniyod etiladi va nixoyatda dilkusho va ko'rklı bo'lganligidan «Bog'i Dilkusho» deb nomlanadi [48; 23-b.]. (5-rasm).

1404-yilning sentyabrida Temurning qabulida bo'lgan ispaniyalik elchi Klavixo bu bog'da favvoradan suv otilib, suv yuzida qizil va oq olmalar qalqib turganligini, boqqa kiriladigan darvoza juda keng va yuksak, oltin va

boshqa qimmatbaho toshlar bilan bezatilganligini, bog' da ustiga taxtiravon o'rnatilgan oltita fil borligini yozadi. Bu fillar, fikrimizcha, sohibqiron va uning oila a'zolari yoxud ulug' mehmonlarni keng bog' bo'ylab sayr ettirishda ulov vazifasini bajargan ko'rindi.




4

Amir Temur va temuriylar barpo etgan bog'larining grafik ko'rinishlari joylashuviga



**5-rasm.** "Bog'i Dilkusho" ni qayta tiklash bo'yicha loyiha taklif.

(N.V. Gilmanova "Arxitektura timuridov i baburidov otrajennoye v miniatyure" – T. 2019).



Bog'i Dilkusho saroyining grafik rekonstruksiyasi  
(Алимов Ў. Ўрта асрларда Мовароңнахрда бўғчилик ҳўжалиги тарихи. – Т.: Фан, 1984).

*Bog'i Shamol.* Temurning nabirasi-Mironshohning qizi Beka Sulton nomiga atab Samarqanddan g'arb tomonda barpo etiladi. Bog'da 1397- yili «dilni rom etuvchi go'zal va baland qasr» ham quriladi. Qasrning tarxi - lavhasini Temurning o'zi ko'rib ma'qullaydi. Boqqa «shamol» nomining berilish sababini tarixchi olimlardan U. Alimov va A. Berdimurodovlar shaharning ushbu, ya'ni G'apb tomonidan ko'proq shamol esib turganligidan deb tushuntiradilar. Me'morchilik doktori M. Bulatov esa «shamol» so'zini «shamal» o'rnida ko'rib, «sham» - shomlik, ya'ni suriyalik, «al» aloqadorlik, demak «shamal», bu nom «shomlik me'morlar qurban degani» deb tushuntiradi. Temur bog'larini qurishda Suriyadan, ya'ni shomdan keltirilgan me'morlar ishtirok etgan bo'lishlari mumkin. Lekin sharafiddin Ali Yazdiyning xabar berishicha, ushbu bog' qurilgan joy, u bunyod etilmasdan oldin ham Bog'i shamol nomi bilan mashhur bo'lgan. Demak, bog' bu yerda ilgaridan mavjud bo'lgan bog'lar asosida shakkantirilgan [33; 29-31-b.].

*Bog'i Bo'ldu.* shahardan Sharq tomonda Bog'i Dilkushoga yaqin joyda hozirgi Ulug'bek nomli jamoa xo'jaligi erida bo'lgan. Bog' saroyi xarobalaridan yaproqlariga oltin suvi yuritilgan guldasta naqshlar topilgan. M.Bulatov ushbu bog' nomini «Bo'ldu» emas bildi, ya'ni «Bilimlar bog'i (Bog'i bildi)», deb tushuntiradi. Olimning fikricha, ushbu bog'da Amir Temur saroy olimlari, ulamolar va she'riyat namoyandalari bilan yig'ilishib, turli xil ilmiy bahslar, she'riyat kechalarini va suhbatlar o'tkazib turgan [16; 102-123-b.].

*Bog'i Baland.* Ushbu bog' Cho'ponota tepaligining g'arbida, taxminan, hozirgi aeroport va avtosaroy hududida joylashgan. Bog'da alohida anjirzor, uzumzor, olmazorlar bo'lib, ular bog' manzarasiga o'ziga xos husn qo'shgan.

Bog'ning o'rtaida yuksak mahorat bilan barpo qilingan ko'shk qad rostlab turgan, bog'ning atrofi baland devor bilan o'rab olingan, faqat shimoliy tomoni Zarafshon daryosining qirg'oqlari bilan chegaralanib turgan. Bog'i Balandning bir chekkasidagina hozirda ham anjirzorlar saqlanib qolgan [33; 30-b.].

*Bog'i Davlatobod.* Samarqand-shahrisabz yo'li ustida Bog'i Dilkusho bilan Bog'i Jahonnamo oralig'ida joylashgan. Temur davlat yumushlaridan bo'shanganda va xarbiy yurishlardan so'ng shu bog'dahordiq chiqarar ekan. Bog'da oltita turli hovuz bo'lib, ular ariqlar bilan tutashtirilgan. Hovuzlarni turli parrandalar, bog'ni esa nafis hayvonlar, tovuslar bezagan. Bog' saroyi balandsun'iy tepalik ustiga qurilgan bo'lib, undan atrofdagi go'zal xushmanzara joylar kurinib turgan [23; s. 142,14; s. 164]. (6-rasm).

*Bog'i Chinor.* Bog'da dov-daraxt, chinorlar ko'p bo'lganligidan shunday deb nom olgan. Samarqanddan Sharq tomonda, Darg'om arig'i atrofida hozirgi Xo'ja qishlog'i yonida joylashgan. Ushbu bog'dagi saroy ham sun'iy tepalik ustiga qurilgan.

*Bog'i Jahonnamo.* Bu bog'da dunyo iqlimiga xos mevazorlar bo'lib, uni bog'-oyna ham deyishgan. Bog' Samarqanddan ancha janubda, Urgut tog'lari etaklarida joylashgan.

*Bog'i Zag'on.* Samarqanddan Sharqda qadimiy Panjikent karvon yo'lining ustida Ko'chai xiyobon mavzeidagi bog'. Hozir ushbu bog' o'rnida shu nom bilan ataluvchi qishloq mavjud.



**6-rasm.** Samarqand. Davlatobodda Amir Temur bog'ining grafik  
rekonstruksiyasi

(Алимов Ў. Ўрта асрларда  
Мовароуннахрда боғчилик жўжаллиги  
марҳуи. – Т.: Фан, 1984).


(N.V. Gilmanova "Arxitektura timuridov i  
baburidov otrajennoye v miniatyure" – T.  
2019).

*Bog'i Maydon.* Samarqanddan shimolda Afrosiyob tepaligi bilan Cho'pon-ota qirlarining o'rtaida, hozirgi Bog'i Maydon qishlog'i o'rnida barpo etilgan. M. Bulatov ushbu bog' nomidan kelib chiqib, u chavg'on o'yini uchun mo'ljallangan bo'lgan, degan fikrni ilgari suradi. Adabiyotlarda ushbu fikr foydasiga aytilan biron bir ma'lumotni uchratmasakda, chavg'on o'yini uchun zarur bo'lgan, nisbatan tekis chimlik maydon ushbu bog' hududi tarkibiga kirgan bo'lishi mumkin. Bog'ning asosiy rivojlanish davri Ulug'bek davriga to'g'ri keladi. Chunki u Ulug'bek tashkil etgan rasadxonaga yaqin joylashgan va rasadxona olimlarining dam olishlariga moslashtirilgan edi. Ulug'bek ushbu bog'da "Chilstun" nomli ikki qavatlil hashamatli saroy ham barpo etadi.

*Bog'i Nav.* Amir Temurning Samarqandda qurgan bog'lari ichida eng so'nggisi bo'lib, 1404-yili bunyod etilgan. Samarqand shahar devoriga yaqin, undan janubiy g'arbda, taxminan hozirgi Dorilfunun xiyoboni va shahar markaziylaridagi madaniyat va istirohat bog'i hududlari o'rnida joylashgan (7-rasm).

*Taxti Qoracha bog'i.* Bu bog' shahrisabz yo'lidagi Zarafshon tog'i dovoni etagidagi anhor atroflarida bunyod etilgan, «Imorat qurishga yaroqli har bir joyning zoya ketishini ravvo ko'rmaydigan» Temur bu mavzeda ham bog' solmoqqa farmon beradi. Bog' o'rtaida bir ko'shk qurilib, unga «Taxti

Qoracha» deb nom beradi. Taxti Qorachaning suvi qahrabodek tiniq, billur kabi toza bo'lgan [33; 31-b.].



**7-rasm.** Samarqanddagi Amir Temur bунyод etган -"Bog'i Chinori Nav" ni Chorbog'

uslubida qayta tiklash loyihasi.

(A.S. Uralov., S.N. Sadikova "O'rta Osiyo an'anaviy "Chorbog"" uslubi va zamonaviy bog'-park san'ati – T. "San'at" 2012).

#### Nazorat uchun savollar:

1. «Bog'i Bihisht» bog'i kim uchun qurilgan va nechanchi yilda?
2. «Amirzoda shoxrux» bog'i kimning sharafiga va qachon qurilgan?
3. Ispan elchisi Klavixo «Bog'i Dilkusho» haqida qo'lyozmalarida qanday ta'riflaydi?
4. Temurning nabirasi-Mironshohning qizi Beka Sulton nomiga atab Samarqanddan g'arb tomonida qanday bog' barpo etgan?
5. "Bog'i Baland" ning hozirgi kunda qaysi hududda bo'lgan?

#### 1.3. Xonliklar va Chor Rossiysi davridagi bog'-parklar

Hozirgi O'zbekiston hududida XVIII asrning o'rtalarida katta siyosiy o'zgarishlar ro'y beradi. O'zbek qabilalarining o'zarо kurashlari natijasida O'rta Osiyo uchta aloxida davlatlarga ajratiladi. Natijada Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklari paydo bo'ladi. Buxoro amirligini boshqargan

Muhammad Rahimxonning (1756-1758) jiyani Doniyolbiy (1758-1785) Buxoro va Karmana shaharlarini qayta qurish, obodonlashtirish va bog‘-rog‘lar buniyod etish bobida katta ishlar qiladi. Karmananing eski o‘rni bo‘lgan Ko‘hna qo‘rg‘on qal‘asi yonidagi Charmgar Chorborg‘i o‘rnida Buxoro amirlarining oilalari yashashlari uchun katta bog‘ – “Xonchorborg” qurdiradi. Bu bog‘ hozirgi Karmana shahrining shimal tomonida Zarafshon daryosining janubiy sohilida qad ko‘targan eski Karmana (Ko‘hna Qo‘rg‘on) qal‘asi va Zarafshon daryosiga yaqin joylashib, uning suvi bilan sug‘orilgan. Bog‘ atrofi devor bilan aylantirilgan. Bog‘da katta va keng saroy tiklanib, o‘zbekona milliy uslubda bezatilgan. Saroyning ayvonlari, shipini Buxoroning taniqli ustalari butun mahoratlarini ishga solib o‘yma ganchkorlik zarhal ranglar bilan bezashgan. Uning boshqa bog‘lardan farqi, bu yerda katta-katta dovdaraxtlar-chinorlar o‘sgan [7; s. 685]. Xonchorborg‘dan tashqari Karmanada “Gulchorborg”ga ham asos solingan. U ham chiroyli qo‘rg‘on, devorlar bilan aylantirilgan, gullar va ulkan daraxtlar bilan qoplangan. “Gulchorborg”da turli navdagisi atirgullar katta miqdorda parvarish qilingan. shuningdek, Hayrobod chorbog‘, Bog‘i Olchin, Asqarobod chorbog‘, Zakotchilar chorbog‘i, Nosirbodom chorbog‘i, Jarchorbog‘lar kabi bog‘lar ham qurilgan.

Navoiy viloyatining hozirgi Navbahor tumani hududining Qoratog‘ qismida qadimda Sug‘dalar yachagan. Qoratog‘ning qirlariga tutach Qalqonota arig‘ining yonidan qadimda Buxorodan Xatirchiga qarab karvon yo‘li o‘tgan. Tog‘ qir-adirlari, ayniqsa Zarafshon daryosi atroflari qalin to‘qayzorlar bilan qoplangan. Unda turli qushlar, hayvonlar ko‘p bo‘lgan. XX asr boshlarida Buxoro amiri Said Olimxon Uchtut, Salimsulton qishloqlari dahanasida maxsus shikorgohlar tashkil etgan. Geografik joylashuvi, tabiiy iqlim sharoitlari va siyosiy cheklanganligi tufayli ushbu amirlik va xonliklar hududida o‘ziga xos me’moriy-badiiy maktablar: Buxoro, Farg‘ona, Xorazm me’morchilik maktablari tarraqiy etadi. Bu maktablar namoyandalari qurgan bino va inshootlar, bog‘-saroy va chorbog‘lar o‘zlarining hajmiy rejaviy, landshaft kompozitsiyalari, me’moriy qurilmalari va badiiy bezaklari bilan bir-biridan farq qilgan [51; s. 115-123].

Buxoro xonligi bog‘-saroylari haqida arxitektura doktori M.A. Yusupova o‘zining "Sadovo-parkovie ansambl Buxarskogo oazisa" maqolasida yaxshi ma’lumotlar keltirgan. Uning yozishicha, Buxoroda bog‘-park san’atining namunalari X-XII asrlardayoq shakllana boshlagan [50; s. 247-251]. Buxoro xonligi bog‘ – saroylari Qo‘qon va Xiva xonliklari bog‘-saroylaridan shaharlardan tashqrarda keng hududda, alohida bog‘-ansambl tarzida shakllanganligi bilan farq qiladi. Bu xususiyat Buxoro shahri yonida joylashgan Sitorai-Moxi-Xossa va shirbudun bog‘-saroylari misolida yorqin aks etgan. Ushbu bog‘-saroylarning oxirgisi bizgacha saqlanmagan. Ular

tarkibiga kirgan qabulxona, yashash xonalari, masjid, yozgi saroy, oshxona, haram va boshqa imoratlар keng bog' bag'rida tarqoq holda joylashgan.

Kogondagi xon saroyi qoshidagi bog' esa bundan keskin farq qilib, unda saroy binolari va yordamchi xonalar yaxlit me'moriy majmua tarzida bir binoda qurilgan. Bog'ning rejasi muntazam simmetrik kompozitsiyaga ega. Buxorodagi Moxi Xossa bog'-saroyida esa alohida turgan yozgi ko'shk, hovuz sohilidagi ikki qavatlik ko'shk va tantanali zalga yondashgan ravoqli raxravlar ko'zda tutilgan.

Buxoroning oxirgi yuz yillik bog'-saroylari arxitekturasida Yevropaga xos qurilish madaniyati o'z aksini topgan [4; s. 82]. shirbudunda, Kogonda va Sitorai Moxi-Xosadagi bog'-saroylar arxitekturasida turli davrlar va o'lkalarga xos bog'-parkchilik madaniyati o'zaro qo'shib ketgan. Jumladan, ularda O'rta Osiyoga xos Chorbog' uslubi, rus va mavritaniya, gotik va mahalliy badiiy unsurlarni kuzatish mumkin. Moxi – Xossa boshqa bog' – saroylardan farqli o'laroq, Chorbog' uslubiga yaqin turadi. Hududi nisbatan muntazam rejaga asoslanib, xiyobonlar, chamanlar, chorboqqa xos hayvonot dunyosi, landshaft yechimi, katta hovuz va uning bo'yidagi ko'shk mavjud.

Buxoro xonligini shayboniylar sulolasи boshqargan davrda ham bog'lar barpo etilgan. Toshkendagi Kaykovus Chorbog'i, Buxorodagi Ubaydullaxon Chorbog'i va Buxoro, Karmana, Samarcand atroflarida yaratilgan Abdullaxon II (1534-1598) ning Chorbog'lar XVI asr bog' tuzish san'atining nodir namunalari hisoblanandi.

Abdullaxon II Amir Temurdan keyin O'rta Osiyoda Sohibqiron nomi bilan ulug'langan, xizmatlari bois Iskandari Soniy – ikkinchi Iskandar degan faxrli nisba bilan e'zozlangan qudratli hukmdor edi. U yaratgan me'moriy obidalar orasida chorbog'lar alohida o'rin tutgan [51; s. 115-123].

Shayboniylar davrida yaratilgan bu chorbog'lar hozirda saqlanmagan bo'lsa-da, ammo bizgacha etib kelgan arxeologik va yozma manbalar asosida bu bog'larning qanday tuzilganini, yaratilgan joylarini, bog'-park san'ati asarlari bo'lganini bilishimiz mumkin.

Past-Darg'om tumanining janubiy darvozasi hisoblanmish "Xonchorbog'" qishlog'ida ham Abdullaxon II yaratgan Chorbog' haqidagi tarix besh asrdan beri xalq xotirasida avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Aytishicha, Xonchorbog' yerida juda katta bog' barpo qilinib, undagi mevalar shig'il pishib, mo'l-ko'l hosil bergen. Bog' yonidan katta savdo yo'li o'tib, karvon Xoncharboqqa kelganida tuyalar mevali daraxtlarga osilib ularning hosilini eb qo'ymasin deb og'zini to'rva xalta bilan bog'lab o'tishgan ekan.

Saroy tarixchisi Hofiz Tanish al-Buxoriyning "Abdullanoma" asarida Samarqanddagi tartibsizliklarni bostirish uchun qo'shin tortib borayotgan Abdullaxon II hozirgi Pastdarg'om erlariga bir necha bor to'xtab o'tganligini

uchratamiz. Bu haqda quyidagilar yozilgan: "...Abdullaxon o'sha joydan osmonga suyanuvchi uzangini harakatga keltirib, yaxshi tole bilan yo'lga tushdi. Qancha manzillarni kezib Qoqlik degan bir mavzega qo'ndi... ul Iskandar rutbali shoh Ko'li Mog'iyyonga tushdi. Ul mavzening havosi zafarshoir otlar changidan Totor iporining g'ayratini keltiradigan bo'lди. O'sha Eram bog'idan ham yaxshiroq sahro va hurramlik o'tlovida saroparda va borgoh qubbasini oy manziliga to'g'rilab tiqdilar va o'sha biyobon atrofi chodirlar o'rni bo'lди" [11; 416-b.].

"Abdullahoma" asarini nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi akademik Bo'riboy Ahmedov Qoqliknı shunday izohlaydi: "Qoqlik-bu aslida Qo'riqi Qoqlik deb atalib, Qarshi bilan Samarqand oralig'iadi Samarqandga yaqin bir mavze bo'lgan. Ko'li Mog'iyon-Ko'li Mog'ok, Samarqandning g'arbiy tarafida, undan taxminan ikki shar'i [4 km. ga yaqin] masofada joylashgan xushmanzara joy [11; 416-b.]. Yuqoridagi ikkala joy ham Xonchorboqqa yaqin mavzeler bo'lgan".

Qarshidan Samarqandga yo'lga chiqqan Abdullaxon II bir necha manzillarda to'xtab, Past-Darg'omdagı eski Anhor kanalining Keskanjar qismiga duch keladi. Xon Keskanjar atrofidagi qaqrab yotgan erlarni obod qilishga buyruq beradi. Qo'shin hozirgi Xonchorbog' erida to'xtab, katta tepalik ustiga qo'rg'on quradi. Qo'rg'on atrofini to'rtburchak shaklda qalin paxsa devorlar bilan o'rab hovli ichiga daraxtlar, gullar ekadi. Bu inshoot Xonchorbog' deb ataladi. Eski Anhor kanalini qayta ta'mirlab uning atrofidagi erlarni obod qiladi.

Abdullaxon II Xonchorbog'i asrlar o'tishi bilan xarobaga aylanadi. 1936-yilda Xonchorbog' xarobalarini o'rgangan I.A. Suxarev o'z hisobotlarida quyidagi mazmundagi jumلالарни yozib qoldirgan: "Xonchorbog' to'rtburchak shaklda qurilgan bo'lib, maydoni 19 gettarni tashkil qilgan. Bu yerda paxsadan qurilgan baland devorlarning qoldiqlari mavjud bo'lib, bu devor xarobalari 1-1,5 metr balandlikda saqlangan. To'rtburchak bog' shakli shimoli-Sharqdan janubi-g'arba tomon biroz cho'zilgan. Bog' sahni g'arba qarab ancha pasayib boradi. Hozirda bog' hududi bo'y lab uning shimoliy tomonidan zamonaviy yo'l o'tgan. Bog'ning janubi-Sharqiy burchagida kichik tepalik mavjud. Sharq tomonining o'rtasidan bog' hududiga qadimiy ariq kirib kelib, uning 150 metrga yaqin qismi ko'zga tashlanadi va u eski Anhor sug'orish tizimiga tutashgan. Bog'ning ariq kirgan ushbu joyida o'chamlari 80x40 metr hajmdagi to'rtburchakli pastqam tepalik saqlanib qolgan. Ushbu tepalikdan bog' markazi bo'y lab bog'ning g'arbiy qismiga yaqin joyda balandligi 6 metrlar chamasidagi tepe qismi tekis 16x16 m sahnli tepalikka qarab eski ariq izi o'tkazilgan. Ushbu tepalik ustida maydalangan g'isht va oq qizg'ish, sariq rangdagi ganch suvoq parchalari bor. Dehqonlarning aytishicha, uchastka erini traktor ag'darganda yerda eski daraxt kundalari uchragan. Bu kundalar

ushbu hududda o'tmishda atrofi devor bilan aylantirilgan, o'rtasidan ariq va bosh xiyobon o'tkazilgan keng hududli bog' bo'lganligini bildiradi. Balandligi 6 metrlik tepalik ustida esa bog' ko'shki joylashgan deb hisoblash mumkin. Bog'ning bosh xiyoboni darvozadan boshlanib, ehtimol ushbu ko'shkacha davom ettirilgan.

Bog'ning darvoza qismida yuqorida aytigan tekis tepalikni nazarda tutib uming darvozaxonasi bo'lgan deyish mumkin. Baland tepalikda qurilgan bog' ko'shki maydoni jihatidan uncha katta bo'lмаган. Buni biz o'sha joydan topilgan ganch suvoqlarining ranglaridan bilishimiz mumkin. Bu inshoot, farazimizcha, bog' eri egasining vaqtinchalik qarorgohi bo'lган" [41; s. 5-6].

Xonchorbog' xarobalari 1967-yilda to'liq o'zlashtirilgan. Arxeolog I.A. Suxarev hisobotlaridan bilishimiz mumkinki, Abdullaxon II ning ushbu bog'i "Chorbog'" uslubida yaratilgan. Chorbog'lar loyiha bo'yicha barpo etilib atroflari devor bilan o'ralgan, bosh va yonbosh xiyobonlar bo'ylab teraklar, chinorlar va boshqa xushqad daraxtlar ekilgan. Bog'larda mevali daraxtlar ham o'stirilgan [6; 83-b.].

Temur va Temuriylar davridagi bog' tuzish san'ati shayboniyalar davrida ham davom etgan. Chorbog' tartibida tuzilgan bog'lar XIII asrda yaratilgan va XVI asrda qayta ko'chirilgan "Irshod uz ziroat fi ilmil xirosat" [Ekin ekish yo'riqlari va dehqonchilik ilmi] risolasi asosida barpo etilgan. Bu risolaning bir bobu "Ko'chat, gul, daraxt, muattar o'tlar o'tqazish, Chorbog'ga tartib berish va uni barpo qilishda izchilikka rioya qilish" deb ataladi [9; №556. 42a-42b b.].

Shu asarning "Chahorbog'" va uning imorati" sarlavhali bo'limida Chorbog'ni qurish tartibi quyidagicha bayon etilgan: "Qoida shuki, chaharbog'ning girdini devor tagidan uch ziro<sup>1</sup> tashlab, bir ziro keladigan ariq qaziladi. Ariqning devor tomonidagi qirg'og'iga bir-biriga yaqinlashtirib safidori Samarqandiy (oq terak) ekiladi, u xushnamodir. Kaju [qarag'ay] u qadar latofatli emas, shuning uchun uning xojati yo'q. Bog' tarafidagi ariq qirg'og'iga savsan [gulsafsar] ekish munosibdir. Keyin yana rahrav uchun uch zar' [zar'-gaz, 107 sm ga teng] arq (yo'l) tashlab, bir ziro'lik ariq qaziladi. Uning ariq tomonidagi qirg'og'iga savsan ekib, safidordan besh ziro' uzoqlikda bo'lgan pushtasiga o'rik ekiladi: xar ikki o'rikning guli surh va shaftolu [ekish] munosibdir. Mazkur o'rikning har biridan keyin bog' ichkarisi tomon besh qarch oraliq tashlab, yo o'rik ekib, olu, uzum payvand qiladilar. Shundan keyin oraliqdan imorat oldidagi xovuzga boradigan to'g'ri ariq chiqaziladi. Uning qirg'og'iga hamisha bahor, savsanni rasmiy va hanjariy ekiladiki, ular xushnamodirlar. Mazkur shoh ariqning har ikki qirg'og'i bo'ylab rahrav uchun atrofi o'ralgan arq tashlanadi. Keyin sebarqa [yo'ng'ichka, beda] uchun joy tayyorlanadi. Sebargazor tomonda alohida-alohida baland chahorchaman [to'rt gulzor]

ajratiladi. Birinchi chaman-anor, ikkinchisi-behi, uchinchisi-shaftoli va shadir [shaftolining bir turi], to'rtinchisi amruz [nok] bo'ladi. Chahorchamanlardan keyin bog'lar tuziladi. Birinchi [bog']ga ko'k binafsha, elchi savsan va zeb gul xisoblangan sadbar: ikkinchisiga za'faron, nargiz va biror oddiy zebo gul: boshqasiga bog' lolasi, tog' lolasi, dardari go'sh, dardari kokiliy, oddiy savsan, saxroyi va oq savsan, oddiy shaqoyiq: yana boshqa bog'ga oq yosuman, sariq arg'un, sariq binafsha, lolayi du tabaqa, shabbuy va sariq lola, nasrin, bag'dodiy, qazg'o: yana biriga guli ra'no, bularning oraliqlariga xashxosh [ko'knor gul]: keyingi bog'ga sariq yosuman, guli shash moxa, zambak [nilufar], qaranfulgul, limu, savsani, savsani xatmiy uni yana gul xayri ham deb ataydilar. Bog'ga xatmi xitoyi, oq yosuman, shab ba do'ston, chaman akruz, lolayi xitoyi, bo'ston afruz [gul-tojixo'roz] ekiladiki, bu gullar birin-ketin ochiladilar. Bog'larning etagiga, ularning Sharqiy va g'arbiy tomonlariga nastaran ekiladi; uning yonidan hovuzning shimol tomonidan yana ikki buta nastaran ekadilar, xovuz imoratdan 20 zar, yoki qancha munosib topsalar, shuncha uzoqlilikda bo'lishi kerak. Imorat kursisi atrofiga chinor, tol tut ekadilar. Imoratga yaqin joylarga, uning Sharq tomoniga olibolu, g'arbiy tomoniga-gilos, ular oralig'iqa qizil arg'un ekiladi. Imoratning janub tomnidagi lulapulga [atrofi ariq bo'lgan sufa] olma ekiladi. Chunki issiq oftob kunlari [olma daraxti] uning taftini qaytaradi" [9; №556. 42a-42b b.].

Bu risolada quyidagi mevalarning nomi berilgan: bodom, o'rik, shaftoli, anor, olcha, gilos, anjir, jiyda, tut, pista va boshqalar. I.A. Suxarev hisobotlariga tayanib Xonchorbog'ning qanday tuzilganligini ilmiy o'rganishimiz, tasavvur qilishimiz va uni qayta grafik tiklashimiz mumkin. Abdullaxon II Xonchorbog'i to'rtburchak shaklda baland paxsa devor bilan o'rabi olingan. Xonchorbog'ning bitta darvozasi bo'lib, u Chorbog'ning Sharq tomonida joylashgan. Darvoza ostidan eski Anhor kanalidan suv olgan katta ariq oqib o'tib Chorbog'ning markaziy maydonigacha borgan va bir necha tarmoqlarga bo'lingan. Darvoza yonida "darvozaxona" va bog' ichidagi 80x40 metr hajmdagi tepalik ustida bog' ko'shki qurilgan. Darvozadan boshlangan yo'l chorbog'ning g'arbiy devori yonidagi baland tepalik ustiga qurilgan bino [ko'shk]ga tutashtirilgan. Yo'l chetidagi hovuzlarga boruvchi ariqlar bo'lgan va ariqlar yoqasiga gullar ekilgan.

Manzarali xushqad daraxtlar bog' devoriga yaqin ekilgan. Undan so'ng mevali daraxtlar va gullar tartib bilan ekilgan. Chorbog' hududi yo'lak va ariqlar yordamida ayrim bog'larga, bog'lar esa chamanzorlarga bo'linib chorcharmanlarni tashkil qilgan. Daraxt va gullarning erta bahordan kech kuzgacha hosil berib, ochilib turishiga e'tibor berilgan. Abdullaxon II Xonchorbog'ini o'z davrining mohir bog'bonlari me'moriy loyiha asosida barpo etgan deyishimiz mumkin. Hozirda bog' o'rni aniq ekan, uning o'rniga


tarixiy Xonchorbog'ni qayta tiklash imkoniyatlarini izlash maqsadga muvofiq deb o'yaymiz.

*Buxoro xonligi bog'-parklari. Sitorai Mohi Xosa-* Buxorodagi mang'itlar sulolasining 3- avlodiga mansub saroy - bog'. Buxorodan 4 km shimolda. Dastlabki binolar Nasrullaxon (1826-60) va Muzaffarxon (1860-85) hukmronligi davrida qurilgan. Abdulhadxon hukmronligi davri (1885-1910) da saroy va xushmanzara bog' barpo etilgan. Amir Olimxon hukmronligi davri (1910-20)da yangi saroy qurilgan. Sitorai Mohi Xosaning maydoni 6,7 ga bo'lib, eski saroy, g'isht to'shalgan 3 ta hovli va ko'pgina xonalardan iborat. Bu yyerdagi amir Muzaffarxon mehmonxonasi keng, baland zali, ikki tomondagi bolxonali ayvonlari, Yevropacha eshik va derazalari bilan ajralib turadi. Uch qismga bo'lingan murabba tarhli xonani tashkil etuvchi Abdulahadxon xonasi bir-biriga qarama-qarshi joylashtirilgan va bir xilda bezatilgan 2 ta zal o'rtaсидagi baland supa orqali birlash-tirilgan. Supaning g'arb tomoniga shohnishin taxt o'rnatilgan. Eski saroy Sharqidagi amir Olimxonning bosh qarorgohi - yangi saroyga ravoqli muhtasham darvoza o'rnatilgan. Darvoza ustidagi ravoq O'rta Osiyo binolariga xos bo'Imagan shaklda ishlangan, yon qismlari sirlangan, to'q, qizil, ko'k, binafsha va xavo rang koshin bilan qoplangan.

An'anaviy sirkori parchinlar bilan birga Rossiyadan keltirilgan chinni qoplamlardan ham foydalanilgan. Darvozaning tepe qismiga ganchdan guldon shaklidagi bezaklar ishlangan. Yog'ochdan qilingan ikki tabakali darvozaga milliy naqshlar o'yilgan va mis gul mixlar bilan mustahkamlanib, nafis guldar zulfin o'rnatilgan. Darvozaxonadan tashqi hovliga o'tiladi. Hovlining 3 tomoni ayvon bilan o'ralgan. Darvozadan kirishdagi o'ng qo'lda kichkina favvora bor. Katta ayvon hovlining shimoliy tomonida, g'arb tomonida oqsaroy, janubiy tomonida esa oynavand ayvon, kutish xonasi va amirning qabulxonasi joylashgan [60]. Binoga kiraverishda G'ozg'on marmaridan usta Abdurahim yo'nib ishlagan sher haykallari bor. Amir qabulxonasi dahlizi devorlari ganchdan naqshdar qilib bezatilgan. Namoyonlariga naqqosh usta Hasanjon guldon va gullar shaklini ishlagan.

Oqsaroy ichkarisi Sharqning jim-jimador, nafis naqshlari jozibador gullari bilan uyg'unslashgan. Devorning ko'zgulardan iborat bo'lishi va gulganchdan ishlangan bezaklarning ko'zni qamashtiradigan darajada oqligi xonani ko'r kam qilib ko'rsatadi. Oqsaroy 2 yil mobaynida Usta shirin raxbarligida (25-30 kishi tomonidan) qurilgan va pardozlangan [50; s. 247-251]. Yangi saroy rus muhandislari Sakovich va Margulis rahbarligida qurilgan. Qabulxona Yevropa uslubida biridan ikkinchisiga o'tiladigan qilib qator joylashtirilgan. Yangi saroyning kiraverishi boqqa tutashib ketgan. Bog'ning shimoliyqismida haram joylashgan. Uning g'arbida haram xizmatkorlari uchun xonalari bo'lgan kichik hovli bor. Haram 2 qavatlari va yarim doira shaklida qurilgan. Mahalliy me'morlik an'analarini o'zida saqlab

qolgan. Bog‘ning qoq o‘rtasida 8 xonali ko‘shk bor. Uning xonalari 8 qirrali qilib qurilgan mehmonxona atrofida joylashgan. Oshxonaning devorlari tilla va kumush suvi yogurtirib bezatilgan. Ko‘shknipg janubida to‘g‘ri burchakli devori tokchali katta xona bo‘lgan. Qolgan boshqa xonalar yotohxona va xizmatkorlar uchun mo‘ljallangan. Bog‘ning janubida ikki qavatli masjid, katta hovuz qurilgan (1917-18). Hovuz kulrang G‘ozg‘on marmari bilan koplangan. Binoning ichida uzun yo‘lak bo‘lib, xonalari faqat bir tomonidan shamollatilgan. Bugungi kunda Sitorai Mohi Xosada Buxoro davlat me’moriy-badiiy muzey-qo‘riqxonasi, dam olish uyi va bolalar sanatoriyasi joylashgan (8-rasm).



**8-rasm.** Buxorodagi Sitorai Mohi Xosa bog‘-saroyida (XIX asr) an‘anaviy Chorbog‘ uslu-bining qo‘llanilishi; a-bog‘-saroyi va hovuzning umumiy ko‘rinishi; b-bog‘ rejasি

(A.S. Uralov., S.N. Sadikova “O‘rta Osiyo an‘anaviy “Chorbog‘” uslubi va zamonaviy bog‘-park san’ati” – T. “San’at” 2012).

*Xiva xonligi bog‘-parklaridan bizgacha yetib kelgan ob‘yekt-bu Nurullaboy saroy bog‘i – Xivadagi me’moriy yodgorlikdir. Asfandiyorxonning sobiq rasmiy qabulxonasi. Bu saroy- bog‘ni Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz o‘g‘li Asfandiyorxon uchun qurdirgan (Nurullaboy degan shaxsning bog‘i sobiq olingani uchun uning nomi Nurullaboy bog‘i deb ataladi) [51; s. 115-123]. Nurullaboy saroyi 9 ta kattakichik xonalar, darvozaxona, saroy, qabulxona, arzxona, madrasa, xizmatchilar uchun turar joy, bog‘, gulzorli hovlilardan iborat. Majmuaga (185,6x143,0 m) jan.dagi ariq ustiga qurilgan ko‘prik orqali darvozadan kiriladi. Darvozaxonaning dalonida bir necha xonalar bor. Saroy to‘g‘ri to‘rtburchak tarqli (87,1x65,0 m), 4 hovlili qal‘aband devor (bal. -7,5 m) bilan o‘ralib, burjlar ishlangan. 3 hovlida 2 qavatli, janubiy-g‘arbiy hovlida 1 qavatli xonalar joylashgan. Bosh tarzi darvozasi madrasa, turar joy va arzxona bilan o‘zaro bog‘langan. Saroy shimolidagi 2 hovli ayvonlarning tomi tomi ikkinchi qavat uchun o‘tish joyi vazifasini o‘taydi. Katta hovlisaroyning shimoliy-g‘arbiy qismini egallagan. Hovlida quduq bor.*

Qabulxona (27,5x32,1 m) saroyning shimoliy-Sharqida o'ziga xos Yevropacha uslubda qurilgan. Bosh tarzi janubga qaratilgan. 1 qavatli. 7 xonasi bor. Old va orqa tomoni ayvonli.

Arzxona (82,0x71,0 m) saroyning Sharqida joylashgan. Tarhi "G" shaklida. Janubiy qismi uch burchakli, shimol va g'arbg'a qaratilgan ayvonlari mavjud.


Madrasa bosh tarzi Sharqqa qaragan. Janubiy-Sharqiy burchagida 4 ustunli 2 qavatli masjid, shimoliy-g'arbiya ayvon, xovli atrofida darsxona va xujralar joylashgan. Tashqi devorlari va to`rt burchagidagi guldastalar pishiq g'isht va koshin bilan bezatilgan.

Bog' saroyga tushgan bo'lib, baland qal'aband devor bilan o'ralgan, burjlar ishlangan. Bog'ning uch tomonida eshik bo'lib, 2 eshik saroy bilan, Sharqdagisi arzxona, kabulxona bilan bog'langan. Bog' o'rtasida sakkiz qirrali hovuz bor.

Nurullaboy saroynining ganchkor devorlari oltin va kumush bilan sayqallangan, zalning «oltin shifti» nihoyatda ko'rkar, undagi murakkab giriҳ naqshlar o'ziga xos, ichki va tashqi darvozalari, eshiklari, ayvon ustunlaridagi naqshlar Xorazm yog'och o'ymakorlining yuksak namunasidir. Qabulxonadagi baland eshiklar, katta rangdor oynalar, parket pollar va koshinkor pechlar Yevropa me'morligi bilan uyg'unlashgan. Tashqi tomoni silliq g'ishtlar va feruza rang koshinlar bilan shaxmat taxtasi shaklida bezatilgan. Uni qurishda ganchkor ustalar Xudoybergan hoji, usta Nurmat, Ro'zimat Masharipov, yog'och o'ymakorligi va uni bo'yash ustalari Bobojon Qalandarov, Ota shayx, Ismoil Abduniyozov, g'isht teruvchi Quryoz Bobojonov va boshqalar qatnashgan [36; 127-b.]

Nurullaboy saroysi mujassamatida Xorazm milliy bog'-park san'ati va uy-joy qurilishining an'anaviy xususiyati o'z ifodasini topgan.

*Chor Rossiyasi davri bog'-parklari.* Qo'qon xoni Xudoyorxon davrida (1845-1875 yillar) Qo'qonda 1873 -yilda xon o'rdasi bitkazilib nihoyasiga etkazildi [46; s. 40-51]. Bu davrda shaharda "Madrasai Oliy", "Madrasai Hokim oyim" va "Madrasai Sulton Murodbek"lar qurilgan. Qishloq xo'jalik ishlari va bog'lar bunyod etish ishlariga jiddiy e'tibor berishdi. Yangi anhor va ariqlar qazdiriladi. Xudoyorxon o'rdasi atrofida "Chorbog'" usulidagi an'anaviy bog'-chamanlar bunyod etiladi va ular suv bilan ta'minlanadi. Bu yo'l bilan o'rda atrofi bog' bilan o'rab olinadi, qulay mikroiqlim, sayr tomosho yo'laklari tashkil etiladi (*9-rasm*).



**9-rasm.** Qo'qondagi Xudoyorxon saroy bog'ining rekonstruksiyasi. Chapda-  
1870 yilga doir arxiv materiali;  
o'ngda-saroy-bog'ining grafik rekonstruksiyasi (N.I. Sadiqov bo'yicha)  
(Adilova L.A., Uralov A.S. "Bog'-parklarni ta'mirlash.-T.: TAQI, 2017).

Ma'lumki, XIX asning ikkinchi yarimida Chor Rossiya armiyasi O'zbekistonning yirik shaharlari: Toshkent, Jizzax, Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Qo'qon kabi shaharlarni istelo qiladi. Bosib olingan har bir shaharda ular o'z qunini va tinchligini ta'minlab bo'lgach, o'zlari va armiyasining erkin joylashishi, shaharlар va okruglarni boshqarish, o'lkadagi o'z vazifalarini boshlab yuboradi. shaharlarning eski qismi esa o'zgarishisiz o'z xolicha qoldiriladi [17; 142-b.].

Chor Rossiyasi armiyasi egallangan tarixiy shaharlarda o'zlari uchun shaharning yangi "Yevropacha" qismini shakllantiradilar. shaharlarning yangi Yevropacha qismida armiya batalionlari, rus chinovniklari va ularga xizmat ko'rsatuvchi rusiy zabon aholi joylashtirilib, ularning erkin va osoyishta Yevropacha turmush tarzi va madaniyati asosida yashashlari uchun barcha tegishli shart-sharoitlar yaratib beriladi. Maishiy turmush va tibbiy binolardan tortib to Xristian dini cherkovlarigacha quriladi [46; s. 40-51].

Buning uchun esa eng avvalo Chor Rossiyasi hukumati istilo etilgan shaharlarda yangi Yevropacha shahar qurish rejalarini va loyihibalarini ishlab chiqib, ularni o'z armiyalari va mahalliy xalq kuchi yordamida amalga oshirishga kirishadilar. Masalan, Samarqandda shuning uchun eng qulay shaharsozlik rejasi tarzida tarixiy shahardagi mavjud ark-qal'adan boshlab unga nisbatan radial-doira shaklida joylashadigan yangi shahar qurilishi amalga oshiriladi. O'qday to'g'ri radial va aynan ko'chalar qurilishi va ularni

Yevropacha ko'kalamzorlashtirish, ko'chalar chetiga soya beruvchi manzaraviy daraxtlar (ulkan chinorlar, qayrog'ochlar, piramidasimon tollar) qatorlar ekilib trotuarlar vujudga keladi [27; s. 204].

Samarqand shahar komendati (hozirgi shahar hokimligi) joylashgan hudud bo'y lab Yevropacha uzun va keng xiyobon - "bulvar" loyihasi ishlanib, amalga oshiriladi. Bu bulvar (u o'sha davrda Abramovskiy bulvar deb atalgan) shaharning yangi Yevropacha qismini eski tarixiy qismidan ajratib turgan. Uning dastlabki maydoni 7 hektar, uzunligi - 804 m, eni 133 m bo'lgan [37; s. 24]. Uzun va enli bulvar bo'y lab dastlab to'rtta yopiq xiyobon tashkil etilgan. Xiyobonlarga chinor va "Safidori Samarqandiy" deb nomlangan soya beruvchi oq terak daraxtlari ekilgan. Keyinchalik sobiq sho'ro hukumati davrida bulvar eni ancha qisqarib chetki xiyobonlar o'rniga magistral ko'chalar o'tkaziladi. Natijada u torayib 2 xiyobonlik bulvarga, ya'ni hozirgi ko'rinishiga kelib qoladi.

O'sha davrdagi shahar komendati binosining oldida unga tutash tarzda katta bog' ham tashkil etilgan. U dastlab 6,5 hektar bo'lgan. Yangi shahar markazida esa Zarafshon okrugi boshlig'i binosining atrofida hududi 5, 67 hektarlik yangi bog' tashkil etiladi. Bog' butunlay Yevropacha uslubida rejalashtirilgan bo'lib, mahalliy O'rta Osiyo xalqlarining tarixiy bog' - istirohatchilik san'ati, masalan, chorborg' va chorcharman uslublari qo'llanilmagan. Daraxtlarni sug'orish tizimi ham Samarqand shahri relefi, mahalliy o'simliklar va ularni sug'orish usullariga mos kelmagan [30].

Okrug boshlig'i binosining oldida 1868-yildagi jangda qurbon bo'lgan ruslarga atab yodgorlik va bog' bunyod etiladi.

Shahar komendanti bog'i ichida manzarali ko'l ham mavjud bo'lib, bog' atrofi devor bilan aylantirilgan va undan asosan rus chinovniklari va ularning oilalari foydalangan. Ko'l ichida orolcha yaratilib, o'suvchi va soya beruvchi ko'r kam daraxtlar ekilgan. Ularning ayrimlari hozir ham saqlanib qolgan. sho'rolar davrida bu bog'lar bir-biriga qo'shilib yuborilib sotsialistik tizimiga xos "madaniyat va istirohat bog'i" tashkil etilgan.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Buxoro amirligini boshqargan Muhammad Rahimxonning jiyani Doniyolbiy bog'-rog'lar bobida qanday ishlar qiladi?
2. Kim «Xonchorborg'» va «Gulchorborg'» larni xonliklar davrida qurdirgan?
3. Buxoro xonligini shayboniylar sulolasiga boshqargan davrda qanday bog'lar qurilgan?
4. «Sitorai Mohi Xosa» qayyerda joylashgan va qaysi davrda qurilgan?
5. Xiva xonligi bog' - parklaridan bizgacha etib kelgan ob'yekt?
6. Nurullaboy saroy bog'i qayerda joylashgan?
7. Sho'rolar davrida bog'lar qay ko'rinishga keladi?

#### **1.4. Sobiq ittifoq davri bog'-parklarining tahlili**

Sobiq ittifoq davrida yuqorida yozganimizdek keng xalq omma uchun qurilgan madaniyat va istirohat bog'lari Yevropacha bog'-tuzish san'ati asosida barpo etiladi. Ular asosan shaharlarda shahar hududining qulay hamda shaharsozlikdagi tuzilishi va tabiiy mahalliy sharoitlariga qarab tashkil etilgan. Kichik shaharlarda bitta, katta shaharlarda bir nechta, aholisi 500 mingdan ortgan shaharlarda esa umumshahar ahamiyatiga ega markaziy istirohat va madaniyat bog'idan tashqari shahar tumanlari hududlarida ham tuman mavqeidagi bog'lar barpo etilgan. Ularda aholiga madaniy-ma'rifiy va tomosha xizmatlarini ko'rsatish katta o'rinn tutgan. Bog' maydonlaridagi ochiq estrada sahnalarida professional teatr va eng yaxshi havaskorlik jamoalarining spektakl va konsertlari, darboz, polvon va masxarabozlarning chiqishlari, aksiya kechalari uyushtirilgan, namoyish etilgan. Ommaviy sayil, karnaval, turli sport musobaqalari va boshqa tadbirlar tashkil etilgan. Bolalar uchun maxsus zona ajratilib, u tegishli kichik attraksionlar bilan ta'minlangan. O'zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi tasarrufiga kiruvchi madaniyat va istirohat bog'lari 2003-yilda respublika bo'yicha 82 tani tashkil qilgan [14].

O'rta Osyo respublikalarida XX asr o'rtalaridagi shaharsozlik va landshaft arxitekturasining shakllanishida sobiq sovet hukumatining 1935-yilda qabul qilingan «Moskva shahrini qayta qurishning bosh rejasi» haqidagi qarori muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Moskva shahrini qayta qurish va rivojlantirish loyihasida ko'rsatilgan aksariyat me'moriy tamoyillar Markaziy Osyo respublikalarining poytaxtlari - Toshkent, Samarqand, Dushanbe, Olma-ota, Ashxabod, Bishkek shaharlарining bosh rejalarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qildi. Bu loyihalarda qaralgan masalalar nafaqat rejaviy, texnikaviy, ekologik va transport muammollariga, balki ko'kalamzorlashtirish va landshaft arxitekturasiga ham aloqador edi. Jumladan, dastlab 1929-1931 yillarda, so'ngra 1933-1937 yillarda ishlab chiqilgan Toshkent shahrini qayta rejalashtirish va ko'kalamzorlashtirish loyihalarida «eski» shahar bilan «yangi» shaharni qo'shib, yaxlit bir shaharsozlik organizmini vujudga keltirish, yangi turarjoyhududlari va shahar markazini yangitdan tashkil etish, transport magistrallarini o'tkazish, bog'-parklar, xiyobonlar bunyod etish, shahar hududidan o'tuvchi mavjud suv havzalaridan foydalanib, ularning sohillarida ko'kalamzor istirohat maskanlarini tashkil etish ko'zda tutildi [33; 93-b.].

Toshkent shahri uchun madaniyat va istirohat parkining birinchi loyihasini Ya.K. Gaazenkopf ishlab chiqdi. Gaazenkopfning asl mutaxassisligi agronom bo'lsada, u ayni paytda landshaft arxitektori ham edi. U 1926-1932 yillarda Toshkent va Ashxabod shaharlari uchun 20 dan ziyod turli xil landshaft ob'yektlari: skverlar, bog'lar, parklar, gulzorlar loyihalarini

ishlab chiqdi va amalga oshirdi. Gaazenkopf o'sha yillari Toshkent shahrining ko'kalamzorlashtirilishi va bog'-parklarini o'zida aks etgiruvchi uchta ajoyib albom tuzib, ularga o'zi ishlagan va amalga oshirgan barcha landshaft ob'yektlarini kiritdi [26; s. 40-41].

Uning birinchi albomi - «Toshkent shahrini ko'kalamzorlashtirish. shahar qurilishi, 1926-1932 yillar» deb nomlanib, unda Toshkentning 1929-yildagi rejasи va shahar hududida ko'zda tutilgan barcha katta-kichik bog'lar, parklar, xiyobonlar, skverlar va ularning loyihalari ko'rsatilgan. Inqilob xiyoboni, Dam olish bog'i, Kafanov nomidagi bog', Obuxov xiyoboni, Toshkent shahar soveti oldidagi gulzor, Farobiy parki, Kalinin skveri, Golovachev skveri, Pushkin parki, shahar gulzorgohi va boshqalar shular jumlasidandir. Albomda ushbu ob'yektlarning holati loyiha gacha va qayta ishlanib loyiha amalga oshgandan keyingi holatlari ko'rsatilgan [26; s. 40-41]. (9-rasm).


Gaazenkopfning ikkinchi albomi (1931-yil) Toshkent shahrining madaniyat va istirohat parkiga bag'ishlangan. Albomda park loyihasining ikki varianti (Qorasuvda, maydoni 70 ga va Bo'zsuvsda, maydoni 100 gektarga yaqin, 1:3000 mashtabda) bajarilgan. Albomda park hududlaridan birining ko'ndalang kesimi, Toshkent ko'chalarini maqsadga muvofiq ko'kalamzorlashtirish uchun ularning 11 ta ko'ndalang kesimlari, bolalar o'yingohlari, jismoniy tarbiya va sport maydonchalari, markaziy oranjereyadan tortib to gul do'konlarigacha mo'jaz memoriy shakllar ishlanib, ularning aksariyati o'sha yillari amalga oshiriladi (10-rasm).



**9-rasm.** Revolyusiya skveri va Pushkin nomli ma'daniyat va dam olish parki.  
(Toshkent shahri).

<https://pastvu.com/p/751415?history=167365961>   <https://dzen.ru/a/Xjad2bC3amVVF7428>

zt1



**10-rasm.** Bo'zuvdag'i va Qorasuvdag'i istirohat bog'larining bosh rejalar'i.  
(Arxitektor Gaazenkopf loyihalagan). 1931 y.

(A.S. Uralov., S.N. Sadikova "O'rta Osiyo an'anaviy "Chorbog'" uslubi va zamonaviy bog'-park san'ati" – T. "San'at" 2012).

Uchinchi albomda Turkmaniston Botanika bog'ining loyihasi ishlangan (1929-yil). Gaazenkopfning yozishicha, ushbu bog' uch qismidan: bog'ning birinchi asosiy qismi inglizcha, ya'ni manzarali erkin tabiat ko'rinishida, bog'dagi gulzorlar italyancha, bog'ning ko'rgazmalar hududida esa fransuzcha uslubdagi rejaviy yechimlarda loyihalangan.[33; 95-b.].

1931-yilda arxitektor A.A. Silchenkov ishlagan Toshkent shahrining bosh rejasi jiddiy xatolari uchun tanqidga uchraydi va tasdiqlanmaydi. Biroq, loyihaning Gaazenkopf ishlagan «shaharni ko'kalamzorlashtirish» qismi ijobjiy baho oladi va Toshkent shahri bosh rejasini ishlab chiqishning keyingi bosqichlarida rivojlantiriladi. O'sha yillari Toshkent uchun ishlangan loyihalarga binoan «eski» va «yangi» shaharni bog'lovchi F. Xo'jaev (hozirgi Navoiy) shoh ko'chasi vujudga keltiriladi. Bo'zuv kanalining sohillari qayta ishlanib, tabiiy yo'nalishi bo'yicha «yashil-suv» istirohat hududi shakllantiriladi. Ana shu loyihalar asosida arxitektor A. Kuznetsov rahbarligida 1938-1939 yillarda Toshkent shahrining yangi bosh rejasi ishlab chiqiladi [25; s. 184]. Bu Toshkentning istiqboldagi 20-25 yilga mo'ljallanib tasdiqlangan birinchi bosh rejasi edi. Unda shahar aholisining loyihaviy soni 900 ming kishiga, hududi esa 13,8 ming gettarga hisoblangan edi. Moskva shahri tajribalariga asoslanib Toshkentning asosiy magistrallari radialdoira rejali ko'chalar orqali oltita ma'muriy tumanni birlashtiradi. Har bir tumanda turar-joy massivi, jamoa binolari, madaniyat va istirohat bog'lari, skverlar joylashtirish, sun'iy suv havzalarini tashkil qilish, ko'kalamzorlashtirish va suv ta'minoti masalalari ko'zda tutildi.

Sobiq sho'rolar hukumati yillarda Toshkentda ko'plab yangi yashil massivlar vujudga keldi. Ulardan biri o'sha davrning shahar general - gubernatori rezidensiyasi hududida bunyod etilgan Kirov nomidagi

madaniyat va istirohat bog'idi. Hozirgi Amir Temur xiyoboni yonidagi ilgarigi yarmarka maydoni o'rniда Maksim Gorkiy nomli madaniyat va istirohat bog'ivujudga keladi. Jangoh arig'ining o'ng sohilida joylashgan savdogar Tursunxo'jayevning avvalgi bog'I hududi esa Pushkin nomli madaniyat va istirohat bog'iga aylantirildi. Biroq bu bog'lar uncha katta bo'lmay (5-8 ga), o'sib borayotgan shahar aholisining ehtiyojlarini to'la qondira olmas edi. Toshkentga dam olish va sport o'yinlari uchun suv havzasiga ega bo'lgan yirik yashil massiv zarur edi. shahar bosh rejasiga ko'ra ana shunday yirik yangi parkiy shaharning Beshyog'och darvozasi ortida, Anhor kanalining chap qirg'og'ida bunyod etish ko'zda tutildi. Bu erlarda ilgarilari g'isht zavodi joylashgan bo'lib, tuproqni kovlab olish jarayonida maydoni 9 getktarga yaqin, chuqurligi 3-7 metrlik o'ta tabiiy shaklli xandak vujudga kelgan edi. Ana shu ulkan sun'iy xandakni ko'lga va parkka aylantirish g'oyasi tug'ildi. Park loyihasini arxitektorlar M. Bulatov va L. Karashlar ishlab chiqdi. Va nihoyat, Toshkentliklar 1939-yili maydoni 29 hektarli dam olish va suv sport bilan shug'ullanishga mo'ljallangan chiroyli park-ko'lga (ilgarigi Komsomol ko'liga) ega bo'ladilar [13; 40-108-b.]. Parkda palyajlar, ochiq suv stadioni, yashil teatr, qayiq stansiyalari, bolalar temir yo'lli, attraksionlar, ko'lining atrofi bo'ylab sayrgoh xiyobon tashkil qilinadi. Park ob'yektlarini o'zarboq bog'lovchi ushbu xiyobon gohida suv bo'yiga yaqin keltirilib sohilga aylantirilgan, gohida daraxt-zorlar ichiga kirgazilgan.

Xiyobon bo'ylab yurgan kishining ko'z o'ngida yangidan-yangi go'zal tabiat manzaralari-ochiq va yopiq yashil maydonlar, sohillar va suv havzalari almashinib turadi (11-rasm).



**11-rasm. «Komsomol sohili».** Ma'daniyat va dam olish joyi. 1932 y.  
«Stalin» nomli park. Toshkent shahri.

<https://pastvu.com/p/751308>

<https://pastvu.com/p/751308>

Toshkent shahri landshaft arxitekturasining shakllanishida sun'iy suv havzalari: ko'llar, anhorlar, favvoralar muhim o'rinni tutadi. Komsomol park-

ko'lining qurilishidan so'ng ko'p o'tmay katta suv havzasiga ega bo'lgan G'alaba (Pobeda) parkining qurilishi (1946-1947 yillarda) boshlab yuboriladi. Har ikkala park ham shahar mikroiqlimini sog'lomlashtirish va uning chiroyini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ilgarigi Komsomol park-ko'li shimol tomonga kengaytirilib, bu yerda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy bog'i tashkil etildi. Parkning kengaytirilgan qismi Navoiy haykali bilan birga an'anaviy chorbog' uslubida shakllanadir, bu bog' muhitida Xalqlar Do'stligi (hozirgi Istiqlol) san'at saroyi hududiga qo'shilib ketgan. Bog'da har yili Sharq halqlarining yangi yili va bahor milliy bayrami-«Navro'z» ommaviy tarzda tantana qilinadi. Buning uchun unda bosh va yonbosh xiyobonlar, sayrgoh yo'laklar, teatrlashtirilgan tomoshalar uchun maxsus joylar tashkil etilgan (*12-rasm*).



**12-rasm.** Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy bog'i.

<https://top7travel.ru/dostoprimechatelnosti-tashkenta/>

Markaziy Osiyo respublikalari landshaft arxitekturasini poytaxt shaharlar markazlari va ularda tashkil etilgan bog'-parklar va markaziy maydonlarsiz tasavvur qilish qiyin. Toshkent shahrining hozirgi Mustaqillik maydonidagi yangi markaz vujudga kelgunga qadar tarixiy tashkil topgan "eski" va avvalga "yangi" shahar markazlari shakllanib bo'lgan edi. Eski shahar markazi Chorsu maydoni atrofida, "yangi" shahar markazi esa hozirgi Amir Temur xiyoboni va Toshkent kuranti atrofida shakllangandi. shaharning ana shu ikki markazi Navoiy shoh ko'chasi orqali bog'langan edi. Navoiy shoh ko'chasini meridian bo'ylab kesib o'tgan tabiiy yashil-suv kanali Bo'zsuv - Anhor hududi chegarasida poytaxtning hozirgi yangi markazi vujudga keltirildi. Markaz asosan 1966-1974 yillarda qurib bitirildi. Markaz o'rniда ilgari 1966-yildagi yer silkinishidan vayron bo'lgan turarjoy mavzesi mavjud edi. Asosiy masala poytaxt markazi binolari uchun yangi zamonaviy masshtab topish, O'zbekistonning buguni va kelajagini ushbu markaz hamda undagi markaziy maydon va binolarda aks ettirish lozim edi [33; 98-b.].

Arxitektor L. Adamov va S. Adilovlar boshchilik qilgan mualliflar guruhi bu vazifani ustalik bilan ado etdilar. Umumiy maydoni 1,5 ming hektar Sharqdan g'arbg'a cho'zilgan o'q bo'ylab uzunligi 5 kilometrga yaqin bu yangi markaz hukumatning ma'muriy binolari va madaniy-ma'rifiy inshootlari hamda ulkan ko'kalamzorlarni o'z ichiga oladi. shaharning markazida tashkil etilgan «yashil voha» va uning keng ochiq va yopiq yashil maydonlari, bu maydonlar uzra joylashgan jamoat binolaridan tuzilgan ansamblarni, shaharning tarixiy tashkil topgan avvalgi markazlarini shoh ko'chalar orqali birlashtirdi. Bu yangi markaz o'zining noyob kompozitsiyasi, mahobatli me'moriy-shaharsozlik ko'lami va landshaft yechimi bilin ajralib turadi.

Mustaqillik maydonini tashkil etgan tik kompozitsiyali ko'p qavatlari binolar va ularga kontrast tarzda cho'zinchoq joylashgan ma'muriy muassasalar, maydonni bir necha pog'onaga bo'lib turuvchi keng suv havzalari, ulkan favvoralar sharsharasi o'ziga xos va takrorlanmas ishlangan. Markaziy maydonning shakllanishida va unga emotSIONAL-badiiy tus berishda Mustaqillik monumenti hozirgi "Baxtli ona" monumentining roli katta. Uningme'moriy kompozitsiyasi, joyi va maydonga nisbatdan masshtabi juda original topilgan. Mustaqillik maydoni Navoiy shoh ko'chasi tomonidan ilgarigi nomalum askar yodgorligi asosida 1990-yilda qurilgan «Xotira va qadriyat» xiyoboni bilan tugallanadi. Ushbu xiyobon yonida go'zal va maftunkor manzarali «Chorbog» rejasida shakllangan bog' ham mavjud. Markaziy maydon maysazorlar, gulzorlar va favvoralar bilan to'ldirilgan. Ushbu maydondagi ochiq va yopiq yashil muhitlar sathining nisbati bir-biriga yaqin, shuning uchun ham ulkan sharsharali otma favvoralar issiq yoz kunlari maydondagi haroratning oshib, namlikning esa pasayib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Aksincha, ushbu favvoralar chegarasida va binolar soyasida kishiga yoqimli, yyengil shabada samarasи vujudga kelgan [20; s. 206].

Toshkent shahri bog'-park san'atining shakllanishida bu yerdagi avvalgi Xalqlar Do'stligi maydoni va unga qo'shilib ketgan hozirgi Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy bog'ning roli ham katta. Xalqlar Do'stligi maydonining kompozitsion markazini 4000 o'rinlik Xalqlar Do'stligi (hozirgi Istiqlol) saroyi egallaydi. Uning oldidagi keng maydonda haykaltarosh D. Ryabichev ishlagan Xalqlar Do'stligi monumenti o'rnatilgan.

Hozirgi vaqtida Toshkent shahri ko'chalar ayniqsa shoh ko'chalar yanada kengaytirilib, qaytadan yashil tusga kirgazilgan. shahar markazidagi yashil muhitga Burj arkanalining go'zal va maftunkor sohillari, Bo'zsuv arig'inining obod qirg'oqlari kelib qo'shilgan. Bularning hammasi «Paxtakor» stadioni mavzeidagi yashil massiv va skverlar bilan birga Toshkent markazida o'ziga xos «yashil oazis» ni vujudga keltirgan.

Xuddi shunday istirohat markazlari, bog'-xiyobonlar, maydonlar va ochiq muhitlar landshaft arxitekturasini shakllantirish O'zbekistonning boshqa shaharlarda, jumladan Samarqand, Buxoro, Navoiy, Zarafshon, Andijon va Termizda ham amalga oshirildi.

1981-yilda Samarqand shahri markazining bat afsil rejaviy loyihasi ishlanib, unda shahar markazini, ayniqsa uning markaziy xiyobonini janub tomonga Lolazor mavzesigacha kengaytirish ko'zda tutildi. Loyihada landshaft ob'yektlarining uzlucksiz yaxlit tizimini yaratish va ularning mavqeini me'moriy ob'yektlarga tenglashtirish g'oyasi ilgari surildi.

Shaharda landshaft arxitekturasining tarixiy shaharlarga xos sun'iy ob'yektlari mavjud. Ulardan biri dastlab Abramov, so'ngra M. Gorkiy, hozir esa «Universitet xiyoboni» deb nomlanuvchi bulvardir. (13-rasm).



**13-rasm.** «Universitet xiyoboni»ning oldingi va hozirgi ko'rinishi.  
(Samarqand).

<https://mixyfotos.ru/>

[https://vk.com/wall-113735\\_7743](https://vk.com/wall-113735_7743)

Xiyoboning ayrim joylariga toshdan ishlangan baralef-haykallar o'rnatilgan. Bulvarning bir tomonida Amir Temur siyoshi gavdalangan me'moriy majmua joylashgan. Ushbu majmuadan shimol tomonda Hamid Olimjon nomidagi teatr binosi oldida katta skver tashkil etilib, undagi xiyobon va gulzorlar aro o'ziga xos pog'onali otma favvoralar ansamбли ishlangan. Xuddi shunday zamonaviy otma favvoralar va chaman-gulzorlar ushbu skver va bulvarga yaqin joylashgan Afrosiyob mehmonxonasi, Amir Temur va Ruxobod maqbara majmualari qoshida va ularga boradigan yo'llar uzra ham tashkil etilgan.

Samarqanddagi Registon me'moriy ansamblining maydonini Mustaqillikdan avvalgi qayta tiklash loyihasiga ko'ra (1968 yil.) ansambl atrofidagi muzey binosi va tarixiy shakllangan an'anaviy savdo binolari buzib tashlanib, ularning orniga bog'-park hududi va gulzorlar, shu jumladan "shoirlar bog'i" vujudga keltirildi.

Samarqandning yangi shahar markazida vujudga kelgan keng ma'muriy maydon o'z hududiga ko'ra behad yirik hisoblanadi. Maydon iqlimini muvofiqlashtirish va maydonning me'moriy-landshaft yechimini

yaxshilash maqsadida bu yerda «Favvoralar bog'i» bunyod etildi. Bundan tashqari vazifasidan qatiy nazar maydonda yopiq yashil muhithajmini oshirish, uni ananaviy chorbog' va xiyobon uslubida shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Taqdirni qarangki, bizga o'tmishdan meros tarzida asosan Sobiq Ittifoq davriga xos bo'lgan "Madaniyat va istirohat bog'lari" yetib kelgan. Ular, odatda, umumiy proletariat talablariga javob beruvchi standart dam olish va istirohat xizmatlaridan tashkil topgan. Mustaqillik davrining yangi ehtiyojlar, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar, xalqimizning ta'lif, axborot tizimi va madaniy yuksalishi bilan Sobiq ittifoq davriga xos standart rekreatsiya xizmat turlari yangi talablarga javob bermay qo'ydi. Istirohat funksiyalarining bir xilligi, parklarning past darajadagi landshaft estetik, me'moriy-rejaviy va funksional-fazoviy tashkillashtirilganligi, park jihozlari va texnik qurilmalarining ma'naviy va moddiy jihatlardan eskirganligi, o'z davrini o'tab bo'lganligi tufayli ular zamonaviy hordiq va dam olish ehtiyojlariga yaroqsiz bo'lib goldi.

Afsuski, hatto bu davrda davlatimiz poytaxti Toshkentda ham aholining shahar hududida dam olishga yaroqli parkni izlab topish qiyin edi. Toshkentda atigi 9 ta park bo'lib, ularning ko'pchiligi zamonaviy dam olish va istirohat xizmatlariga javob bermas edi, ya'ni:

- parklarning ko'pchiligi shahar markaziy zonasida joylashgan bo'lib, ulardan shahar chetlarida yashovchi aholining foydalanishi qiyin edi;
- shaharning ko'pchilik rejaviy tumanlari o'z istiroxat bog'-parklariga ega emasdi;
- deyarli 90 % parklar o'zlaridagi dam olishga mos funksiyalari va shakllariga ko'ra bir xillik va tarkibga tushib qolgan edi;
- aksari parklar me'moriy-landshaft sifatiga ko'ra 3–4-kategoriyali bo'lib, yaxshi texnik va muhandisona obodonlashtirilmagan va jihozlanmagan, natijada bo'sh bo'lib qolgandi;
- aholida ozgina qiziqish uyg'otgan parklar esa haftaning dam olish kunlari va bayramlarda o'ta tirband bo'lar edi [14; 171-b.].

O'zbekistondagi Sobiq ittifoq davri parklarining yana bir muammosi, bu ularning hududi va o'lchamlarining kichiklidir. O'zbekiston shaharlaridagi parklarning o'rtacha o'lchamlari, odatda, 7–15 hektarni tashkil qiladi. Agar madaniyat va istirohat bog'lariда tinch dam olish va sayr qilish zonasi park hududining 60–70 % ini egallashi zarurligini, qolgan 30–40 % hudud esa madaniy-ma'rifiy zonaga, ko'ngil ochar attraksion tomoshalar, sport sog'lomlashtrish va bolalar zonalariga taqsimlanishi zarurligini nazarga olsak, bunday kichik o'lchamli parklarda ko'p funksiyalari istirohat parkning to'laqonli ishlashi va faoliyat ko'rsatishiga ishonish qiyin, albatta.

shuning uchun ham Toshkentdagi va respublikamizning boshqa shaharlaridagi bizga meros bo'lib qolgan mavjud kichik parklarni tom

ma'nodagi madaniyat va istirohat parklari deb atash qiyin. Chunki yuqorida aytib o'tilgan o'ta muhim funksional zonalar madaniyat va istirohat parki nomiga ilova qilinmasdan, aksincha parkning nomi ularning to'laligicha mavjudligi va o'zaro uyg'un funksional bog'lanishlaridan kelib chiqishi zarur.

Ayrim parklarda umumiy ovqatlanish ob'yektlari (ochiq oshxonalar, qahvaxonalar boshqa shu kabi kichik ob'yektlar) soni haddan ziyod ko'payib ketgan edi. Rekreatsion funksiyalarga mos ob'yektlar esa aksincha, oz sonliedi. Buning ustiga ular ham funksiyaviy, ham moddiy jihatlardan eskirgan edi. Masalan, eski mavjud attraksionlar, pavilionlar va avtomat o'yinlariga deyarli qiziqish qolmagan. Tinch dam olish va park landshafti quchog'ida ochiq havoda sayr qilish va hordiq chiqarish uchun esa zarur sharoitlar deyarli yo'q edi.

shinam va foydalanishga qulay bo'lgan zamonaviy istirohat dam olish bog'lariga nafaqat birgina O'zbekiston xalqi, balki respublikamizga tashrif buyurayotgan xorijlik sayyoohlар va mehmonlar ham muhtojdir. Bog' va parklarning xizmat ko'rsatish imkoniyatlari va landshaftini yaxshilash respublikada turizm-sayyoohlilik biznesini rivojlantirishga, nafaqat mahalliy, balki xorijiy sayyoohlarni respublikaga jalb qilish va ularni bu yerda ko'proq bo'lishiga yaxshi imkonlar yaratishini ham unutmasligimiz kerak. Masalan, Buxorodagi Sitorai Moxi Xosa, Xivadagi Nurillaboy saroy-bog'lariga tashrif buyurayotgan xorijiy sayyoohlар va hakozo.

Yuqorida aytilganlar respublikada aholiga nafaqat bog'—parklar xizmatini rivojlantirish, balki parklarning soni va sifatini oshirishni, ayniqsa mavjud parklarning me'moriy—landshaft muhitini yaxshilashni, bunday vazifalar esa o'z navbatida parklarni qayta qurish va ta'mirlash amaliyotini yo'lga qo'yishni, bu sohada vatanimiz va chet ellardaorttirilgan ilg'or tajribalarni chuqr o'rganish va umumlashtirishni, xullas mazkur yo'nalishga va ushbu yo'nalishning ilmu-fanini rivojlantirishga respublikamizda jiddiy e'tibor qaratilishini talab qiladi.

shunday qilib, O'zbekistonning sobiq ittifoq davri bog'—parklarini turlari bo'yicha ikki guruhga: keng xalq ommasi uchun mo'ljallangan ko'p funksiyali madaniyat va istirohat bog'lariga va maxsus parklarga bo'lish mumkin. Maxsus parklarga misol qilib Toshkentda ittifoq davrida qurilgan O'zbekiston fanlar akademiyasining botanika ilmiy-tadqiqot va ko'rgazma bog'ini (hozirgi F.N. Rusanov nomidagi Toshkent botanika bog'i), Toshkent hayvonot bog'ini hamda Pobeda (hozirgi Akvapark) ommaviy cho'milish bog'ini ko'rsatish mumkin [47; s. 84]. Ushbu davrda O'zbekistonning landshaft arxitekturasida aholining rekreatsion ehtiyojlariga xizmat ko'rsatuvchi ob'yektlar qatoriga yana skverlar va bulvarlar ham kirgan. Biroq, ular rekreatsiya bobida bog'—parklar kabi mavqega ega bo'lмаган. Ana shunday ob'yektlar safida yozning issiq va jazirama kunlarida

O‘zbekiston aholisiga zarur bo‘lgan suv bog‘lari- "plyaj" larni kamdan-kam uchratamiz. Buning oqibatida O‘zbekistonning mavjud shaharlari ichidan oqib o‘tgan anhor va kanallarda, shuningdek shaharlar cheti va ulardan tashqarida xususiy tadbirdorlar tomonidan tashkil qilingan, biroq sanitariya va cho‘milish norma va qoidalariga mos kelmaydigan, ayrim hollarda esa hatto taqiqlangan suv havzalarida cho‘milish orqali noxush voqealar bo‘lganligining guvohi ham bo‘lganmiz. Kelajakda ko‘p funkiyali bog‘-parklarni rivojlantirishda ular tarkibida cho‘milish uchun sun’iy suv havzalari-plyajlarni tashkil etish yoki bu maqsadlar uchun alohida maxsus bog‘lar: akva yoki gidroparklarni-yaratishni taqozo etadi. Bu yozi uzoq va issiq bo‘lgan O‘zbekiston shaharlari aholisining, ayniqsa yoshlarning dam olishi uchun o‘ta muhim vazifalardan biridir. shunday ekan respublikamizdagi mavjud parklar faoliyatini kengaytirish, takomillashtirish va yangilash ishlarida ana shu masalani ham e‘tibordan chetda qoldirmaslik ijobjiy natijalarga erishishning yaxshi imkoniyati ekanligini unutmasligimiz zarur.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Toshkent shahri uchun madaniyat va istirohat parkining bиринчи loyihasini kim ishlab chiqqan?
2. Gaazenkopfning asl mutaxassisligi?
3. Gaazenkopf Toshkent shahrining ko‘kalamzorlashtirilishi va bog‘-parklarini o‘zida aks etgiruvchi nechta albom ishlagan?
4. Kim tomonidan 1938-1939 yillarda Toshkent shahrining yangi bosh rejasi ishlab chiqiladi.
5. Samarqand shahridagi “Universitet xiyoboni” ning tarixi haqida nimalarni bilasiz?
6. O‘zbekistonning sobiq ittifoq davri bog‘-parklarini turlari bo‘yicha nechta guruhga bo‘linadi?

**II-BOB.****O‘ZBEKISTONDA ISTIQLOL DAVRI BOG‘-PARK SAN’ATINING  
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISHI****2.1. Mustaqillik davrida bog‘-park san’ati**

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o‘z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o‘zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda [1; 21-b.]. Madaniy merosimizga, milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi va o‘zligimizni anglab etdik. shu asnoda ona tabiatning ajralmas bir bo‘lagi sifatida biz yon atrofga, borliqqa teran nazar bilan qarashga o‘rgandik. Bog‘dorchilik soxasidagi qadimiy an‘analar ham qayta tiklana boshladи. Birgina Buxoroda barpo etilgan Istiqlol, Fatxobot, Fitrat, Xoja Ismat, Buxoriy bog‘lari fikrimiz dalilidir. O‘nlab tabarruk qadamjolarda obodonchilik ishlari amalga oshirilib, bog‘-rog‘lar, gulzorlar barpo etildi. Kishi bag‘ri dilini ochuvchi bu bog‘lar yurtimiz tarovatiga tarovat qo‘shmoqda.

107 hektar maydonni egallagan ushbu majmua shahar bosh tarhining shimoliy qismida joylashgan bo‘lib, markaziy avto magistral yo‘l orqali Buxoro shahriga kirib kelayotgan mehmonlarni qarshi oladi. Majmua loyihalangan maydonda Sobiq ittifoq davrida “Komsomol ko‘li” deb nomlangan sun‘iy ko‘l va uning atrofida tabiiy shakllangan bog‘ mayjud edi [54; 46-50-b.]. Ko‘p yillar qarovsiz qolgan bu yerda bugungi kunda shahar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib turgan go‘zal ansambl shakllangan.

Majmuada milliy an‘analarimizni o‘zida majassam etgan 750 o‘rinli zamонави drama teatr binosi, 2000 kishi sig‘imdagi amfiteatr binosi va Buxoroning oltin tuprog‘ini ifodalovchi yodgorlik qad ko‘targan.

Majmuaning umumiy maydoni assimetrik shaklda bo‘lishiga qaramay, markazda janubiy-g‘arbga yo‘nalgan o‘q bo‘ylab to‘g‘ri to‘rtburchak ko‘rinishidagi “Chorbog” shakllantirilgan. Bu to‘g‘ri to‘rtburchak sakkiz bo‘lakka bo‘lingan. “Chorbog”ning to‘rida markaziy o‘qda musiqli drama teatri binosi markazga qarab joylashtirilgan. “Chorbog” markazida yo‘laklardan aylana tashkil qilinib, sun‘iy tepalikda “Ko‘hna va Boqiy Buxoro” yodgorligi o‘rnatalilgan. Yodgorlikning poyida elektr yoritgichlar bilan bezatilgan uchta otma favvoralar mavjud. Markazdagi aylana maydonning ikki yon tomonidan yarim aylana shaklini hosil qilib, yo‘laklar kelib qo‘shilgan.

“Chorbog”da Belgiyadan keltirilgan noyob daraxtlar: soxta kashtan, katalpa, do‘lana, qora qayin, Yapon qarolisi, qishki gilos, edons gilos, eman, chetan, g‘arb tuyyasi, veygela, shumtol, jo‘ka, o‘rmon yong‘oqi, zarang, zirk, david budleya, skumpiya, irg‘ay, deysiya, normushk, magoniya, nok ekilgan [54; 46-50-b.].

"Chorbog'" ning atrofi turli shakldagi bo'laklarga bo'lingan. U yerda mahalliy manzaralari daraxtlar: archa, zarang, katalpa, qayrag'och, shelkovitsa plakuchaya, shumtol, Sharq tuyyasi, eman, Yapon soforasi, terak, jiyda, yovvoyi xurmo, pisarda qarolisi, akatsiya,sovun daraxti, qayin, bagryanik, forzitsiya, Yapon behisi, amorfa, aylant, maklyuralar ekilgan. Bog'da qulay o'rindiqlar, yoritgichlar, kichik suv purkagichlar tizimi mavjud. Bu Buxoroga xos bo'lgan issiq va quruq iqlim sharoitida muhim ahamiyatga ega. Majmuaning janub tomonida bolalar istirohat bog'i hududi mavjud. Istirohat bog'ining ikki tomonida aylana ayvonlar qo'yilgan. U yerda bolalar uchun muzqaymoq kafesi joylashtirilgan.

Mustaqillik yillarda Buxoro shahri va uning atrof bog'-park san'atida katta istiqbolli rejalar amalga oshirildi. shahar markazining ko'chalari, istirohat bog'lari, bolalar dam olish zonalarida rejalashtirilgan landshaft muhitini yaratishga katta e'tibor berildi. Buxoro shahrining shahar ahamiyatiga ega yirik istirohat bog'i bu – "Somoniylar bog'i"dir. U Sobiq ittifoq davrida qurilgan bo'lib, dastavval Kirov nomi bilan atalgan. Bog' barpo etilgan davrda u ko'p funksiyali istirohat va madaniyat bog'i vazifasini bajargan.

Bog'da bolalar zonasasi – charxpalaklar, muzqaymoq kafesi, amfiteatr, cho'milish havzasasi bo'lib, bu istirohat bog'ining shovqinli zonasasi hisoblangan. Tinch zonaga "Noma'lum soldat qabri" majmuasi, Somoniylar maqbarasining atrofi kirgan. shu tariqa Kirov istirohat bog'i ko'p funksiyali bog' sifatida barpo etilgan [42; 72-75-b.].

Hozirda, bu bog' unda joylashgan Somoniylar maqbarasi sharafiga "Somoniylar bog'i" nomini olgan. Mustaqillik sharofati bilan bog'ning landshaft muhitida ko'pgina ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa maqbara atrofida amalga oshirilgan ishlar e'tborga loyiq.

Avvalambor maqbara atrofini to'sib turgan, zich joylashgan daraxtlar tartibga keltirildi, maqbaraning janubiy-g'arb tomonida qadimda mavjud bo'lgan hovuz qayta qazib, ta'mirlanib ishga tushirildi. Bu bilan maqbara atrofi muhitining mikroiqlimini yaxshilanishiga erishildi. Maqbaraning old tomonida "Chorbog'" barpo etildi. "Chorbog'"da maqbaraning ko'rinishini to'sib turmaslik uchun baland bo'Imagan butalar ekilgan. Tunda esa maqbara turli rangli sun'iy yoritgichlar yordamida yoritiladi. Bu bog'ning tungi ko'rinishiga sirlilik ruhini bag'ishlaydi. Tunda ham kunda ham bog'ning qaysi burchagidan qaralmasin maqbara to'la to'kis namoyon bo'ladi. Maqbara bog'ning dominant elementi hisoblanadi.

Bog'ga bosh darvozadan kirib, ochiq xiyobonga duch kelasiz. Ikki qator archalar orasidan beton ariq oqib o'tadi. Bu bog'ning kirish qismiga tantanalik bag'ishlaydi. Archalar baland bo'Imaganligi sababli, kiraverishda bog'ni hamma tomonini kuzatish mumkin. Ariq ustida katta bo'Imagan mo''jaz ko'prikhalar va charxpalaklar qurilgan. Bu 2 km ga cho'zilgan

xiyobonni kesib o'tishga yordam beradi. Ariqning ichi turli hayvonlar tasvirlarlangan tosh haykalchalar bilan bezatigan. Ushbu xiyobon bog'ning markaziy bosh o'qi bo'yab o'tadi va tarxda uni ikkiga bo'ladi.

2009-yilda "Somoniyalar bog'i"da "Xotira maydoni" tashkil topdi [54; 46-50-b.]. Ushbu majmua bog'ning janubida joylashgan. Majmua simmetrik tarxga ega bo'lib, ochiq va yopiq muhitlardan tashkil topgan. Maydon markazida ikki tomoni oq va pushti rang gullar bilan chegaralangan keng yo'lak "Ona haykali"ga qarab yo'naltirilgan. Maydonning ikki yon tomonida baland ayvonlar mavjud. Ayvonlarning milliy uslubda ishlanganligi uning atrofidagi muhitga uyg'unlashib ketishiga xizmat qilgan.

Shahar hududidagi faoliyat ko'rsatmayotgan, shahar muhitini ifloslantirayotgan sanoat inshootlari shahardan tashqariga ko'chirilib, o'rnida bog'lar barpo etildi. "Paxtaoy" bolalar bog'i, "Fatxobod" bog'i, "Ekobog" bog'ları shular jumlasidandir.

"Eko bog'" da asosan tinch muhit yaratilgan. Bog'ning chir atrofida virgin archalari ekilgan bo'lib, markazda favvora joylashgan. Favvora atrofidagi maydonda zamonaviy uslubda, yengil konstruksiyadan ayvonlar qurilgan. Umumiy maydon aylana shaklida bo'lib, yo'laklar yordamida sakkiz bo'lakka bo'lingan. Bu bo'laklarda turli nav atirgullardan chamanlar yaratilgan. Bahordan kuzga qadar bu bog' turli ranglarda tovlanadi. Yilning har bir faslida har xil turdag'i atirgullar ochilib turadi. Gullarning xushbo'y hidrlari bog'ni tark etmaydi. Ushbu muhit inson qalbini tinchlanirib, bog'ga tashrif buyurgan har bir kishiga tabiat go'zalligini yaqindan his etishga va uni qadrlashga undaydi.

Xuddi shunday bog'lardan yana biri "Fathobod bog'i". Ushbu bog' Sayfiddin Boxarzi-shayx-ul Olam, Buyon Kulixon maqbaralarining atrofini obodonlashtirish hisobiga bunyod etilgan bog'dir. Bu bog'ni faylasuflar bog'i desak ham, adashmaymiz. Bog'dagi muhit islom dinining etuk namoyondalari qabrlarini ziyyorat qilishga kelgan har bir kishini dunyo, hayot, tafakkur haqida fikrashga undaydi.

Bog'ning maydoni assimetrik shaklga ega. Maydondagi dominant Shakllar maqbaralar hisoblanadi. Qolgan barcha shakllar maqbaralar shakllariga bo'ysundirilgan. Atrof muhit ko'kalamzorlashtirilgan. Hududda maqbaralar ko'rinishi to'silib qolmasligi uchun baland daraxtlar ekilmagan. Mikroiqlimni yaxshilash uchun ikkita favvoralar o'rnatilgan.

"Paxtaoy" bolalar istirohat bog'i Sobit ittifoq davrida qurilgan yog' ishlab chiqarish zavodi o'rnida bunyod etilgan. Uning o'rnida bolalar uchun o'yingohlar va charxpalaklarga boy istirohat bog'i barpo etilgan. Mustaqillik yillarida Buxoro shahrining eski shahar hududida ham landshaft muhitini yaxshilash uchun ko'pgina istiqbolli ishlar amalga oshirildi.

2011-yilda Buxoro shahrida "Asrlar sadosi" milliy festivalining o'tkazilishi munosabati bilan eski shahardagi eng so'lim joy – "Labi Hovuz"

ansamblining atrofi qayta obodonlashtirildi. Nodir Devonbegi madrasasi oldidagi chorbog‘ga turli xil gullar ekilib, o‘rinsiz ekilgan daraxtlar olib, tartibga keltirildi. Natijada qadimiy binolarning ko‘rinishini to‘sib turgan elementlar yo‘qolib, atrof keng va yorug‘ muhitga aylandi. (14-rasm).




**14-rasm.** “Labi Hovuz” ansamblining umumiy ko‘rinishlari

[https://dr-web.ru/mebel/hanaka-  
divan-begi-lyabi-hauz-81-foto.html](https://dr-web.ru/mebel/hanaka-divan-begi-lyabi-hauz-81-foto.html)

<https://www.advantour.com/rus/uzbekistan/bukhara/lyabi.htm>

Istiqlol yillari Buxoro shahrining bog‘-park san’ati uchun juda sermahsul davr bo‘ldi. O‘zida milliylik va qadimiylikni mujassam etgan “Ko‘hna va Boqiy Buxoro” yodgorlik majmuasi, “Somoniylar bog‘i” o‘z davrining zamonaviy bog‘lari bo‘lishiga qaramay, biz ularda Temur davrida tiklangan “Chorbog” usulidagi bog‘ yaratish uslubini kuzatamiz.



**15-rasm.** Juma shahri A.Temur ko‘chasida joylashgan “Yoshlar bog‘i”ning foto lavhalari

*(Rasm joyiga borib tushurilgan)*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2010-yilda 322-sonli “2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga binoan bugungi kunda respublikamiz shahar va

qishloqlaridagi mavjud aksariyat bog‘lar qayta qurildi, ta’mirlandi, ularning me’moriy-landshaft yechimlari va attraksionlari yangilandi. Tuman markazlarida “Yoshlar bog‘i”, “Zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlari” tashkil etildi (*15-rasm*).

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Mustaqillik davrida bog‘-parklarda qanday o‘zgarishlar bo‘ldi?
2. Nechanchi yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to‘g‘risidagi Qarori qabul qilindi.

### **2.2. Memorial bog‘lar (xotira va qadriyat bog‘lari, shahidlar xiyoboni), yoshlar bog‘lari, ekoparklar, akvapark, disneylendlar**

Istiqlol yillarda respublikamizda parklarning yangi xillarini yaratilishiga asos solindi. Ular qatoriga birinchi navbatda respublikamizda yaratilgan memorial parklarni kiritish mumkin. Memorial parklar xalq uchun xotira bo‘lib qolgan buyuk tarixiy shaxslar va hodisalar sharafiga quriladi, o‘zining monumental, tantanali xususiyati bilan boshqa parklardan ajralib turadi. Bu yerda bog‘-park kompozitsiyasining barcha vositalari yodgorlikning g‘oyasi va mazmunini oshib berishga yo‘naltiriladi. Bunday parklarning tashqi ko‘rinishiga xos xususiyatlar—bu monumental vositalardan keng foydalanish, aniq o‘ylangan harakat grafigi, o‘simliklar va landshaft elementlarini muntazam tartibda joylashtirishdir. Barcha xizmat ko‘rsatish vazifalarini markaziy hududdan tashqarida loyihalash lozim. Bu yerda memorialning tantanali holatini buzadigan kiosklar, ichimlik avtomatlari, transport aloqalari bo‘lmasligi kerak [58; s. 193].

Memorial parklar O‘zbekistonda istiqlol yillarigacha shakllantirilmagan edi. Mustaqillik sharofati tufayli o‘zbek xalqining buyuk siymolari va tarixiy milliy qahramonlari xotirasiga atab memorial bog‘-xiyobonlar tashkil etildi. Bularga deyarli barcha viloyatlar va tumanlar markazlarida tashkil etilgan “Xotira va qadriyat xiyobonlari”ni va ular atrofidagi bog‘larni, Toshkentda respublikamiz birinchi Prezidentining maxsus farmoyishi bilan shakllantirilgan “shahidlar xiyoboni” memorial bog‘ majmuasini, Amir Temur bog‘-xiyobonini va Mustaqillik maydonidagi “Motamsaro ona” monumenti, Farg‘onada Al Farg‘oniy, Xorazmda Beruniy, Urgenchda Jaloliddin Manguberdi memorial bog‘-parklarini kiritishimiz mumkin. Bularning deyarli barchasida nafaqat bog‘ va xiyobonlar, memorial monumentlar, balki, muzeylar ham tashkil etilgan (*16-rasmlar*).



Amir Temur bog‘-xiyoboni  
(Toshkent)  
<https://flectone.ru/tashkent-y.html>



“Motamsaro ona” monumenti  
(Toshkent)  
<https://people-travels.com/ru/dostoprimechatelnosti/sorrowful-mother>



Al Farg‘oniy me’morial bog‘-  
xiyoboni (Farg‘ona)  
<https://bangkokbook.ru/poezdki/fergana-park.html>



Jaloliddin Manguberdi me’morial bog‘-  
xiyoboni (Urgench)  
<https://www.youtube.com/watch?v=NYGfT3JqLrw>

## 16-rasmlar

Ana shu bunyodkorlik ishlardida jahon landshaft arxitekturasi va bog‘-park san’atining badiiy estetik vositalariga amal qilish va O’rta Osiyoga xos milliy bog‘-istirohatchilik san’atining merosiy uslublarini qayta tiklash masalalariga keng e’tibor berilgan. Bunyod etilgan me’moriy inshootlar, memoriallar va muzeylar, bog‘-xiyobonlarning aksariyati muntazag simmetrik rejada ishlanib, ularning hududi ochiq va yopiq yashil maydonlar, ulardagi favvoralar, sharsharalar, gulzorlar, xiyobonlar va yo‘laklar hamda mo‘jaz me’moriy shakllar buyuk allomalarning timsoli ifoda etilgan ramziy majmualardan iborat bo‘ldi. Bu memorial bog‘-xiyobonlarning har biri o‘zlarining rejaviy markazi va hajm-fazoviy yechimidagi kulminatsiyaviy kompozitsiyalariga ega bo‘lganlari holda, ularda qo‘llanilgan me’moriy yechim, yashil dunyo va arxitekturaviy qurilish materiallari orasidagi o‘zarо uyg‘unlik samarasini ushbu majmualarga tarovat bag‘ishlaydi. Bu memorial

majmualarning hududi nisbatan katta bo'lmay 2 gektardan to 5 gektargacha maydonni tashkil etadi.

Memorial bog'–parklar va xiyobonlarni loyihalashda asosiy e'tibor memorial inshoot kompozitsiyasiga, uning egallagan o'rni va joylashuviga, unga boriladigan bosh xiyobon va uning tugallanish kompozitsiyasiga, memorial inshootga fon vazifasini o'taydigan atrof muhitning manzarali ko'kalamlashtirilishi qaratilishi kerak. Memorial park ichidagi asosiy yo'l–bosh xiyobon memorial inshoot uchun poki-poyandoz vazifasini bajarishi zarur. Bu yerdagi gulzorlar va maysazorlar, qatorlab ekilgan daraxt va butalar kompozitsiyasi faqat bitta maqsadga, u ham bo'lsa memorial inshoot va kompleks mazmuni, moddiy–ma'rifiy roli va o'rnini haqqoniy va salobatlari tarzda ko'rsatishga xizmat qilishi kerak. Memorial bog'larda o'simliklarga qirtishlab sun'iy shakl berish maqsadga muvofiq emas. Ularning o'rniga yakka tartibda (soliter kompozitsiyasida) ekilgan manzarali dovaraxtlarning bo'lishligi yaxshidir.

Me'morial parklarga ko'proq muntazam rejaviy uslub va tekis hududlar xosdir. Biroq ular terrasasimon, ya'ni pog'onali tarzda shakllantirilgan hududlarda ham ishlanishi mumkin. Asosiy xiyobonlarga ekiladigan daraxtlar tantanavor shaklda, ya'ni konus, piramida, ustunsimon ko'rinishlarga ega, qolgan yo'laklarda esa majnuntol shaklida, gulzorlar asosan oq, sariq va qizil ranglarda bo'lishligi maqsadga muvofiqdir.

Keyingi yillarda Toshkent shahridagi Mustaqillik maydoni, Amir Temur xiyoboni, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy bog'i va shahar tumanlaridagi bog'lar, Yapon bog'i, o'zbek xalqining buyuk allomalaridan Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo, Ahmad al-Farg'oniy, at-Termizi, Ismoil Buxoriy, Bahovuddin NAQSHband, Jaloliddin Manguberdilarning yubileylarini xalqaro ko'lamda, tantanavor o'tkazish hamda Toshkent va respublikasining barcha viloyatlarida «Xotira va qadriyat» xiyobonlarini tashkil qilish munosabati bilan qator me'moriy va memorial bog' majmualari loyihalanib, ularning aksariyati amalga oshirildi.

Bunyod etilgan me'moriy inshootlar, memoriallar va muzeylar, bog'-xiyobon-larining aksariyati muntazam simmetrik rejada ishlanib, ularning hududi ochiq (yashil parterlar, gulzorlar, favvoralar) va yopiq yashil daraxtlarga burkangan maydonlar, usti berk mo'jaz me'moriy shakllar, buyuk allomalarning timsoli ifoda etilgan ramziy majmualardan iborat bo'ldi. Bu majmualarning hududi nisbatan katta bo'lmay 2 gektardan to 20 gektargacha maydonni tashkil etadi. Bu memorial bog'-xiyobonlarning har biri o'zlarining rejaviy markazi va hajm-fazoviy yechimiga mos kompozitsiyalarga ega bo'lganlari holda, ularda qo'llanilgan yashil dunyo va arxitekturaviy qurilish materiallari orasidagi o'zaro uyg'unlik samarasi ushbu majmualarga tarovat bag'ishlagan.

Toshkentdagi Mustaqillik maydonining arxitekturasi va uning landshaft yechimlari respublikada bog'-park san'ati sohasida amalga oshirilgan ishlarning yuksak namunasidir, desak, xato qilmaymiz. Mustaqillik maydoni metrosidan chiqqanimizda kuyosh nurida chaqnayotgan turna qator piramidasimon pog'onali favvoralarni ko'rib ko'zingiz quvonadi, go'yo ular tashrifingizni olqishlayotgandek. Ular orqasida Mustaqillik maydonining darvozalari – ezzulik darvozasi ko'kka bo'y cho'zgan. Bosh darvoza ustidagi laylaklar parvozi Vatanimiz tinchligi va osmonining sofligi, osoyishtaligining go'zal ramzidir. Bu darvozaning qalqon ustunlari kishiga Mustaqil Vatan himoyachilarini eslatadi. Bosh darvoza sizni "Jannat bog'i" ning asosiy xiyoboniga chorlaydi. Bog'da bosh va yonbosh xiyobonlar mavjud. Atrof cheti gul-gun tabiat, chamanzor va maysazor. Bosh xiyobon bo'ylab, uning ikki yoniga qator daraxtlar ekilgan.

Uzoqdan sizga baland platforma ustiga qurilgan Mustaqillik monumenti va uning poyiga yarashib turgan "Baxtli ona" siymosiga ko'zingiz tushadi. Bog'ning bosh va yonbosh xiyobonlari tutashgan joyda qad ko'targan ushbu me'moriy kompozitsiya, ya'ni Mustaqillik monumenti va ona haykali Mustaqillik maydonining asosiy g'oyaviy mag'zinulminatsiyasi hisoblanadi.

Bu kompozitsiya dinamik ko'rinishga ega bo'lib, baland tagkursida mahobatlilik qilib kurligan. O'rta Osiyoning Chorbog' uslubidagi tarixiy bog'larida ham bog'ning asosiy binosi-ko'shk (saroy) xuddi shunday baland tagkursida mahobatlilik qilib kurligan.

Bosh xiyobondan o'ng tomona keng yonbosh xiyobon orqali yursangiz Mustaqil-lik maydonining yana bir muhim me'moriy kompozitsiyasi- "Xotira va qadriyat" xiyoboniga borasiz. Bu xiyobon to'rida "Motamsaro ona" haykali va uning oldida mangu olov sarkosasi joylashtirilgan. Xiyobonning bosh o'qi bo'ylab simmetrik joylashgan o'zbekona peshayvonlar va ular oldidagi poki - poyondoz gulzorlar sizga go'yo Kur'oni Karimdagagi "jannah xiyoboni"ni eslatadi.

Bu yerdagagi har bir me'moriy kompozitsiya, bog'-park va landshaft yechimlari birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning g'oyalari va rahnamoligi asosida bunyod etilgan. Mustaqillik maydonining Vazirlar Mahkamasi va Senat binolari joylashgan tomonidan maydonga kirib kelishdagi xiyobonda daraxt va butalardan tuzilgan shunday bir go'zal firdavsm'onand landshaft kompozitsiyalarini mayjudki, men bunday kompozitsiyani faqat shu yerda ko'rganman. Bu "buket, ya'ni dasta guruhi"dir, unda buket go'yo gullardan emas, balki go'zal manzaralili daraxt va butalardan tuzilgan. Bu ham O'zbekistonning "Chorbog'" uslubiga xos landshaft kompozitsiyalaridandir. Maydonni chegaralab turgan osmono'par respublika moliya binosi va Vazirlar mahkamasi binolari orasidagi keng maydonda uzunligi chamasi 100 metr keladigan ulkan favvora va hovuz

joylashgan. Favvora tizginlaridan otilib chiqayotgan suv 4 metrlar chamasiga balandga ko'tarilib, 8 metr pastda joylashgan ulkan hovuzga tushadi. sharshara tovushi va undan hosil bo'lgan mikroiqlim kishi qalbini zavqu-shavqqa to'ldiradi. Bunday favvora turi O'rta Osiyoda hozircha yagonadir. Xullas, Mustaqillik maydoni, undagi bog'-park san'ati va landshaft kompozitsiyalarining go'zal namunalarini hamda bu yerdagi ma'muriy binolar va mo'jaz me'moriy shakllarni tom ma'noda O'zbekiston arxitekturasining "imedji" deb hisoblash mumkin.

Andijondagi Bobur milliy bog'i majmuasini buniyod etishda ham an'ana-viy "Chorbog'" uslubi tamoyillari e'tiborga olingan. "Bog'i Bobur" deb atala-digan bu bog' mustaqillik yillarda Qobul shahridagi "Bog'i Bobur" ga qiyoslab, qirlik joyda yuriladigan yo'llar, imoratlar pog'onasimon sahnalarda qurilgan. Bog' maydoni 300 hektar. Sharqona marmar darvozadan qurilgach, bog' yo'li yuqoriga birinchi sahndagi supaga ko'tariladi.

Unda Boburning ulkan haykali o'rnatilgan. Undan yuqoridagi pog'onada "Bobur va jahon madaniyati" muzeyi qad ko'targan.

Muzeyning ikki yonidan o'ttan marmar zinali yo'ldan yana ham yuqoriga, so'nggi sahnga chiqiladi. Bu yerda Boburning ramziy qabr-sag'anasi (Qobuldag'i Bobur qabriga aynan tarzda) o'rnatilgan. Ramziy qabrdan yuqoriga ketgan yo'l bolalar o'yin maydonchalariga olib chiqadi.

Pastdan Bobur Chorbog'ining yuqorisiga osma yo'l (2 km) o'tkazilgan. Bog'da hunarmandchilik buyumlari do'kon, shuningdek, choyxona, oshxona va boshqalar dam olish joyida konsert ko'rish sahnasi, kurash va boshqa milliy sport musobaqalari o'tkaziladigan maydon qurilgan. Bog'da 20 xildan ortiq mevali (yong'oq, uzum, olma, anor, anjur, gilos va boshqalar 10 dan ortiq manzarali (archa, chinor, eman, majnuntol, mirzaterak) kabi daraxtlar ekilgan. Bog' nihoyatda xushmanzara va obod maskanga aylangan. Bu yerda Navro'z va Mustaqillik kunlari xalq sayllari ham o'tkaziladi [60] (17-rasm).

Bu sohada Samarqandda va respublikamizning boshqa viloyatlarida ham e'tiborli ishlar bajarildi. Samarqandda 2002-yilda ilgaridan mavjud "Ozero" parki qayta ishlani, zamonaqiy bolalar akvo-parkiga aylantirildi. U o'zining jo'shqin me'moriy shakllari, suv attraksionlari va haykallari bilan ajralib turadi. Samarqandning sho'rolar davri shahar markazida vujudga kelgan keng ma'muriy maydon o'z masshtabiga ko'ra behad yirik hisoblanib, uning landshaft yechimi takomiliga etkazilmagan. Aksariyat qismiga asfalt beton, qolganiga yirik beton plitalar va tosh to'shalgan katta keng ochiq maydon yozning jazirama issiq kunlari yanada isib, qishda esa sovub ketadi. Maydon iqlimini muvofiqlashtirish va maydonning me'moriy - landshaft yechimini yaxshilash maqsadida bu yerda "Favvoralar bog'i" buniyod etildi.

Bundan tashqari vazifasidan qatiy nazar maydonda soyabop yashil muhit hajmini oshirish, uni an'anaviy Chorbog‘ va xiyobon uslubida shakllantirish maqsadga muvofiqdir.



**17-rasm.** Andijondagi Bobur milliy bog‘ining umumiyo ko‘rinishlari.

[https://stranabolgariya.ru/foto/fergana-](https://stranabolgariya.ru/foto/fergana-park.html)

[https://carposting.ru/andijan-namangan/](https://carposting.ru/andijan-namangan/park.html)

Islom Karimov 2002- yilning noyabr oyida Samarqandda bo‘lgan chog‘ida shaharning Markaziy madaniyat va istirohat bog‘i va Sug‘diyona turar-joy massivida qurilayotgan dam olish bog‘iga tashrif buyurib, ularni yaratishda yo‘l qo‘ylgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish haqida o‘z fikr mulohazalarini bildirgan edi.

Ta’kidlash zarurki, Sobiq sho‘ro davrida qarovsiz holga tushib qolgan ushbu bog‘larga faqat mustaqillik sharofati tufayligina e’tibor kuchaytirildi. Viloyat va shahar hokimligining say-harakatlari bilan bog‘lar qayta tiklanib, ularga yangicha fayz va manzara berildi.

Sug‘diyona bog‘ining xududini beshta funksional qismlarga bo‘lish mumkin. Birinchisi, bog‘dagi mavjud suv havzasi qayta ishlanib, zamонави "akovopark"ka aylantirildi, zarur jihozlar kiritilib badiiy bezaldi. Ikkinchisi, "bolalar dunyosi" bog‘i va yosh o‘sprinrlarga mo‘ljallangan attraksionlar majmuasi. U turli ko‘ngil ochar va sport o‘rnirlariga mos jihozlanib, badiiy estetik va manzaraviy bezaldi. Uchinchisi, bog‘dagi mo‘jaz "hayvonot bog‘i". Unga republika xududida va ayrim xorijiy o‘lkalarda yashovchi ekzotik hayvonlar keltirilib, ularga mos qulayliklar yaratilgan. To‘rtinchisi, bog‘dagi mavjud xiyobon va unga tutashgan xudud qayta ishlanib, unga faxriylar va nuroniylar uchun Sharqona "milliy bog‘" Chorbog‘ yaratishga harakat qilingan. Chorbog‘da nuroniylar choyxonasi, gulzorlar, favvoralar, xiyobon, ko‘shk va mevali bog‘ tashkil qilingan. Beshinchisi, bu "Robinzon Kruzo bog‘i"dir. Ma’lumki, insoniyat juda qadim zamонларда boshlab nafaqat tekis, balki qiyalik va toshloq joylarda ham mo‘jaz bog‘lar tashkil

qilgan. Ikki, uch va undan ko‘p xil toshlardan turli kompozitsiyalar tuzib, o‘ziga xos bog‘ hududi, xujra, ayvon va alpinariyalar yaratgan. Sug‘diyona bog‘ida ham ana shunday mo‘jaz toshloq bog‘ yaratilib, unda Robinzon Kruzo xujrasi ishlangan. Bulardan tashqari butun bog‘ hududi bo‘ylab ko‘kalamzorlashtirish va landshaft me’morchiligi ishlari: hududni obodonlashtirish, otma favvoralar va muhitni dekorativ yorug‘lantirish uchun yoritgichlarni shakllantirish, zarur muhandislik jihozlari, bog‘ mebellarini o‘rnatish, bog‘ darvozasi qurish va pardozlash ishlari amalga oshirilgan.

Bog‘da katta kichik haykallar, Gollivud shaharchasi, hind fillari, Misr ehromlari, dinozavrlar, Alovuddin jini, timsoxlar kabi o‘nlab qiziqarli plastik badiiy shakllar ishlangan. Ular bog‘ning "Bolalar va o‘spirinlar bog‘i" qismiga o‘rnatilgan. Bog‘ tashqi devorlari va ayvonlariga 5000 kv.m dan ziyodroq badiiy rasmlar, o‘nlab bog‘ haykallari ishlangan. Bog‘da bolalar sayri uchun ochiq maydon ham qurilgan. Bog‘ hududi ko‘kalamzorlashtirilib, yashil partertlar, maysazorlar va gulzorlar ishlangan. Bog‘da bajarilgan ishlar negizida Samarqandda bog‘ landshafti va dizayni, gulchilik maktabi hamda an‘anaviy Chorbog‘ uslubining shakllana boshlaganini ko‘ramiz. shu ishlar asosida shahardagi mavjud kollejlardan birini bog‘ dizayni va gulchilik sohasiga aylantirish maqsadga muvofiqligi sezilib turibdi (*18-rasm*).



**18-rasm.** Mustaqillik davri Samarqand shahrida joylashgan Sug‘diyona bog‘ining umumiy ko‘rinishlari  
<https://trip-for-the-soul.ru/foto/samarkand-park.html>

Buxoro shahrida Islom Karimov tashabbusi va rahnamoligida bunyod etilgan yangi madaniyat va istirohat bog‘i ham an‘anaviy Chorbog‘ uslubini respublika bog‘-park amaliyotiga joriy qilish yo‘lidagi say-harakatlarning biridir. Ushbu bog‘ning kulminatsion markazini «Ko‘hna va boqiy Buxoro majmuasi» tashkil qilib, undan ufqning to‘rt tarafiga yo‘naltirilgan xiyobonlar bog‘ tarhida an‘anaviy Chorbog‘ ko‘rinishini ramziy aks ettirgan. Bosh xiyobonlarning biribog‘ning bosh darvozasidan boshlanib, markazda joylashgan «Ko‘hna va boqiy Buxoro majmuasi» orqali bog‘ni kesib o‘tadi

va uning ikkinchi darvozasigacha davom etadi. Ushbu xiyobonga ko‘ndalang joylashgan yonbosh xiyobonlarning biri bog‘ markazidan yoshlari amfiteatrigacha, ikkinchisi esa unga qarama-qarshi tomonda joylashgan teatr binosigacha davom etadi. Mazkur teatr binosi bog‘ markazidagi monument kabi baland platforma (tagkursi)da joylashgan bo‘lib, an’anaviy Chorbog‘larga xos bo‘lgan bog‘-saroynining joyi va mavqeini egallagan. Natijada butun bog‘ hududi yirik to‘rt qismiga bo‘linib, ularning har biri alohida bog yo‘laklari va chamanlarni tashkil kilgan. Bog‘ hududi va bosh xiyobonlar bo‘ylab soyapar daraxtlar, butalar va gulzorlar ekilgan.



**19-rasm. «Ko‘hna va boqiy Buxoro» monumenti**

<https://zarnews.uz/uz/post/qoshni-viloyatlarda-nima-gap-qadimiy-zamonaviy-kelajagi-yorug-buxoro>

<https://meros.uz/ru/object/ko039hna-va-boqiy-buxoro?sa=X&ved=2ahUKEwjX-dGMhJrnAhVVwsQBHTSCDUYQqa4BMAF6BAgKEAI>

Xiyobonlar tutashuvida joylashgan favvora va mo‘jaz hovuzlar, atrof chetdagi yam-yashil maysazorlar bilan qo‘silib, bog‘ landshaftini jonlantirib yuborgan. Biroq bog‘ning eng asosiy g‘oyaviy markazi, bu «Ko‘hna va boqiy Buxoro» monumentidir. Unga ko‘hna va navqiron Buxoro tarixi haqida so‘zlovchi mashxur me’moriy yodgorliklar, Buxoro allomalari va kelajak hayot ravnaqini o‘zida aks ettiruvchi ramziy baraleflar ishlangan. Bog‘ zamonaviy avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimi bilan ta’minlangan (19-rasm).

Mustaqillik yillarda O‘zbekiston landshaft arxitekturasining rivoji uchun yaxshi imkoniyatlar yaratildi.O‘zbekiston zamonaviy bog‘-park san’atini rivojlantirishda Navoiy, Namangan, Farg‘ona, Urganch, Termiz kabi shaharlarda ham e’tiborga loyiq ishlar bajarildi. Navoiy shahrida dastlab 16 hektarlik "Janubiy bog‘" istirohatiga asos solinib, tez orada u shahar aholisining hordiq chiqaradigan ko‘ngilochar maskaniga aylandi. Bog‘ ichida o‘yin maydoni, qishda isitiladigan ochiq suzish hovuzchasi, qishki va yozgi kinoteatrlar, muzqaymoq, mehmonxona, xullas, yosh shahar navqiron

avlodining jo'shqin turmushi va hayoti uchun barcha zaruriy inshootlar joylashgan.



**20-rasm.** Alisher Navoiy nomidagi park rejasি. (ark. M. Semyonov bo'yicha)  
1932 y.

Alisher Navoiy rotondasi 2009 y.

(Adilova L.A., Uralov A.S. "Bog'-parklarni ta'mirlash.-T.: TAQI, 2017).

Shahar o'sishi bilan yangi shaharlarning shimol tarafidagi bog'ga asos solindi. Bu bog' 70 hektarlik maydonni egallagan bo'lib, uning qoq o'rtaida 20 hektarlik sun'iy ko'l mayjlanib turibdi. Ikki yuz mingdan ziyod aholiga ega bo'lgan shaharning ushbu asosiy istirohatgohi ittifoq davrida "Ko'l bog'i"ga aylantirildi. Bog'dagi ko'l cho'milishga kelganlarni ham, suzuvchi g'avvoslarni, sportchi va havaskor eshkakchilarini ham bemalol bag'riga sig'dira oladi. Ko'lning zilol suviga havasing kelmay ilojing yo'q, yozning jazirama kunlari mazkur ko'l Qrim va Kavkazdagi "oltin sohillar" bilan bemalol bellasha oladi [53; 16-17-b.].

Mustaqillik yillarda bu bog' yanada takomillashtirilib, uning Sharqiy qismida Alisher Navoiy haykali o'rnatilgan ulkan xiyobon tashkil etildi. Xiyobon Chorbog' uslubida ishlaniib, u bir nechta chorchanmanlar, favvoralar va gulzorlardan iborat (20-rasm).

**Nazorat uchun savollar:**

1. Istiqlol yillarida qanday yangi bog‘-parklar bunyod etildi?
2. Memorial bog‘-parklar va xiyobonlarni loyihalashda asosiy e’tibor nimaga qaratildi?
3. Andijondagi "Bog‘i Bobur" ning hududi qancha?
4. «Ko‘hna va boqiy Buxoro» monumenti haqida nimalarni bilasiz?

**2.3. Respublikamizdagi mavjud bog‘-parklarni qayta qurish va takomillashtirish tajribalari**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2010 yilda 322-sonli "2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra Sobiq ittifoq davridan bizga meros bo‘lib qolgan respublikamizdagi mavjud 134 ta Madaniyat va istirohat bog‘larining qayta qurilishi va ta‘mirlanishi ko‘zda tutiladi [2; №74]. Shu jumladan, viloyatlar kesimida: Andijon viloyatida 23 ta park, Toshkent viloyatida 16 ta park (shulardan 9 tasi Toshkent shahrida), Namangan viloyatida 13 ta, Surxondaryo viloyatida 13 ta, Qashqadaryo viloyatida 11 ta va qolgan boshqa viloyatlarda 8 tadan 1 tagacha parklarning ta‘mirlanishi va yangilanishi rejalashtirildi. Mazkur Qarorning bajarilishi davlat va umumuxalq ahamiyatiga ega bo‘lgan muhim ijtimoiy vazifa tarzida qaralib, joylarda uning bajarilishi qattiq nazorat qilindi. Respublika shahar va qishloqlaridagi mavjud barcha madaniyat va istirohat bog‘lari qayta qurildi, ta‘mirlandi, ularning me’moriy landshaft yechimlari va attraksionlari yangilandi. Tuman markazlarida "Yoshlar bog‘i", "Zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlari" tashkil etildi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston bog‘-park san’atining rivoji uchun yaxshi imkoniyatlar yaratildi. Yangidan qurilgan va qayta tiklangan ko‘rkam jamoat binolari va ansambllari egallagan hududlar, ayniqsa, ularning bosh tarzları qoshidagi me’moriy muhit ushbu binolar vazifalariga moslashtirilgan holda mo‘jaz bog‘larga aylantirildi. Quyosh nurida yarqiragan suv oynalarini yaratuvchi hovuzlar, favvoralar, pog‘onali, bir-biridan go‘zal shalolalar, yam-yashil tekis maysazorlar, ular uzra yastangan gilam nusxa gulzorlar, guldor butalar, mo‘jaz me’moriy shakllar, did bilan ishlangan o‘rindiqdar, tekis va jozibador, nafis to‘shamalar shular jumlasidandir.

Mustaqillik yillari bog‘-parklarida Sobiq ittifoq parklaridan farqli tarzda «yorug‘lik (nur) arxitekturasi»ga ham jiddiy e’tibor berila boshlandi. Bog‘-park ob‘yektlari va o‘simliklar kunduz kunlari qanday ko‘rinadigan bo‘lsa, nur arxitekturasi vositalari (shokilalar, chiroqlar, yo‘naluvchi, qoplovchi va chegaralovchi nurlar, turli xil tungi chiroqlar yordamida kechasi ham shunday chorag‘on ko‘rinadigan bo‘ldi.

Respublika bog'-park san'atining yana bir zamonaviy yo'nalishlaridan biri - bu ilgarilari e'tiborsiz va tashlandiq holda yotgan egasiz hududlarni o'zlashtirib, ularga zamonaviy talablarga mos vazifalar berishdir. Bu sohada respublikada ilgarilari ham sobiq sho'ro hukumati davrida birmuncha ishlar qilingan bo'lsada, biroq qarovsiz yotgan joylardan maqsadga muvofiq holda to'liq foydalanilmas edi. Mustaqillik yillarida shaharlardagi ana shunday joylarni ishga solish, ulardan samarali foydalanish yo'llari izlandi. Bu sohada katta yutuqlarga erishgan G'arb mamlakatlari tajribalariga murojaat qilindi. Toshkentda avvalgi "Pobeda" istirohat parki chegarasiga tutashgan va ko'pdan beri qarovsiz yotgan Anhor arig'ining sohillari obod etilib, bu joyga Toshkent "Disney parki" loyihasi ishlandi va amalga oshirildi. Park "Anhor" kanalining sohillari va ulardan hosil bo'lgan tabiiy jilg'alar va ko'llar hududiga joylashtirilgan va o'nlab gektar joyni egallagan. Park bolalar va kattalar uchun ulkan tabiiy tomoshagohda sun'iy yaratilgan turli g'aroyib yovvoyi hayvonlar dunyosini tashkil qilgan. Barcha hayvonlar sun'iy harakatlantiriladi va original ko'rinishlariga ega. Har bir hayvon uchun yaratilgan landshaft u yashaydigan tabiiy muhitni eslatadi. Did bilan oroyish berilgan park landshaftitabiyligicha qoldirilgan. Bu yerda g'orlar va suv osti dunyosi hayvonlari ham mavjud. Xizmat ko'rsatish madaniyati esa o'ta yuqori darajada tashkil qilingan.

Hozirgi vaqtida respublikamiz viloyatlari markazlari va Qoraqolpog'istonning Nukus shahri yoshlarida landshaft madaniyati, muhitni manzaraviy estetik bezash ko'nikmalarini hosil qilishga mo'ljallangan oranjereyalarni tashkillashtirish zarurligi sezilmoqda.

Birgina Toshkent shahrining o'zida 10 dan ortiq parklar mavjud bo'lib, mustaqillik yillarida G'afur G'ulom, Mirzo Ulug'bek, Bobur bog'lari, Alisher Navoiy nomli Milliy bog' qayta ta'mirlanib, ularning estetik-landshaft kompozitsiyasi tubdan yaxshilandi. Ular faoliyati ancha yaxshilandi. Ular faoliyati ancha jonlandi. Botanika bog'i, Hayvonot bog'i, Akvapark, Yapon bog'i singari tematik bog'lar ham halqimizning sevimli dargohiga aylandi. shuni alohida ta'kidlash kerakki, tematik bog'lar nafaqat dam olish uchun, balki alohida keng qatlaming dunyoqarashini boyitish uchun ham xizmat qiladi.

Tematik bog'lar ko'pgina mamlakatlarda, ayniqsa Yevropa va AQSHda ko'plab kishilarni o'ziga jalb etadi. Floridadagi "Uolt Disney dunyosi", Kaliforniyadagi "Disneylend", Kopengagendagi "Tivoli bog'lari", Parijdagi "Evro disney" shu darajada mashhurki, ularning har biriga yiliga 4 mln.dan 25 mln.gacha kishi tashrif buyuradi. shunisi yana e'tiborga loyiqliki, bu kabi bog'larga nafaqat mahalliy aholi, balki ko'plab sayyoohlар ham tashrif buyuradilar [57; 400 r.].

O'z vaqtida Toshkentda ham "shoirlar xiyoboni", "Luna-park", Rus, Yapon, O'zbek va Fransuz bog'lari elementlaridan tashkil topgan bulvar,

"Bolalar madaniyat va istirohat bog‘i" mavjud edi. "Luna-park" attraksionlari shaharliklar va poytaxt mehmonlariga juda ma‘qul kelgan edi. Ammo attraksionlar vaqtinchalik foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, keyinchalik Chexiyaga qaytarib olib ketildi. "shoirlar xiyoboni"da ham faqat Alisher Navoiy haykali saqlanib qolgan. Qolgan hududlar esa qayta tiklashga muxtoj.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Mustaqillik yillari bog‘-parklarida Sobiq ittifoq parklaridan farqi?
2. Tematik bog‘lar deganda nimani tushunasiz?

**III-BOB.****BOG'-PARK SAN'ATINING RIVOJLANISHIDAGI ZAMONAVIY  
XORIJIY TAJRIBALAR****3.1. O'rta va Yaqin Sharq, islom mamlakatlari tajribalari**

Eron zamonaviy bog'lari bu o'lkada tarixiy shakllangan an'anaviy bog'lardan farq qilib, o'zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Xushmanzara voha, daryolar va qirliklar, tog'larda yaratilgan tabiiy bog'lar, qo'riqxonalar, milliy parklar, bolalar bog'ları, suv bo'yidagi sohil bog'ları, gul bog'ları va, nihoyat, shaharlarda zamonaviy turar joylar tarkibidagi hovli bog'ları (Chorbog'lar) ana shunday xilma-xillikni tashkil qiladi. shular ichida "Chorbog'" yoki "choharbog'"lar, zamonaviy milliy parklar va gullar bog'i Eronda keng tarqalgan [36; 127-b.].

Hozirgi qurilayotgan hovlili zamonaviy turarjoylar tarkibidagi mo''jaz bog'lar Eronning an'anaviy hovli Chorbog'lariga ko'p jihatdan o'xshaydi, ya'ni ular muntazam rejali, to'rt qismli mo''jaz hovli bog'ları bo'lib, atrofi ichki yo'lak va devorlar bilan aylantirilgan, bog'da o'ziga xos manzaraviy yashil muhit bunyod etilgan. Aksariyat hovli Chorbog'lar xususiy qurilgan muntazam rejali sug 'orish tizimi bilan ta'minlangan bo'lib, ulardagi mo''jaz ariq va kanallardan oqayotgan suv shildirashi dilni yayratadi. Yoz paytlari mo''jaz hovli bog'larda o'tirib mehmon qabul qilinadi. Atrof gulzor, tuvaklarda xushbo'y va yorqin gullar o'stiriladi. Daraxt va butalardan, devorlar va uydan tushgan soyalar, bog' markazidagi favvora va ariqdagi suvlar hovli iqlimini salqin qiladi, unga bamsoli "behisht", ya'ni jannat bog'i ramzini beradi. Ayrim zamonaviy hovli bog'ları sathiga tekis maysa ekilib, o'rtadagi favvora va to'rdagi ko'shkdan tashqari, kechqurun yoritadigan tosh chiroqlar, haykallar va o'rindiqlar ham did bilan joylashtirilgan.

Keyingi yillarda Eronda erkin tabiat bag'rida, xushmanzaralarga boy daryo va ko'llar, qirliqlar, baland tog' va qoyalar qo'ynida, Eronga xos milliy flora va fauna genafondini tashkil qiluvchi go'zal tabiatli yashil voha va vodiylarda qator qo'riqxonalar va ular asosida milliy parklar yaratishning boy tajribalari orttirilgan (21-rasm).

Kirmon viloyatida joylashgan va rezervatsiyalangan uchun yovvoyi tabiatini o'z tarkibiga olgan Xarb milliy parki va tabiat qo'riqxonasi, Dergez okrugi (shimoliy Xuroson) dagi Tandura tabiat kompleksi: milliy park va qo'riqxona, shimoliy Tehronga yaqin joylashgan Tochal tog' cho'qqisi va Jamshidiya tabiat parki, Isfaxon viloyatidagi Najvon milliy parki va undagi "Qushlar oroli bog'i", Fars viloyatidagi Baxtegan ko'li qo'riqxonasi va parki, Bamu milliy bog'i, Urmiya ko'lida tashkil qilingan milliy parklar, Koshon shahri atrofidagi atirgullar bog'i va boshqalar Eronning ochiq muhitda

yovvoyi tabiat qo‘ynida yaratilgan zamonaviy milliy bog‘-parklari tizimini tashkil qiladi [36; 127-b.].



**21-rasm.** Isfaxon. Xiyobon-Chorbog‘ uslubidagi “shaharbog‘” me’moriy landshaft ansamblı (Eron).

<https://mykaleidoscope.ru/x/mesta-i-dostoprimechatelnosti/39753-ploschad-imama-isfahan-59-foto.html>

Tabiiyki, bu bog‘-parklar erkin tabiiy landshaftli katta hududlarni o‘z ichiga olgan va shaharlar tashqarisida joylashgan. shunga qaramay, shaharlar bilan qulay bog‘langan bu parklar shaharliklar uchun ham, xorijiy sayyoqlar uchun ham doim ochiq bo‘lib, go‘zal tabiat qo‘ynidagi dam olish va istirohat bog‘lariga aylantirilgan. Ularda dam olish uylari, kurortlar, sanatoriylar, sport bog‘lari, hayvonot bog‘lari, gidroparklar, bolalar oromgohlari, ilmiytadqiqot maskanlari tashkil qilingan.

Eron shaharlarida sobiq Sovet ittifoqiga xos, keng xalq ommasiga mo‘ljallangan ko‘p funksiyali madaniyat va istirohat bog‘lari yo‘q. Biroq, ularning funksiyasini erkin tabiat quchog‘ ida ulkan hududda joylashgan o‘sha milliy parklar bajaradi. Masalan, Isfaxon shahridan oqib o‘tadigan Zayanderud daryosi sohillari bo‘ylab joylashgan Najvan tabiat parkini olib ko‘raylik. Bu park Isfaxon shahri havosini sog‘lomlashtirishga xizmat qilishdan tashqari, shahar xalqining erkin dam oladigan istirohat bog‘i ham hisoblanadi. Bog‘da ko‘plab sport va bolalar o‘yin maydonlari, cho‘milish va suzish suv havzalarli, kempinglar va ovqatlanish joylari, qushlar bog‘i mavjud, kabrioletlar va otlarda sayr qilish, qayiqlar va velosipedlarda xordiq chiqarish mumkin.

Bir so‘z bilan aytganda, parkda sog‘lom va faol dam olish, sport turlari bilan shug‘ullanish, erkin hordiq chiqarish imkoniyatlari mavjud.

Faqat qushlar bog‘ining o‘zi 55 ming kv. metrni tashkil qilib, unda 5 mingdan ziyod turli qushlar makon qilgan. Bog‘dagi to‘rtta katta va kichik suv havzalarida o‘rdak, g‘oz, turna, flamingo va boshqa ko‘plab suvda suzuvchi qushlar yashaydi. Bog‘ning Sharqiy qismidagi "Saxre bog‘i"da esa tog‘ va sahro qushlari joylashtirilgan. Zayanderud daryosidagi ulkan orol ham "Qushlar bog‘i" ga aylantirilib, park bilan yog‘och ko‘prik orqali bog‘langan.



**22-rasm.** Shoir Sa'diy Sheroyzi mavzoleyi atrofining landshafti va shayx Lutfilla machiti

Oldidagi favvorada kamalakning jilolanishi (Eron).

<https://magput.ru/tours/tury-v-iran?48719469,284048>

Shu bilan birga, musulmon arxitekturasining diqqatga sazovor yodgorliklariga boy bo'lgan Eron mamlakati o'rta asr arxitekturasining noyob, butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan mahobatli me'moriy durdonalarini ham, davrlar osha o'z xalqiga xizmat qilayotgan qadimiy "Chorbog'"larini ham saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan. Bunday bog' komplekslar hududlarida ommaviy va madaniy milliy bayramlar tantanalari, an'anaviy sport musobaqlari, xalq folklyorining musiqali festivallari ham o'tkazilib turiladi, dam olinadi, bo'sh vaqtlarida sayr qilinadi. Eronning chekka shaharlarda saqlanib qolgan, o'rta asr zadogonlariga tegishli bo'lgan, hududi uncha katta bo'lmagan, xususiy uylarning hovli bog'lar hamda me'moriy ansambl va komplekslar tizimidagi "Chorbog'"lar sayyoohlarning bo'sh vaqtlarini o'tkazadigan eng sevimli joylar hisoblanadi. Bunday ixcham bog'lar yangi xususiy uylar hovlilari muhitida ham mavjud.

Erondagiday Turkiyada ham o'rta asr monumental yodgorliklari hisoblangan masjid, saroy va madrasa muhitidagi mo'jaz "Chorbog'"lar va bog' komplekslari saqlanib qolgan. Bu bog'larda Sharqning nafasini, antik davr shabadasini, ming yillar davomida barpo bo'lgan bog'-park qurilishi an'analarini his qilish mumkin. Milliy kolorit-ushbu ajoyib san'atning takrorlanmas omillaridan biridir [15; s. 8].

O'rta asrlardan saqlanib qolgan zamonaviy Turk bog'lariga qilgan sayringiz bugungi kun haqiqatidan kichkina bir ertakka tushib qolganday, bir umr yodingizda qoladi. Igna bargli o'rmonzorlar, toza va nam havo, tog' cho'qqlari, yam-yashil tepaliklar, xushbo'y hid taratayotgan gulzorlarda ko'krakni to'ldirib nafas olish va hayot gashtini surish imkoniyati yaratilgan.

Boy arxitektura me’rosi bo‘lmish qadimiy tamaddunlarning sirli qoldiqlari, afsonaviy saroylar bog‘ kompleksining dominanti bo‘lib, jannatga dahldorlik hislari tuyg‘usini yanada boyitadi, to‘ldiradi. (23-24-rasmlar).



**23-rasm.** Alaniya, Antaliya viloyati, Turkiyaning O‘rtayer dengizi, Alaniya sohillari

<https://otdix-v-tyrcii.ru/alaniya-park-turtsiya-istoriya-dostoprimechatelnosti/>



**24-rasm.** Istanbul, «Ataturk Arboretumu»

<https://ru.pinterest.com/pin/atatrk-arboretumu-nerede-nasl-gidilir-giri-cretin-edir-448389706648842413/>

<https://bangkokbook.ru/zametki/park-stambulskij-odessa-97-foto.html>

Turkiyada ham Erondagi kabi o‘rta asr muntazam bog‘larining kompozitsiyaviy an’analari bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. Turkiyaliklar qadimgi arxitektura va bog‘ san’ati an’analarini muqaddas bilib, asraganlar. Turk bog‘lariga bir qadam ranjida qilgan odam o‘zi uchun takrorlanmas yangilik kashf qiladi. Xususiy uylardagi zamonaviy hovli bog‘larining maxfiy va sirli burchaklari, zamonaviy parklarning muntazam yoki erkin shakllangan muhit, plyajlarning ko‘ngil ochar komplekslari kishimi ohangrabodek o‘z bag‘riga tortadi.

### Nazorat uchun savollar:

1. Eron zamonaviy bog‘lari haqida nimalarni bilasiz?
2. Isfaxon shahridan oqib o‘tadigan Zayanderud daryosi sohillari bo‘ylab tabiat parkining nomi?

### 3.2. Uzoq Sharq mamlakatlarining bog‘-park san’ati tajribalari

*Xitoyning zamonaviy bog‘-parklari.* Xitoy, Koreya va Yaponiya bog‘-parklari Eron, Turkiya va Yevropa bog‘laridan keskin farq qiladi. Ularning asosida bu mamlakatlar xalqlarining hayot falsafasi va diniy dunyoqarashlariga xos tabiatga bo‘lgan alohida hissiyot va munosabat yotadi. Hozirgi kunda mavjud bo‘lgan Xitoy bog‘-parklarini bir necha guruhlarga: imperator bog‘lari, ibodatxona bog‘lari, shahar istirohat parklari va bog‘lari, xususiy bog‘lar va tabiat qo‘riqxonalariga bo‘lish mumkin.

Xitoyning imperator va ibodatxona bog‘-parklari Xitoyda hozirgacha milliy boylik tarzida ko‘z qorachig‘idek saqlanib kelinmoqda, ular xorijiy sayyoohlар va tub aholi uchun doim ochiq. Masalan, Pekindagi yozgi imperator saroyi, ya’ni Ikeyuan bog‘-park ansamblining o‘zi sayyoohlар uchun katta bir mo‘jiza. Parkdagi Fosyange ibodatxonasi esa unga uzukka qo‘yilgan gavhardek yarashgan. Ikeyuan dunyo bog‘lari ichida o‘zining tengi yo‘q ulkan ko‘li, g‘aroyib tabiiy manzaralari, park imoratlari va ularning xilma-xilligi bilan ajralib turadi (25-rasm).



**25-rasm.** Ikeyuan, Pekindagi yozgi saroy va imperator bog‘i  
[https://enjourney.ru/strany/china/regioni/beijing/mesto/letniy\\_dvorec\\_iheyuan](https://enjourney.ru/strany/china/regioni/beijing/mesto/letniy_dvorec_iheyuan)

Mamlakatning shimoliga xos bo‘lgan ulkan tantanavor imperator bog‘laridan farq qiluvchi xususiy bog‘lar, Xitoyning asosan janubida joylashgan va nisbatan kichik o‘lchamlarga ega. shanxayga yaqin Suchjou shahri tumani ana shunday xususiy bog‘lar bilan mashhur (26-27-rasmlar).



**26-rasm.** Suchjou shahri "Lyuyuan"  
bog‘i

<https://mykaleidoscope.ru/x/sad-i-ogorod/5895-sady-suchzhou-62-foto.html>



**27-rasm.** Suchjou amaldorining bog‘i

<https://mykaleidoscope.ru/x/sad-i-ogorod/5895-sady-suchzhou-62-foto.html>

Xususiy bog‘lar turarjoyolar qoshida yoki ichki hovlilar bog‘lari tarzida tashkil etilib, mavjud tabiiy landshaft, suv havzasasi va relefiga mos tarzda, ular bilan hamohang va uyg‘un ishlangan, asosan tinch va sokin dam olish, intellektual suhbattlar va falsafiy fikrlashga mo‘ljallangan bog‘lardir.

Simmetriyaga asoslangan to‘g‘ri chiziqli mutazam kompozitsiyalar zamonaviy Xitoy bog‘lariga xos emas. Aksincha, ularning rejaviy yechimiga erkin, tabiat manzaralariga asoslangan manzarali kompozitsiyalar xosdir. Xitoyning landshaft san‘ati qonunlariga ko‘ra bog‘ning istalgan nuqtasidan ko‘rinadigan manzara ortidan yana boshqa manzara ko‘rinishi shart. Bog‘da sayr qilgan tomoshabin nigohida bu manzaralar ketma-ket va birin-ketin aks etmog‘i zarur.

Xitoyliklar uchun bog‘ mashtabi, ya’ni uning o‘lchamlari ahamiyatsizdir. Ularning fikricha, bog‘ yaratishdagi asosiy narsa-bu "kichik muhitda katta o‘lchamni ko‘ra bilish"dir [36; 127-b.]. Istalgan Xitoy bog‘i, hatto uning eng mo‘jazi ham tabiat ko‘rinishining bir qismi sanalib, unda uchta asosiy element: suv, tosh va o‘simliklar mujassamligi ta’minlanishi kerak. Xitoy bog‘larida suv havzalari baland sohillarsiz va sun‘iy qoplamlarsiz ishlanadi. Bog‘ ko‘chalaridagi orolda qurilgan ko‘shk xuddi suvdan o‘sib chiqqandek orol yuzini qamrab olgan va atrofdagi suv yuziga uning aksi tushib turadi. Ko‘shkka tosh ko‘prik orqali o‘tiladi.

Gonkong shahrining maydoni Moskva shahri maydoniga deyarli teng. Uning tarixiy qismida budda ibodatxonalar mavjud, manzaraviy tog‘lar, boy villalar, sayyohlik markazlar va deyarli yovvoyi tabiat manzaralariga ega bo‘lgan bog‘lar va parklar joylashgan. Parklar gonkongliklarning hayoti va turmushining ajralmas qismidir. Gonkong shahrining jadal texnik taraqqiyotiga qaramasdan, bu yerda insonlardagi tabiatga bo‘lgan ixlos va muhabbat bolalikdan tarbiyalanadi. Dam oluvchilar park ob‘yektlari va uning landshaftini juda qadrlaydilar. Gonkong parklarida o‘simlik va hayvonot

dunyosini tashkillashtirishga zo'r mahorat bilan yondashilgan, chunki ularning yaratilishi g'oyasidayoq bu holatga katta ahamiyat berilgan. Hatto o'simliklar kompozitsiyasi va ularning nomi yozilgan taxtachalar o'rnatilgan (28-rasm).



**28-rasm.** Gonkongdagi bog'lardan foto lavhalar  
<https://pipesmokerrus.livejournal.com/320334.html?view=comments>

Gonkong parkida kunning qanday o'tganini sezmay qolasiz, parkdagi go'zal oranjeraya kirib (maydoni 1400 kv.m.) uni uzoq tomosha qilish mumkin. U uch qismga: ko'rgazmaga, ho'l va quruq tropiklarga bo'lingan. Oranjereya binosi o'ta qiyalikda joylashgan bo'lib, go'yo havoda muallaq turgandek ko'rindi. Uning old qismida qator go'zal havzalar shalolasi joylashgan, ularda bir necha yuzlab suv o'simliklari o'sadi.

1992-yilda Gonkong parkida ulkan qafasni aks ettiruvchi qushlar bog'i ochilgan. Oranjereyalarga yaqin joyda esa hayvonot bog'i mavjud. Bularning barchasi yashil maskanlar va ochiq tabiat bilan bog'langan. Parkda shahar miqyosidagi ommaviy madaniy tadbirlar uchun alohida joy ajratilgan.

Bu yerdagи ochiq yashil maydonda turli xil sport shoularini, itlarning ko'rgazmalarini, konsertlar, har yili bir marta "Muz g'aroyibotlari" deb ataladigan maydonda o'tkaziladigan muz shousini o'tkazish odat tusiga kirgan. Tomoshabinlar uchun qulay tribunalar, konsert maydonlari, Olimpiya maydonlari kabi maydonlar tashkil etilgan. Gonkong shahri parklarida sport inshootlariga keng o'rин berilgan. Hatto zooparkda ham ertalabki yugurish yo'lakchasi va sport o'yinlari uchun joy ajratilgan. Ayrim parklarda ochiq maydonda maxsus sport trenajyorlari qo'yilgan. Har bir park boshqasi bilan raqobatda ustunlik qilgisi keladi. Bunda nafaqat yangi xizmat turlari va attraksionlar, balki tabiat manzaralari ham flora va fauna ham katta ahamiyat kasb etadi [45; 24-b.].

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy Xitoy bugun o'zining qadimiy imperator, ibodatxona va xususiy milliy bog'lari bilan mashhur. Ular qatorida Xitoyning zamonaviy ommaviy istirohat parklari Gonkong va Kaolun parklarida o'z aksini topgan. Bu bog'lar ko'p funksiyali bo'lib, ularda o'simlik

va hayvonot dunyosiga zo'r mahorat bilan yondashilgan. Ular uch qismga: ko'rgazmaga, ho'l va quruq tropiklarga bo'lingan bo'lib, oranjereya, sport va ko'rgazma-konsert maydonlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Zamonaviy Xitoy bog'-parklariga quyidagi xususiyatlardan xosdir:

- suv havzasi bog'ning muhim tarkibiy qismi (30-70%) hisoblanadi, u qirg'oqdan o'tadigan sohil chiziqlari va ko'pgina orollarga ega bo'lib, bu holat sayr chog'ida go'zal tabiat manzaralarini tomosha qilish imkonini beradi;

- bog'da ko'p sonli an'anaviy park imoratlari-suhbatgohlar, verandalar, rastalar, ko'rgazmalar, ko'priklar, yo'laklar mavjud. Imoratlар yorqin ranglarga bo'yalgan, ular o'simliklarning yashil foniga kontrast bo'lib, o'sha park manzaralarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi;

- zamonaviy shahar parklarida ommaviy madaniy tadbirlar uchun ochiq maydonlar, sport maydonlari va turli xil attraksionlar mavjud;

- bog'da sayr qiluvchilarga aniq vizual yo'nalishlar berish -inson nigohining bog'dagi yo'nalishlar orqali zarur tomonga qaratilishi;

- Xitoy bog'larida eski, ko'p asrlik daraxtlar qadrlanadi. Ular bog' manzaraining asosiy urg'ularidir. O'simliklarning turlari etarlichcha: qarag'ay, archa, zarangning turli xillari, xitoy emani, kadr daraxti, magnoliya, ginkgo, nok, qaroli, olcha, majnuntol, bambuk; chiroyli gullovchi butalar-kameliya, azaliya, gullardon: sallagul va xrizantemalar, suv havzalari nilufargullar bilan, ularning qirg'oqlari esa gulapsarlar bilan bezatiladi.

*Yaponiyaning zamonaviy bog'lari.* Yaponiya bog'-park san'atining g'oyaviy falsafiy asoslarini chuqurroq tushunmoq uchun bu mamlakatning o'ziga xos geografiyasi va tabiiy-iqlim sharoitlariga hamda Yapon xalqining diniy va dunyoviy tafakkuriga nazar solmoq kerak. Tog'u-toshlar, qoyalar, sharsharalar, ko'llar, dengizlar, tabiiy irmoqlar, Yaponiyaga xos o'simlik va suv dunyosi, ya'ni ona tabiat qanday yaratilgan bo'lsa, Yaponlar ularni o'z bog'larida shunday mazmunda, faqat miniatyuralashtirilgan va ramziylashtirilgan shakllarda ko'rishga odatlanganlar. Yaponiya dini-dzen-buddizm va sintoizm ham Yapon xalqini aynan ana shunga, ya'ni ona tabiat go'zalligini yaxlit xolda ko'ra bilishga, uni sevishga, uning elementlari orasidagi uyg'unlikni sezish, uni tushunish va to'liq xis qilishga undaydi. Bu ularning turmushini go'zal, hayotga ishtiyoqini mustahkam, ruhini quvnoq, dilini baxтиyor qiladi, deb tushuntiradi. Bu esa bizga Yapon bog'lariga xos ramziylikni, mazmunlilikni, an'anaviylikni tushunishga yordam beradi.

Demak, Yaponiya milliy bog'larining uslubiyati Yaponlarning ona tabiatni, milliy mafkurasini va diniy dunyoqarashlaridan kelib chiqadi. Dzen-buddizm ona tabiatni inson o'zining barcha sezish organlari bilan, ya'ni nafaqat ko'rib va hidlab, balki eshitib va ta'mini ko'rib o'rganishga ham undaydi. Faqat shundagina inson ona tabiatni yaxshi tushunadi, sezadi va sevadi, deb tushuntiradi. Ona tabiatdagi tog'u-toshlar, qoyalar, sharshara,

irmoqlarning, daraxt va o'simliklarning jonu-dilidir. Ular o'z bog'larini ana shulsiz, o'zlarini esa bog'larsiz tasavvur eta olmaydilar. Bu Yapon bog'lariga xos eng birinchi va asosiy omildir. Ikkinchisi-bu jonli tabiatning har bir tarkibiy elementi tabiatda o'zaro qanday mutanosiblikda bo'lsa, bog'larda ham xuddi shunday uyg'unliklarda timsollashtirilishi shart. Yaponiyada inson jonli tabiatning bir qismi, uning tashqarisidan emas, ichidan joy olgan uyg'un organizmi hisoblanadi. shu boisdan ham Yaponlar tabiatni zabt etishga emas, balki har doim u bilan uyg'unlashishga harakat qiladi.

Ma'lumki, tabiatga mavsumiylik, vaqtga ko'ra doimiy harakatchanlik tushunchalari xos. Bu tushunchalar ham Yapon bog'larida o'z aksini topgan. Daraxt va butalar, ularning gullari va mevalari-mavsumiylikni bildirsia, tosh va qirlar, qoyalar doimiylikning, Yapon tog'larining ramzidir. O'simliklar-hayot, suv oqimi-vaqt va harakat ramzidir. An'anaviy Yapon bog'lariga xos yana bir narsa -bu ochiq va yopiq yashil muhitlar kontrastidir. Buning ma'nosi shuki, Yaponlar o'z bog'larini tabiat elementlari (toshlar, qirlar, o'simliklar, suvlar) bilan to'ldirib tashlashni emas, balki ochiq muhitlar va ularga xos bo'lgan tabiiy urug'lar orqali tasvirlashni yoqtiradilar. Bog'lardagi manzaralar oldingi, o'rtaliq va orqa planlarning bo'lishi va ularni bog'ning sayr yo'laklaridan tomosha qilish imkoniyatining yaratilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yapon bog'i, odatda monoxromli yoki polixromli ranglarda bo'ladi. Yapon toshloq bog'ları yoki quruq manzaralı bog'ları monoxromli bog'larga kirsa, manzaralı yoki manzaralı bog'lar polixromli bog'larga kiradi.

Yapon bog'ları holatiga ko'ra uch xil: qirlik, yassi va past-baland bog'larga bo'linadi [19; s. 22-67]. Yassi bog'lar sahni tekis bo'lib, ularning yuzi mayda shag'al tosh yoki qumdan, bir nechta katta toshdan va moxdan, ayrim hollarda daraxtlardan, quduqdan iborat bo'ladi. Bunday bog'larga, birinchi navbatda toshloq yoki quduq manzaralı bog'lar kiradi. Ushbu bog'larning tarixiy prototipi Kioto shahridagi Reandzi bog'i (29-rasm).



**29-rasm.** Kioto shahridagi Reandzi bog'ining umumiy ko'rinishlari  
<https://libarea.ru/post/546/kamennyj-sad-reandzi-molchanie-vechnosti>

Qirlik bog'larga qirning mavjudligi xosdir. U odatda suv havzasi, sharshara va suv oqimi, irmoq bilan to'ldiriladi. Bunday bog'lar ham tosh va daraxtlardan holi emas.

Past-balанд bog'lar sahni, odatda, o'nqir-cho'nqir bo'lib, ular Yaponiya tog'lik mintaqalarining mo''jaz modelini o'zida ramziy ma'noda aks ettiradi. Kichikroq ko'l, orolcha, toshloq qирг'oq, tosh chiroqlar, tosh ko'priк va suv ustidagi tosh yo'laklar bunday bog'larga xos alomatlardir. Bu bog'lar ham o'simliklardan xoli emas.

Kompozitsion tuzilishining holati va tarkibiy elementlariga ko'ra yuqoridagi har uchchala bog' ham to'liq shaklda "-sin", yarim qisqargan "-so" va qisqargan "-ge" shakllarida yaratilishi mumkin [19; s. 22-67].

Sayr yo'laklari bo'ylab bog' ssenariyalari, ya'ni manzaralarining doimiy o'zgarib turishi murakkab rejaviy tuzilishli katta bog'larga xos asosiy alomatdir. Keng va so'lim manzaralar oralab sayr qilish, unda ona tabiatning jonli ramzları-qirlar, ko'llar, shallolalar, orolchalar, qирг'oq, qoya, irmoq va yashil dunyoni tomosha qilish, yaqin va uzoq manzaralardagi tabiat urg'unlariga ramz solmoq, umuman, inson va tabiat uyg'unligi, hamohangligiga erishmoq bunday bog'larning asosiy funksiyasi va g'oyaviy mazmunidir.

Butun dunyo bog'-park tajribalaridan kelib chiqib, bugungi kunda Yaponiya shaharlariда ham ommaviy istirohat ehtiyojlari uchun mo'ljallangan zamonaviy parklar va bog'lar yaratila boshlandi. Biroq, bu bog'lar biz Yevropa va Rossiya shaharlariда ko'rishga odatlangan madaniyat va istirohat bog'laridek katta va ulkan bog'lar emas. Yaponiyaning Tokio, Kioto va boshqa shaharlariagi piyodalar ko'chalari muhitini, binolarning tashqi devorlariga tutashgan trotuarlarni, binolarga kirish joylarini konteyner qutilarga ekilgan gul tuvaklari va boshqa manzaraviy o'simliklar bilan faol tarzda ko'kalamzorlashtirish tajribalari to'plangan [64].

Hajmi unchalik katta bo'limgan bunday nufuzli maskanlar manzarasi va mikroiqlimiga konteyner o'simliklarining ta'siri ancha katta. Bu o'simliklar nafaqat atrof muhit havosini tozalishi va uni kislород bilan boyitishi, balki unga tabiiy go'zallik baxsh etishi bilan ham muhimdir.

Yaponiyada 1966-yildan boshlab mo''jaz bog'lar yaratishning yangi turi, ya'ni bino tomlari ustida bog'lar qurish madaniyati ham ommaviy tus olgan. Bu yo'naliшning shakllanishini shaharda yangi bog'lar va parklar yaratishga xos hududlarning tansiqligidan emas, balki Yapon xalqining jonli tabiatga bo'lган o'ta yuksak ishtiyoqidan deb ham tushunmoq kerak. Bino tomida barpo qilingan eng yirik bog'lardan biri-bu Sapporo, Xokaydodagi Grand-Otmexmonxonasi tomida yaratilgan bog'dir. Bog'ning umumiy maydoni 660 kv. metrni tashkil qilib, ko'p qavatli bu bino tomida go'zal va maftunkor oazis bunyod etilganki, bu narsa bino poyida, ya'ni ko'chada yurgan kishilarning hayoliga ham kelmaydi.

Yaponiya zamonaviy landshaft arxitekturasiga xos navbatdagi manzaraviy yo'nalish -bu turarjoy binolari va erkerlarida bunyod etilgan mo''jaz bog'lardir. Bu yo'nalish Yaponiyada 1990-yillarning boshida shakllangan bo'lib, hozirda u aksari shaharlarda keng tus olgan. Yaponiyadagi zamonaviy turarjoy maskanlarini ko'kalamzorlashtirishning o'ziga xos shakli sifatida xususiy uylar tarkibidagi mo''jaz bog'larni ko'rsatish mumkin. Turarjoy muhiti bilan uyg'unlashib ketgan bu mo''jaz bog'larda kishi o'zini go'yo uyda emas, balki tashqarida, ochiq tabiiy muhitda yurgandek his qiladi. Tabiiyki, bunday mo''jaz bog'lar maxsus loyihalangan xususiy turarjoysi tarkibida yaratilgan. Bunday hovli bog'larida Yaponlar milliy choy ichish marosimini o'tkazishni yoqtirishadi va shu boisdan ular ayrim hollarda "Choy bog'lari" deb ham ataladi.

Yaponiya bog'larida o'sadigan o'simliklar ichida doim yashil manzaraviy o'simliklar etakchi o'rinni egallaydi. Ular safidagi eng an'anaviy daraxt o'simliklardan Yapon qarag'ayi, Yapon zarangi, kameliya, azaliya, magnoliya, Yapon olchasi, sakura, olxo'ri, bambuk, safora va normushklarni ko'rsatish mumkin. Yaponlarning tushunchasiga ko'ra, o'simlik dunyosining "to'rt ziynati"ni xrizantema, olxo'ri, orxideya va bambuklar tashkil qiladi. Suv havzalari nilufar gullari, ularning qirg'oqlari esa gulapsarlar bilan bezatilgan. Gul o'simliklari juda kam, ayrim hollarda umuman qo'llanilmaydi. Yaponiya hovli bog'larida banan daraxtini ekish ham odat tusiga kirgan. Maysa o'rniiga er yopar o'simliklar keng qo'llaniladi. Uncha katta bo'limgan zamonaviy shahar bog'larida daraxtlarga turli xil g'aroyib sun'iy shakllar berish ham Yaponiyada an'anaviy tusga kirgan.

Yaponiya bog'larida, yuqorida ta'kidlaganimizdek, suv turli shakllarda: ko'l, havza, irmoq yoki sharsharalar ko'rinishida uchraydi. Biroq, Yaponiyada suvsiz bog'lar ham mavjud. Yaponiya zamonaviy bog'-park san'atining ana shunday muhim an'anaviy milliy ko'rinishlaridan biri-bu "toshloq bog'lar" yoki "quruq manzarali bog'lar" deb ataladiganlaridir. Bu yo'nalish Yaponiyada qadimdan an'ana bo'lib, hozirga qadar ham davom ettirilib kelinmoqda.

Toshlar, mayda shag'al, qum, mox, tosh chiroqlar mazkur bog'larning o'ziga xos elementlaridir. Quruq manzarali bog'larda shag'al yoki qum yordamida sun'iy ravishda, irmoqning tabiiy ko'rinishi tasvirlanib, oqar suvgaga taqlid qilinadi, ya'ni ramziy o'xshatiladi. Toshloq yoki quruq bog'larning kelib chiqishi Yapon dini dzen-buddizmning dunyoviy falsafasiga asoslangan. Bu bog'larda toshlar, odatda, buddizm "uchligi"ga taqlid qilinib alohida guruhlarda uchtadan joylashtiriladi. Toshloq bog'lar kishini dunyo tashvishlari va turmush taraddudlaridan holi qilmoq, xilvatga chekinmoq va milliy meditatsiyalar uchun mo'ljallangan. Bunday bog'lar g'oyasi oddiy tabiat go'zalligini his qilish va u bilan uyg'unlashishga kirishdaniboratdir.

Toshlar Yaponiyada nafaqat "toshloq bog'lar"ning, balki umuman Yapon bog'larining, ibodatxonalar qoshidagi bog'lar, jamoat bog'ları, xususiy turarjoy va jamoat binolari tarkibidagi bog'larning ham eng muhim tarkibiy elementlaridir. Boshqacha aytadigan bo'lsak, Yapon bog'larini umuman tabiiy toshlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Toshloq bog'lardagi tabiiy toshlar kompozitsiyasi bir necha tamoyillarga bo'ysinadi, ularga ko'ra ikkita o'zaro bog'lanuvchi toshlar sirti chizig'ining uzunligi bir-biriga teng bo'lmashligi shart; kompozitsiyadagi toshlar sirti chizig'ining birortasi boshqasiga parallel bo'lmashligi va ikkita toshning o'lchami bir-biriga teng bo'lmashligi shart.

Yapon bog'larining yana bir turi-bu miniatyuralashtirilgan bog'lar bo'lib, unga xos asosiy atribut mo'jaz, ya'ni kichik daraxtchalaradir. To'shamalar va yo'laklarning shakllari, materiali va ranglari ham xilma-xil bo'lishi mumkin. Bu kichkina bog'lar kvadrat shaklida, to'g'ri to'rtburchakli, aylana va boshqa shakllarda ham uchraydi (*30-rasm*).



**30-rasm.** Miniatyuralashtirilgan Yapon bog'laridan misollar

<https://dzen.ru/a/ZJrcyNaaKBbLb2uh>

[https://vk.com/wall-154285444\\_117919](https://vk.com/wall-154285444_117919)

Umuman Yapon bog'ları va parklariga mahalliy shart-sharoitlar va udumlarning ta'siri katta. shuning uchun ham ularning o'lchamlari, me'moriy-rejaviy yechimlari va funksiyalari turlicha. Hozirgi vaqtida Yaponiyada milliy landshaft parklarini tashkil qilishning tamoyillari ishlab chiqilgan. Ularga ko'ra ranglar, shakllar, materiallar fakturasi, masshtabi va hajmiy kompozitsiyalar kontrastidan foydalanish bog'-park san'atida eng samarali yo'nalish ekanligi ko'zda tutilgan.

Shunday qilib, Yaponiya zamонави bog'ları uchun quyidagilar xarakterlidir: tabiatdagi tog'u-toshlar, qoyalar, sharshara, irmoqlarning, daraxt va o'simliklarning, havzalarning modellashtirilgan ko'rinishlari.

Yapon bog'lariga xos keyingi omillardan biri, bu jonli tabiatning barcha tarkibiy elementlari tabiatda qanday mutanosiblikda bo'lsa, bog'larda ham xuddi shunday holatlarda timsollashtirilishidir.

Yapon bog'i monoxromli yoki polixromli ranglarda bo'ladi. Toshloq bog'lar yoki quruq manzarali bog'lar monoxrom bog'larga kirsa, manzarali yoki manzarali bog'lar polixrom bog'larga kiradi.

Yaponiyada bino tomlari ustiga bog'lar qurish madaniyati ham ommaviy tus olgan. Bu yo'nalish shakllanishini shaharlarda yangi bog'lar va parklar yaratishga mos hududlarning tanqisligidan emas, balki Yapon xalqining jonli tabiatga bo'lgan o'ta yuksak ishtiyoqidan deb tushunmoq kerak.

Xususiy uylar tarkibi va hovlilarida yaratilayotgan mo''jaz bog'larni, Yaponiyadagi zamonaviy turarjoy maskanlarini ko'kalamzorlashtirishning o'ziga xos shakli sifatida ko'rsatish mumkin.

Yaponiya zamonaviy bog'-park san'atining ana shunday muhim an'anaviy milliy ko'rinishlaridan biri yuqorida eslatganimizdek, -"toshloq bog'lar" yoki "quruq manzarali bog'lar"dir.

Yapon bog'larining yana bir turi -miniatyuralashtirilgan bog'lar bo'lib, unga xos elementlarning biri mo''jaz, ya'ni kichik daraxtchalaridir. To'shamalar va yo'laklarning shakllari, materiali va ranglari ham xilma-xil, miniatyuralashtirilgan bog'lar kvadrat, to'g'ri to'rburchakli, aylana va boshqa shakllarda ham bo'lishi mumkin.

Sharq mamlakatlari bog'-park san'atiga bugungi kunda ham qiziqish susaygan emas. Bunday qiziqish O'zbekistonda ham mavjud, zero ularda yashiringan sirli falsafiy mushohadalar va tabiatga bo'lgan munosabat kishi e'tiborini o'ziga jalb qilmasdan qolmaydi.

XIX asr butun dunyoda kommunikatsiya vositalarining tezkor taraqqiyoti bilan ajralib turadi. XX asrda dunyoning turli mintaqalarida yashovchi xalqlar o'zaro tezkor va yengil aloqa qilish imkoniyatlariga ega bo'ldilar. U yoki bu mamlakatda yaratilgan yaxshi narsalarga, xususan bog'-parklarga tez orada boshqa mamlakatlar ham etisha boshladi.

Dunyo bog'-park san'ati uslublari ham umummilliy tus ola boshladi. Hindistonda buddizm ibodatxonalar qoshida vujudga kelgan bog'lar Xitoy, Koreya va Yaponianing ham milliy bog'lariga aylandi. Ibodatxona bog'lari Yevropa xristian ibodatxonalar qoshida ham an'anaga kirgan. Arablar eronliklardan "Chorbog'" san'atini o'zlashtirib olib, uni butun Islom mamlakatlariga va hatto, Ispaniyaga ham joriy etdi. Hozir bu san'at Yevropaga ham tarqalmoqda. Uzoq Sharqda, Xitoy va Yaponiya bog'larida o'sadigan o'simliklar Yevropa, Amerika va Hindistonda o'stirila boshlandi [99]. Hozirda Yaponiya bog'larini butun dunyo kashf etib ulgurdi va hakozo. shunday qilib, turli sivilizatsiyalar asosida yaratilgan bog'-park san'ati butun dunyo bo'ylab tarqalmoqda.

Biroq, turli mamlakatlarda an'anaviy yaratilgan tarixiy va zamonaviy bog'-parklarning mazkur dissertatsiyada aks ettirilgan o'ziga xos uslublari va jihatlari borki, bo'lg'usi mutaxassislar ularni qunt bilan o'rganmog'i va bu

san'at sirlaridan yangi bog'-parklarni qurishda samarali foydalanmog'i zarur. Nafaqat yangi bog'larni, balki Respublikamizda mavjud bo'lgan istirohat bog'-parklaridan to'g'ri foydalanish, ularni zamonaviy badiiy-funksional, texnik va estetik talablarga mos ravishda qayta qurish, ulardag'i moddiy va ma'nnaviy eskirgan funksiyalarni zamonaviylashtirish, bog' landshafti va hududini me'moriy-rejaviy tashkillashtirishda mazkur ishda bayon etilgan ko'p qirrali bog'-park san'ati merosidan unumli foydalanish va qo'llash bu sohadagi ishlarimizni yanada takomillashtirib, uni umumjahon talablarini darajasiga ko'tarishga yaqindan yordam beradi degan umiddamiz.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Xitoy bog'-parklari necha guruhga bo'linadi?
2. Pekindagi yozgi imperator saroyining nomi?
3. shanxayga yaqin Suchjou shahri tumani xususiy bog'lari haqida nimalarini bilasiz?
4. Zamonaviy Xitoy bog'-parklari xususiyatlari?
5. Xitoy va Yapon bog'larining farqli jihatlari?
6. Yapon bog'lari holatiga ko'ra necha xil?
7. "Choy bog'lari" deganda nimani tushunasiz?
8. Yaponianing miniatyuralashtirilgan bog'lar deganda nimani tushunasiz?

### **3.3. Yevropa mamlakatlarining tajribalari**

Yevropaning ko'plab mamlakatlarida XIX asrning boshlarida imperatorlar oilalarining istirohati uchun ko'ngilochar bog'lar yaratila boshlangan. Bog'larda xiyobonlar, sayrgoh yo'laklar, favvoralar, haykallar, oranjereya va turli xil daraxt o'simliklarga boy sayrgohlar tashkil etilgan. Oranjereyada dunyoning turli burchaklaridan keltirilgan g'aroyib o'simliklar o'stirilgan. Ayrim oranjereyalarda, shuningdek maymunlar, ekzotik va noyob qushlar saqlangan. Yoz paytlarida bog'larni yirik tuvaklarga ekilgan o'simliklar ham bezagan. Ayrim bog'larda ularni imperator saroyi bilan bog'lovchi er osti o'tish yo'llari qurilgan. Vaqt o'tib, bu bog'lar kengaytirilgan, relef va rejaviy tuzilishi o'zgartirilib, bog'da prudlar, zinapoyalar va balyustradalar ishlanib, ayrim bog'lar erkin tabiat ko'rinishini olgan [56].

Yevropaning ana shunday bog'laridan biri Venada 1818–1826 yillarda barpo etilgan Burggarten imperator bog'idi. U bir necha bor qayta qurilib va o'zgartirilib, "Yangi qishgi bog" –oranjereyasi bilan to'ldirilgan. Oranjereya devorlari va tomlari oynagard tarzda, po'lat va tosh materiallardan ishlangan. Uzunligi 180 m, eni 13 m bo'lgan ushbu "Qishgi bog" 4 ta alohida qismlardan tuzilib, devorlariga uzumzor manzaralari ishlanadi. Burggarten bugungi kunda 2 terrasali, g'aroyib favvoralar, haykallar va yodgorliklar bilan bezatilgan.

Bog‘ ichidagi prud markaziga sher bilan olishayotgan Gerkules haykali o‘rnatilgan favvora joylashgan. Bog‘da Imperator Frans Iozefga, kompozitor Motsartga va boshqa bir qator Avstriya allomalariga atab haykallar ishlangan. Bog‘ maxsus loyihalangan bir nechta darvozalarga va keng maysazorlarga ega [63]. (31-rasm).

Mazkur bog‘ 1918- yildan buyon Avstriya Respublikasi madaniy mulki hisoblanib, ommaviy istirohat ob‘yektiiga aylantirilgan. Bugungi kunda Burggarten Vena shahri markazi-Xofburgning yashil oazisi, yoshlarning maysa ustida o‘trib dam olishi, uchrashuvi va shaharliklarning ertalabki yugurishi va sayr qilish bog‘i hisoblanadi. Bog‘ maydoni uncha katta bo‘lmasada (3,8 ga), unda yoshi 100 dan oshgan manzarali daraxtlar ko‘p: zarang, jo‘ka, grab, shumtol, yong‘oq, kashtan, magnoliya, qarag‘ay, qoraqarag‘ay, ginkgo, va boshqalar mavjud. Bog‘dagi uzluksiz manzarali samaraga erishishda go‘zal gullovchi butalar: brodrezak, forzitsiya, tavolga, siren, veygelya, filadelfus, gortenziya va boshqalar keng qo‘llanilgan [59]. Bog‘ fahri bo‘lib, bu erga Sharqiy Osiyo saroylari va Hirotdan 1730-yildan boshlab olib keligan ginkgo daraxti hamda gullari oq alvon va qizg‘ish ranglarga kiruvchi daraxt buta–sallagullar xizmat qiladi, biroq gulzorlar bog‘da ko‘p emas. Bog‘ning muhim tarkibiy qismi hisoblangan Palmenxauzda yil bo‘yi manzarali o‘simliklar va ulardan tuzilgan yashil landshaft kompozitsiyalari hamda gullar ko‘rgazmasi o‘tkazilib turiladi. Xullas, Burggarten Vena shahrining go‘zal tarixiy va hozirda ommaviy bog‘– park ansambllaridan biri hisoblanadi.



**31-rasm.** Venadagi Burggarten bog‘i

[https://unclejosef.livejournal.com/71985.htm  
?l2noscroll](https://unclejosef.livejournal.com/71985.htm?l2noscroll)

<https://bangkokbook.ru/galereya/parkiveny-83-foto.html>

Umuman olganda Avstriya necha yuz yillar davomida Yevropa madaniyatining bosh markazlaridan biri sifatida dunyoga tanilgan. Bu yerdagi san’at, iqtisodiyot va siyosiy jarayonlardagi ijobiy o‘zgarishlar mamlakat boshqaruvining Frans Iosif davri bilan bog‘liqidir. Uning davrida, ayniqsa, Vena shahrini obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va qayta qurish ishlari

avj oladi. Yashillik va gullar bilan burkangan ko‘p sonli bog‘-parklar, bulvarlar, sayrgohlar yaratiladi. Avstriya shaharlari bugungi kunda ham o‘zining ana shunday bog‘-parklari, sayrgohlari va xiyobonlari bilan dunyoga mashhur.

Avstriyaning ana shunday mashhur va yirik istirohat bog‘laridan biri – “Dunay-park”dir. U Dunay dunyosining chap qirg‘og‘ida joylashib, 80 gektarga yaqin hududni egallagan. Uning asoslanishi 1962–1964 yillarga to‘g‘ri kelib, ushbu yillarda Venada “Vena Internatsional Bog‘ shousi” tashkil etiladi. Ushbu shouuning asosiy maqsadi Avstriya va umum dunyoyi bog‘dorchilik san’atining rivoji va imkoniyatlarini namoyish etish edi. Bog‘ shousi uchun Dunay va Eski Dunay orasidagi avvallari axlatlar to‘kiladigan va askarlar marsh qiladigan chuqur hudud ajartiladi. Bog‘ shousi bahonasida ushbu tashlandiq hududni ekologik qayta jondorish, shahar muhitini sog‘lomlashtirish, aholiga yangi rekreatsion zona yaratish ko‘zda tutiladi (*32-rasm*).

1961-yilda shahar Bog‘ direksiysi ishtirotida bog‘ shou parki uchun eng yaxshi loyiha tanlovi e’lon qilinadi. Tanlovgaga tushgan 17 loyihadan malakali hay‘at a’zolari 3 ta eng yaxshi loyihani tanlaydi. Ular asosida yagona real loyiha ishlab chiqiladi.



**32-rasm.** Venadagi “Dunay-park”dan fotolavhalar  
[https://www.gardener.ru/gap/garden\\_guide/page5790.php](https://www.gardener.ru/gap/garden_guide/page5790.php)

Vena Internatsional bog‘ shou ko‘rgazmasi ko‘p funksiyali yirik park tarzida tashkil etilib, u faol va tinch dam olish zonalariga ajratiladi. Bog‘ tarkibiga ko‘p sonli ko‘rgazma zallar, pavilonlar, tematik va maxsus ixtisoslashtirilgan kichik bog‘lar kiritilib, ular XX asrning 50-60 yillariga xos uslubda ishlanadi. Ochiq hududlar va pavilonlarda o‘tloq va oy bog‘lari, mutoola bog‘i, gulsapsar, atirgul, piyozagul, kartoshkagul, azaliya va rododendron (alp atirguli) bog‘lari joylashtiriladi. Bog‘ning "Millatlar bog‘i" deb ataladigan qismida turli mamlakatlar bog‘lariga xos xususiyatlarnamoyish etiladi [62].

Bog‘ shouning hududiga 7 mln.ga yaqin daraxt o‘simgiliklar, 2 mln. bir yillik gullovchi o‘simgiliklar, 7 tonna maysa urug‘i sepiladi.

1965-yilda Bog‘ shou ko‘rgazmalar yashil hududi “Dunay–park” deb ataladigan bo‘ladi va u omma uchun ochiladi. Bolalar uchun bog‘da anchagina joy ajratilib, unda o‘yinlar kompleksi va turli xil jihozlar o‘rnatildi. Qish faslidagi 2004-yildan boshlab parkdagi qirliklarda bolalar uchun toyinchoqlar tashkil etiladi. Bolalar uchun hayvonot bog‘i ham mavjud bo‘lib, unda otlar, eshaklar, echki, qo‘y va g‘ozlarni, maxsus qushlar uyida esa turli–tuman qushlarni tomosha qilish mumkin.

Park markazini "Papa O‘tlog‘i" deb nom olgan keng maysazor egallagan. Ushbu joyda turli xil sport o‘yinlari: futbol, badmintol va boshqa o‘yinlar o‘ynaladi. Chim ustida tinch dam olish uchun ham qulay sharoitlar yaratilgan: shaxmat va shashka o‘yinlari maydoni, domino, tennis korti, stol tennisi, minigolf va skeytlarda toyinish maydonchalari tashkil etilgan. Yevropada ommaviylashgan sharda o‘ynash uchun ham maxsus joy ajratilgan. Parkdagi keng xiyobonlar yuguruvchilar, roliklar va velosipedlarda harakatlanuvchilar uchun juda qulaydir. Sportchi velosipedchilar uchn esa maxsus marshrut ham belgilangan.

Dunay–park rejasida erkin manzara kompozitsiyasi etakchilik qiladi. Parkning o‘simlik dunyosi daratsimon o‘simliklardan tuzilgan guruh va massivlardan, miksborderlar, gulli klumbalar va konteynerlarga ekilgan o‘simliklardan tuzilgan. Parkda dastlab Dunay dunyosi atroflari va qirg‘ochlari yarashgan teraklar etakchilik qilgan bo‘lsa, keyinroq ushbu rolni chinor, jo‘ka, kashtan, zaranglar egallaydi. Bog‘da o‘simliklar kolleksiyasiga mo‘ljallangan alohida bog‘ ham mavjud. Gullar o‘lanida fasl davomida o‘simliklar almashivu bo‘lib turadi: Bahorda–piyozsimonlar; yozda–atirgullar, lavanda, petuniyalar, gulidovidlar, semizo‘t va boshqa ko‘p bir yillik gullar; kuzda esa kartoshkagullar ekiladi. Biroq park tuzilishini asosan doim yashil va ignabargli o‘simliklar tashkil qiladi.

Parkda ko‘p yillik va bir yillik o‘simliklar ko‘rgazmasiga alohida joy ajratilgan. Alp o‘simliklar ko‘rgazmasi parkning eng baland do‘ngligi pog‘onasimon maydonlarda o‘tkaziladi. Park faxri, atirgullardir: 1 hektarlik hududda 35 mingga yaqin atirgullarning minglab navlari ekilgan.

Haykallar parkning muhim kompozitsiyaviy elementi hisoblanadi. Ular turli allomalarning byust va haykallaridan tashkil topgan. Hozirgi Dunay–park Venaning ommaviy ko‘p funksiyali istirohat parklaridan biridir. U ayniqsa dam olish va bayram kunlari odamlarga to‘lib–toshadi.

O‘rta asrlarda Yevropa imperatorlari va knyazlari Osijo podsholari va amirlari kabi ov qilish maqsadida bog‘lar yaratishni odat qilganlar. Ana shunday bog‘lardan biri 1569-yili Avstriya imperatori Maksimilian II tomonidan barpo etiladi. Bog‘da turli xil ekzotik qushlar–tovus va kurkalar yashagan.

1605- yilda ushbu bog‘ vengerlar qo‘smini tomonidan vayron etiladi va uni yangi imperator Mattias yanada kengayrtirib, bu yerda ovchilik xo‘jaligini tashkil etadi.

XVII asr oxirida imperator Leopold I bu yerda qoyilmaqom ko‘rinishli ovchilar qasrini o‘scha davr barokko stilida barpo etishni buyuradi. Biroq bu qasrning qurilishi ispanlar bilan bo‘lgan to‘qnashuvlar tufayli to‘xtab qoladi. Va, faqat, XVIII asr o‘rtasiga kelib ushbu avstriya imperatorlarining yozgi dam olish rezidensiyasini Marii Terezlining buyrug‘iga binoan me’mor Nikolaus Pikassi hozirda butun dunyoga mashhur bo‘lgan go‘zal Menbrunn saroyi va parkiga aylantiradi. Uning go‘zalligi oldida haqiqatdan ham bosh egza arziydi. Ayniqsa saroy arxitekturasi va imperator oilasi uchun mo‘ljallangan xona va zallarning intererlari va tashqi bezaklari ko‘rimishida imperatorlik turmush tarzi yaqqol sezilib turadi. Park esa avstriya bog‘-park san’atining go‘zal arxitekturasi va turli xil naqshdor bog‘ imperatorlarini mana 250 yildan beri tomoshabinlarga namoyish etib kelmoqda.

Avstriyaning Zalsburg shahrida Mirabelbog‘i mavjud bo‘lib, u o‘zining muntazam rejaviy stili bilan ajralib turadi. Bog‘ning Mirabeldeb nomlanishiga sabab, bog‘da shunday nom bilan ataladigan imperator saroyi bo‘lgan. Mazkur bog‘da turli badiiy sittlarda ishlangan ko‘plab haykallar, suv ob‘yektlari va boshqa bog‘ imoratlari mavjudki, natijada bog‘ saroy-park ansambliga aylangan. Bog‘da katta va kichik parterlar mavjud bo‘lib, Katta parter shimoldan janubga qarab cho‘zilgan. Mirabelsaroyi bog‘ning shimoliy qismida, katta partyerdan keyin joylashgan. Hozirda bu yerda shahar merining ofisi va shahar kengashining rezidentatsiyasi joylashgan. Mirabel saroyi o‘zining marmar zali bilan shuhrat qozonganki, u dunyoda nikoh to‘ylarini o‘tkazish uchun eng go‘zal joylardan biridir. Bog‘ hududi tashqi va ichki balyustradalar bilan chegaralangan. Bog‘dagi klumbalar, yashil maysalar, suv havzalari va haykallar qirtishlagan yashil maysazorlar fonida yaqqol ko‘zda tashlanib obod va keng yo‘lklar bilan boyitilgan.

Katta parter markazida sakkiz burchakli katta favvora joylashib, u to‘rtta marmar haykallar bilan aylantirilgan. Favvora misdan ishlangan. Kichik parterning g‘arbiy tomonidan yurilsa yashil galereya va labirintga borish mumkin. Bu yerda Yashil Teatr ham joylashgan bo‘lib, unda ochiq havoda Zalsburg festivallarining konserti o‘tkazilib turiladi. Bog‘ning ushbu qismida balandligi bir metrga yaqin bo‘lgan to‘qqizta pakana odamlar haykalini uchratish mumkin.

Katta parterning janubiy-Sharqiy qismida xudolarning ulkan haykallari o‘rnatalilgan. Mirabelbog‘ining e’tiborga loyiq qurilmalaridan biri—bu XVIII asrda qurilgan oranjereyadir. Kichik parterning shimoliy qismida qushlar uchun Voler ham mavjud bo‘lib, u hozirda ko‘rgazmalar o‘tkazish joyi sifatida foydalaniлади. Mirabelbog‘i 1854- yildan boshlab shahar aholisi uchun istirohat bog‘i hisoblanadi [55; 543-r.].

**Nazorat uchun savollar:**

1. Yevropaning imператорлар oilalarining istirohati uchun ko‘ngilochar bog‘lari nechanchi asrdan yaratila boshlagan?
2. Burggarten imperator bog‘i nechanchi yillarda bunyod etilgan?
3. «Dunay park» qayerda joylashgan?
4. 1569-yili Avstriya imperatori Maksimilian II tomonidan barpo etilgan bog‘ning nomi?
5. Avstriyaning Zalsburg shahrida Mirabel bog‘ining nomlanishiga sabab?

## **TALABALAR BILIMLARINING REYTING NAZORATI UCHUN TUZILGAN ORALIQ, YAKUNIY SAVOLLAR**

### **Oraliq nazorat savollari**

1. O'rta Osiyoning qadimgi bog'lari qaysi davrda shakllana boshlagan?
2. «Payridez» so'zining ma'nosi nima?
3. EronvaTuronda «Chorbog» larni bunyod etgan ilk hukmdor kim?
4. Qadimgi Eronda mevali bog'lar qanday atalgan?
5. Atirgullar bog'lari nima deb nomlangan?
6. Amir Temur va temuriylar davrida gi Chorbog' uslubidagi bog'larning boshqa davlatlarda gi bog'laridan qanday farqi bor?
7. Ov qilib dam olish uchun mo'ljallangan bog'lar qanday nomlangan?
8. Ilk o'rta asrlar bog'-parklari qaysi davlatlarga ta'luqli?
9. «Qo'riq» deb qanday joylarga aytildi?
10. Ibn Xavkalning yozma manba'larida Samarcanddagi bog'lar haqida nimalarni aytgan?
11. Jend, Vazir va shoxsanam bog'lari haqida nimalarni bilasiz?
12. XII asrda Amudaryo vohalarida qanday bog'lar bunyod etilgan?
13. Vazirbog' qaysi davrlarda bunyod etilgan?
14. Jend Chorbog'i qaysi davrlarda bunyod etilgan?
15. Amir Temur va Mirzo Ulug'beklar o'z zamonasida Samarcand shahri atroflarida nechta bog'-rog'lar yaratgan edilar?
16. Qo'rg'oncha-Chorbog'larning asosiy funksional vazifasi nima?
17. «Bog'i Bihisht» bog'i kim uchun qurilgan va nechanchi yilda?
18. «Amirzoda shoxrux» bog'i kimning sharafiga va qachon qurilgan?
19. Ispan elchisi Klavixo «Bog'i Dilkusho» haqida qo'lyozmalarida qanday ta'riflaydi?
20. Temurning nabirasi-Mironshohning qizi Beka Sulton nomiga atab Samarcanddan g'arb tomonida qanday bog' barpo etgan?
21. "Bog'i Baland" ning hozirgi kunda qaysi hududda bo'lgan?
22. Buxoro amirligini boshqargan Muhammad Rahimxonning jiyani Doniyorbiy bog'-rog'lar bobida qanday ishlar qiladi?
23. Kim «Xonchorbog» va «Gulchorbog» larni xonliklar davrida qurdirgan?
24. Buxoro xonligini shayboniylar sulolasini boshqargan davrda qanday bog'lar qurilgan?
25. «Sitorai Mohi Xosa» qayerda joylashgan va qaysi davrda qurilgan?
26. Xiva xonligi bog'-parklaridan bizgacha etib kelgan ob'yekt?
27. Nurullaboy saroy bog'i qayerda joylashgan?
28. Sho'rolar davrida bog'lar qay ko'rinishga keladi?

29. Toshkent shahri uchun madaniyat va istirohat parkining birinchi loyihasini kim ishlab chiqqan?
30. Gaazenkopfning asl mutaxassisligi?
31. Gaazenkopf Toshkent shahrining ko'kalamzorlashtirilishi va bog'-parklarini o'zida aks etgiruvchi nechta albom ishlagan?
32. Kim tomonidan 1938-1939 yillarda Toshkent shahrining yangi bosh rejasи ishlab chiqiladi.
33. Samarqand shahridagi "Universitet xiyoboni" ning tarixi haqida nimalarni bilasiz?
34. O'zbekistonning sobiq ittifoq davri bog'-parklarini turlari bo'yicha nechta guruhgа bo'linadi?
35. Mustaqillik davrida qanday o'zgarishlar bo'ldi?
36. Nechanchi yillarda madaniyat va istirohat bog'larining moddiy texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.
37. Istiqlol yillarda qanday yangi bog'-parklar bunyod etildi?
38. Memorial bog'-parklar va xiyobonlarni loyihalashda asosiy e'tibor nimaga qaratildi?
39. Andijondagi "Bog'i Bobur" ning hududi qancha?
40. «Ko'hna va boqiy Buxoro» monumenti haqida nimalarni bilasiz?
41. Mustaqillik yillari bog'-parklarida Sobiq ittifoq parklaridan farqi?
42. Tematik bog'lar deganda nimani tushunasiz?
43. Eron zamonaviy bog'lari haqida nimalarni bilasiz?
44. Isfaxon shahridan oqib o'tadigan Zayanderud daryosi sohillari bo'ylab tabiat parkining nomi?
45. Xitoy bog'-parklari necha guruhgа bo'linadi?
46. Pekindagi yozgi imperator saroyining nomi?
47. Shanxaya yaqin Suchjou shahri tumani xususiy bog'lari haqida nimalarni bilasiz?
48. Zamonaviy Xitoy bog'-parklari xususiyatlari?
49. Xitoy va Yapon bog'larining farqli jihatları?
50. Yapon bog'lari holatiga ko'ra necha xil?
51. "Choy bog'lari" deganda nimani tushunasiz?
52. Yaponiyaning miniatyuralashtirilgan bog'lar deganda nimani tushunasiz?
53. Yevropaning imperatorlar oilalarining istirohati uchun ko'ngilochar bog'lari nechanchi asrdan yaratila boshlagan?
54. Burggarten imperator bog'i nechanchi yillarda bunyod etilgan?
55. «Dunay park» qayerda joylashgan?

**Yakuniy nazorat savollari**

1. Osiyo va Yevropa bog‘-park san’atidagi farqli hususiyatlari?
2. Bugungi kungacha saqlanib qolgan «Chorbog» uslubidagi bog‘lar haqida nima bilasiz?
3. Amir Temur davri bog‘lari haqidagi qo‘lyozma va adabiyotlar haqida aytинг?
4. Eron bog‘lari haqida nima bilasiz?
5. Mevali va atirgul bog‘lari haqida nima bilasiz?
6. Amir Temur va temuriylar davridagi Chorbog‘ uslubidagi bog‘lar nechta?
7. Ov qilib dam olish uchun mo‘ljallangan bog‘larning funksional vazifalari nimadan iborat bo‘lgan?
8. Bog‘ tushunchasi qachon va qayerda vujudga kelgan?
9. Bog‘larni yaratishda asosan qanday joylar tanlangan?
10. Ibn Xavkalning yozma manba’larida Samarqanddagi bog‘lar haqida nimalarni aytgan?
11. Toshkentdagи Alisher Navoiy parki qachon bunyod etilgan?
12. Buxorodagi Sitorai-Moxi-Xosa saroy bog‘i haqida nima bilasiz?
13. Labi –Xauz ansambl haqida nima bilasiz?
14. Jend chorbog‘i qaysi davrlarda bunyod etilgan?
15. Amir Temur va Mirzo Ulug‘beklar o‘z zamonasida Samarqand shahri atroflarida nechta bog‘-rog‘lar yaratgan edilar?
16. Eron milliy eposi «Gulnoma» haqida aytинг?
17. “Bazayra” so‘zining ma’nosi?
18. Ilk o‘rta asrlar bog‘- parklari deganda nimani chunasiz?
19. Abdullaxon II yaratgan chorbog‘lar haqida nima bilasiz?
20. Chorbog‘larning arxitekturaviy, landshaft tuzilishini aytинг?
21. Mahalliy daraxt, buta va gullar deganda nimani chunasiz?
22. Xonliklar davri bog‘-parklari haqida nima bilasiz?
23. “Safidori Samarqandiy” degani nima
24. Ya.K. Gaazenkopf kim bo‘lgan?
25. Samarqand shahridagi «Universitet xiyoboni» ning tarixi haqida nimalarni bilasiz?
26. Sobiq ittifoq davrida Toshkent shahrida nechta park bo‘lgan?
27. Mustaqillik yillarida yurtimizdagи bog‘-parklardagi o‘zgarishlar haqida ay ting?
28. Me’morial bog‘lar deganda nimani chunasiz?
29. 2000- yilda Qo‘qondagi XIX asrning ikkinchi yarmida bunyod etilgan Xudoyorxon saroyi qoshidagi bizgacha saqlanmagan bog‘ni an‘anaviy “Chorbog” uslubida qayta tiklashga kim harakat qilgan?
30. L.A. Adilova “Chorbog” uslubidagi bog‘lar haqida qanday ta’riflagan?

31. Bog‘-park san’ati Yaqin Sharq mamlakatlari tajribalari haqida nimalarni bilasiz?
32. Bog‘-park san’ati Uzoq Sharq mamlakatlari tajribalari haqida nimalarni bilasiz?
33. Yapon bog‘lari haqida nimalarni bilasiz?
34. Xitoy bog‘lari haqida nimalarni bilasiz?
35. "Toshloq bog‘lar" haqida nima bilasiz?
36. Burggarten imperator bog‘i haqida nima bilasiz?
37. Avstriya bog‘lari haqida nimalarni bilasiz?
38. "Dunay-park" qayerda joylashgan?
39. Avstriyaning Zalsburg shahrida Mirabel bog‘i haqida nima bilasiz?
40. Bog‘ning semantikasi nima?
41. Bog‘ning atributlari nima?
42. G.A. Pugachenkova O‘rrta Osiyo me’moriy bog‘larining o‘ziga xos xususiyatlarini qanday izohlagan?
43. Boburiylar davri bog‘lari haqida ayting?
44. Yozgi imperator saroybog‘lari?
45. Isfaxon shahri bog‘-parklari?
46. Eron zamonaviy bog‘lari va o‘ziga xos xususiyatlari?
47. Yevropaning imperatorlar oilalarining istirohati uchun ko‘ngilochar bog‘lari?
48. Nurullaboy saroy bog‘i haqida ayting?
49. Bog‘-parklarning asosiy funksional vazifalarini tushuntirib bering?
50. Boburiylar bunyod etgan bog‘larda birinchi bo‘lib "Chorchinor" uslubini kim qo‘llagan?

## TESTLAR

- 1. Sosoniylar davrida (eramizning 200-600 yy) bunday bog‘lar nima deyilgan?**
  - a. “Payridez”
  - b. “Chorbog”
  - c. “Chabutra”
  - d. “Shaharbog”
- 2. Qadimgi Eronda qanday mevali bog‘lar keng an’ana bo‘lgan?**
  - a. “Guliston”
  - b. “Bo‘ston”
  - c. “CHaman”
  - d. “Nigoriston”
- 3. Eronda atirgullar bog‘lariga qanday nom berilgan?**
  - a. “Guliston”
  - b. “Bo‘ston”
  - c. “CHaman”
  - d. “Nigoriston”
- 4. Eronda atirgullar bog‘lariga qanday nom berilgan?**
  - a. “Guliston”
  - b. “Bo‘ston”
  - c. “Chaman”
  - d. “Nigoriston”
- 5. Xay-Tek uslubi?**
  - a. yuqori texnologiyalar
  - b. zamonaviy
  - c. romantik
  - d. klassik
- 6. Musulmon jannat bog‘ini tasavvur qilib bo‘lmaydi?**
  - a. qumsiz
  - b. suvsiz
  - c. o‘simliklarsiz
  - d. olovsiz
- 7. shakllar yoki narsalarning har qanday xususiyati o‘rtasidagi kuchli farq?**
  - a. kontrast

- b. nyuans
- c. ritm
- d. metr

**8. Akropol bog'dorchilik san'atining namunasi?**

- a. Misr
- b. Gretsiya
- c. O'rta asrlardagi Yevropa bog'lari
- d. Yevropa

**9. "Bobilning osma bog'lari"ning o'ziga xos xususiyatlari?**

- a. sun'iy tepaliklar va teraslar
- b. g'ishtdan foydalanish
- c. suv havzalarida qurilgan
- d. cho'llarda

**10. Bog' va park san'atida labirintlarning birinchi paydo bo'lishi?**

- a. Uyg'onish davrida
- b. O'rta asrlarda Yevropada
- c. Qadimgi Yunonistonda
- d. Misrda

**11. Muntazam uslub quyidagicha tavsiflanadi?**

- a. to'rburchak yo'llar va simmetriya uslubi
- b. tartibli assimetriyalar
- c. suv havzalari ishlatalmaydi
- d. murakkab ko`pburchak

**12. Peterhof bog'lari quyidagilarga bo'linadi:**

- a. yuqori va pastki bog'
- b. peyzaj bog'i
- c. faqat pastki bog'
- d. murakkab bog'

**13. Qadimgi Rim bog'lariga qanday gullar xos edi?**

- a. zambahklar
- b. atirgullar
- c. lotus
- d. moychechak

**14. Nimfey-bu?**

- a. amfiteatr

- b. suv qurilmasi turi
- c. Grotto prototipi
- d. tog`lar

**15. Semiramis bog‘lari qayyerda joylashgan?**

- a. Qadimgi Misr
- b. Qadimgi Yunoniston
- c. Afg`oniston
- d. Ossuriya-Bobil

**16. Peyzaj bog‘ining o‘ziga xos belgilari?**

- a. relyefi notekis-tabiiy landshaftga taqlid qilish
- b. suv havzalarining etishmasligi
- c. qat’iy tartib, simmetriya
- d. assimmetriya

**17. Qadimgi Misr bog‘ining markazida nima bor edi?**

- a. ustun
- b. hovuz
- c. piramida
- d. qum

**18. Neptun favvorasi qaysi parkda joylashgan?**

- a. yozgi bog
- b. Izmaylov
- c. Petergof
- d. Marks

**19. Monastir bog‘lari qaysi davrda paydo bo‘ladi?**

- a. Qadimgi Rimda
- b. O‘rta asrlarda
- c. Qadimgi Yunonistonda
- d. XI asrda

**20. Amir Temur va Mirzo Ulug‘bek o‘z zamonasida Samarqand shahri atroflarida nechta turli bog‘-rog‘lar yaratgan edilar?**

- a. 12 ta
- b. 11 ta
- c. 14 ta
- d. 10 ta

**21. «Payridez» so‘zining ma’nosi nima?**

- a. «payri» (atrof), «dez» (devor)
- b. «payri» (go‘zal), «dez» (bog‘)
- c. «payri» (qum), «dez» (er)
- d. «payri» (daraxt), «dez» (maysa)

**22. M. Ranxava kim bo‘lgan?**

- a. botanik
- b. olim
- c. biolog
- d. arxitektor

**23. Qadimgi Eronda «Bo‘ston» bog‘lari qanaqa bog‘lar?**

- a. mevali
- b. gulzorli
- c. daraxtzor
- d. manzarali

**24. Atirgullar bog‘lariga qanday nom berilgan?**

- a. «Guliston»
- b. «Nigoriston»
- c. «Bo‘ston»
- d. «Chinoriston»

**25. «Makedoniyalik Iskandar tarixi» ning muallifi?**

- a. Kvint Kursiy
- b. E. Monchadskaya
- c. Ibn Xavkal
- d. Tomoshek

**26. Jend, Vazir va shoxsanam bog‘lari qayerda joylashgan?**

- a. Xorazm
- b. Buxoro
- c. Samarqand
- d. Toshkent

**27. «Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi» kitobining muallifi?**

- a. Ibn Xavkal
- b. Marko Polo
- c. Xerman Vamberi
- d. Sharafiddin Ali Yazdiy

- 28. Cho‘pon-ota qirligining janubiy etagidagi Obirahmat arig‘ining atroflaridagi erlarda joylashgan bog‘?**
- a. Bog‘i Naqshi Jahon
  - b. Bog‘i Bo‘ldi
  - c. Bog‘i Bihisht
  - d. Amirzoda shoxrux bog‘i
- 29. Ko‘shk devorlarida Amir Temurning Hindiston yurishidagi jang manzarasi tasvirlangan bog‘?**
- a. Bog‘i Naqshi Jahon
  - b. Bog‘i Dilkusho
  - c. Bog‘i Bihisht
  - d. Amirzoda shoxrux bog‘i
- 30. Amir Temurning Samarcandda qurgan bog‘lari ichida eng so‘nggisi?**
- a. Bog‘i Nav
  - b. Bog‘i Dilkusho
  - c. Bog‘i Bihisht
  - d. Amirzoda shoxrux bog‘i

## GLOSSARIY (ASOSIY ATAMALAR LUG‘ATI)

**Chorborg‘** – bu modulli (miqyosiy) bog‘ bo‘lib, hududiy elementlari bosh rejaviy o‘qqa nisbatan muntazam simmetrik joylashgan, qismlari to‘rt va undan ko‘p bo‘lgan bir-biriga teng “chorchaman” va “chaman”lardan to‘zilgan tartibli bog‘dir.

**Chorchinor** – Boburiylar bunyod etgan bog‘larda Jahongirshox birinchi bo‘lib “Chorchinor” uslubini qo‘llagan. Bu uslubga ko‘ra, kvadrat er sathining to‘rt chekkasiga to‘rtta chinor daraxti simmetrik tarzda ekilgan. Buning natijasida chorchinorlar egallagan bog‘ maydoni kun bo‘yi soyasalqinda bo‘lgan.

**Chorchaman** – turli xil mevali daraxtlar, ular orasiga chiroyli va xushbo‘y gullar ekilgan, sayr uchun yo‘lakchalar o‘tkazilgan.

**Chadar** – tabiiy tosh yoki marmardan ishlanib, yuzaga geometrik o‘yma naqshlar bajarilgan qiya, yuzi tekis va keng plita bo‘lib, uning sathidan suv yuqoridagi pog‘onadan pastga, katta hovuzga turlicha jilolanib, shildirab oqib tushadi.

**Chabutra** – yuzasi tekis tosh yoki marmar platforma, to‘g‘rirog‘i o‘ziga xos tosh supa hisoblanib, u suvi oqib turuvchi tekis havzaning o‘rtasiga yoki chetiga, suv ustiga qurilgan.

**Mayolika** – rangli jismga ega bo‘lgan va sir bilan qoplangan keramik bezak.

**Topiar** – daraxt va butalarni shaklli kesish. Eng qadimgi bog‘dorchilik san’ati biri. Topiar ustalari o‘simliklardan hayvonlar, me’moriy tuzilmalar, odamlar va hokazo kabi turli shakllar berishi mumkin.

**Payridez** – payri-atrof, dez–devor, ya’ni “atrofi devor bilan o‘ralgan bog‘–jannat” ma’nosini anglatadi.

**Bo‘ston** – (forscha “mevali bog‘”).

**Guliston** – devorlar bilan aylantirilib, chirmoviq atirgullar bilan burkangan ko‘shek yoki bir necha atirgul butalaridan tuzilgan gullik hovli bog‘laridir.

**Gulnoma** – Atirgul haqidagi poema.

**Bog‘i Chinor** – Bog‘da dov-daraxt, chinorlar ko‘p bo‘lganligidan shunday deb nom olgan. Samarqanddan Sharq tomonda, Darg‘om arig‘i atrofida hozirgi Xo‘ja qishlog‘i yonida joylashgan. Ushbu bog‘dagi saroy ham sun‘iy tepalik ustiga qurilgan.

**Gulchorborg‘** – CHirolyi qo‘rg‘on, devorlar bilan aylantirilgan, gullar va ulkan daraxtlar bilan qoplangan, turli navdagisi atirgullar katta miqdorda parvarish qilingan bog‘.

**Tarh** – plan, binoning gorizontal proeksiyasi.

**Tarz** – fasad, old ko‘rinish, binoning frontal yoki profil ko‘rinishi.

***Choy bog‘lari*** – Yaponlar hovlilarida choy ichish marosimini yoqtirishidi va shu boisdan ayrim hollarda shunday ataladi.

***Millatlar bog‘i*** – turli mamlakatlar bog‘lariga xos xususiyatlar namoyish etiladi.

***Qo‘riq yoki qo‘riqxona*** – Me’moriy bo‘lмаган bog‘lar, bunday bog‘larda ham ov qilib dam olishgan, tirandozlik bilan shug‘ullanishgan.

***Chinixana*** – shalola orqasidagi toshlarga o‘yib ishlangan qator toqchalar ko‘rinishida bo‘lib, tunda bu toqchalarga yondirilgan sham yoki moy chiroqlar qo‘yib chiqilgan. Tokchalardagi alangalar oldidan oqayotgan suv pardasi, ya’ni shalola tunda o‘ta yoritib tus olgan va inson qalbini zavqu-shavqqo to‘ldirgan. Kunduz kunlari esa bu toqchalarga tuvaklarga solingan gullar qo‘yilgan.

***Nigoriston*** – madaniy-ma’rifiy funksiyalar (ko‘p funksiyali madaniyat va ma’rifat saroyi, ya’ni milliy rassomlarimiz tasviriy san’at asarlari, o‘zbek xalqining milliy liboslari ko‘rgazmalari zali, milliy folklyor estradasi, "Madaniyat qahramonlari" xiyoboni).

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. Normativ-huquqiy xujjatlar va metodologik ahamiyatga ega nashrlar**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent, Sharq, 1998.
2. O‘zR. Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29-dekabrda qabul qilgan” 2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 322-sonli Qarori. // Xalq so‘zi gazetasи, №74, 2010.
3. Mirziyoyev SH.M. Erkin va faravon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, O‘zbekiston, 2016.

### **II. Monografiya, ilmiy maqola va ilmiy to‘plamlar**

4. Абу Тоҳир Ходжа. Самария. – Издания Факультета восточных языков Императорского Санкт-Петербургского университета; № 21. 1904. – 82 с.
5. Zayniddin Mahmud Vasifiy. Badoeul-vaqoe. – Toshkent, G‘afur G‘ulom, 1979. – 26 b.
6. Ibn Arabshox. Temur tarixida taqdir ajoyibotlari. 2-kitob. – Toshkent, 1993. - 83 b.
7. Muhammed Amini Buxori. Perevod A.A. Semenova. Tashkent: AN UzSSR. 1957. - 685 s.
8. Narshaxiy. Buxoro tarixi. – Toshkent, Meros turkumi, 1991. – 180 b.
9. Niyoziy. Iroshoduz Ziroat Fi Ilmil Xirosat. O‘zFASHI qo‘lyozmasi, № 556, 42a, 42b sahifalar.
10. B. Axmedov. Temur tuzuklari. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. - 72 b.
11. Xofiz Tanish Al-Buxoriy. Abdullonomo. – Toshkent, Sharq, 1999.

### **III. Foydalilanigan boshqa adabiyotlar**

12. Абдураимов М.А. Два среднеазиатские сочинения по истории агротехники. // Известия АН УзССР. – Ташкент, 1956, №9. – С. 103-108.
13. Adilova L.A. Landshaft arxitekturasi. – Toshkent, TAQI, 2000.40-108 b.
14. Adilova L.A., Uralov A.S. Bog‘ va parklarni ta’mirlash. – Toshkent, TAQI, 2017. - 171 b.
15. Антонова Е.В. Очерки культуры древних земледельцев Передней и Средней Азии. – М.: Наука, 1984. - С. 8.
16. Alimov O‘. O‘rtalarda Movarounnahrda bog‘chilik xo‘jaligi tarixi. – Toshkent, Fan, 1984. 102-123 b.

17. Ahmedov M.Q. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. – Toshkent, O'zbekiston, 1995. 142-b.
18. Bulatov M.S. Sadi i parki Temura i Temuridov. – Tashkent, Maskan jurnali, №2. 1993. - 43 b.
19. Галкина Л.И. Японские традиции в оформлении сада. – Донецк.: Сталкер, 2004. – С. 22-67
20. Дормидонтова В.В. История садово-парковых стилей. Учебное пособие. – М., 2004. - 206 с.
21. Записки путешественников о Самарканде. – Ташкент, Маскан, №9-10, 1992. 26-27 с.
22. Залесская Л. Озеленения городов Средней Азии. Академия Архитектуры СССР, - М., 1949. - С. 96.
23. Зохидов П. Великий кёшк Дилкушо. 1-част. – Ташкент, ТАСИ, 2007.
24. Ибрагимов Н. Ибн Баттута и его путешествие по Средней Азии. - М.: Наука, 1988. – С. 87.
25. Камилова Л.А. Принципы формирования ландшафтов городов, расположенных в сухом жарком климате Узбекистана. Канд. дисс. – Ленинград, 1984. - 184 с.
26. Коробовцев Г.И. Агроном-архитектор Ярослав Гаазенкопф. // Архитектура и строительство Узбекистана, – Ташкент, №4, 1989. 40-41 с.
27. Крижановская Н.Я. Основы ландшафтного дизайна.-Ростов-на-Дону: Учебник, Феникс 2005. - 204 с.
28. Madraimov A. Fuzailova G. Manbashunoslik. – Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Fan nashriyoti. 2007. - 30 b
29. Мончадская Е.А. О «Царском городе» или «второй столице» Согдианы. // Вестник древней истории. – М.: 1959, №2. – С. 10-20.
30. Нильсен В.А. У истоков современного градостроительства Узбекистана (XIX-начало XX вв.). – Ташкент, Изд. литературы и искусства имени Гафурия Гуляма, 1988.
31. "Samarqand" gazetasi. 5-mart soni. 2010.
32. Nozilov D.A. Chorbog'. – Toshkent, ToshDTU, 1997. – 82 b.
33. Ojegova S.S., Uralov A.S., Raximov K.J. Landshaft arxitekturasi va dizayni. O'quv qo'llanma – Samarqand: SamDAQI, 2004. 11-148 betlar.
34. Орлов М.А. Памятники садово-паркового искусства средневекового Хорезма. // Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция. – М.: АН СССР. 1952-1986. – С. 135-152.
35. Рандхава М. Сады через века. – М.: Знание, 1981. - С. 11-117.
36. Raximov K.D., Uralov A.S. Sharq mamlakatlarining bog'–park san'ati.– – Toshkent, Tafakkur-bo'stoni, 2014. - 127 b.
37. Русанов Ф.Н. Озеленение в архитектуре городов Узбекистана. – Ташкент, Акад. наук Уз, 1979. - 24 с.

38. Сарианиди В.И. Бактрия сквозь мглу веков. – М.: Наука, 1984. - 68 с.
39. Садыкова С.Н. Проект восстановления загородного сада Амира Тимура «Боги Накши Жахони Нав» в городе Самарканде. – СамГАСИ, 2005. - 8 с.
40. Смирнова И.О. Очерки из истории Согда. – М.:Наука, 1970. - с. 20.
41. Сухарев И.А. Дворец сад Тимура Давлат-Абад. // Труды УзГУ. Новая серия, №14. История, вып.2. – Т., 1940. - с. 5-6.
42. Talipov M.A., Anorqulov D.SH. O'zbekistonda bog'-park san'ati rivojlanishining dolzarb masalalari. //Samarqand shahri arxitekturasi, zamonaviy shaharsozlik va shahar qurilishi muammolari mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Samarqand: SamDAQI, 2011. 72-75-b.
43. Uralov A.S., Adilova L.A. Landshaft arxitekturasi. –Toshkent: Cho'lpon nashriyoti, 2015. 28-244 b.
44. Uralov A.S. Markaziy Osiyoning islomgacha davrdagi bog'-parklari va ularning keyingi davrlardagi izchilligi. // Me'morchilik va qurilish muammolari jurnali. – Samarqand: SamDAQI, 2001, № 1-2. - 66-72 b.
45. Uralov A. Me'moriy shakllarni uyg'unlashtirish va bezash. – Samarqand: SamDAQI, 2003. 24-b.
46. Хусаинова А.А. Архитектура и строительства. г. Самарканда в конце XIX - начало XX веков. // В сб. статьей по истории и теории архитектуры (ТашПИ и СамГАСИ), №263. – Самарканда, 1979. – С. 40-51.
47. Шацкая Т.В. Аквадизайн стран Востока. Учебное пособие. – Ташкент: ТашГТУ, 1997. - 84 с.
48. Uralov A.S., Sadiqova S.N. O'rta Osiyo an'anaviy "Chorbog" uslubi va zamonaviy bog'-park san'ati. – Toshkent, San'at, 2012. -23-132 b.
49. Shirinov T.SH., Berdimurodov A. Amir Temurning bog'-saroylari. – Samarqand, 1996. - 13 b.
50. Юсупова М.А. Традиции архитектурного сада "Чорбаг" в зодчестве Бухары XVI-XVIII вв. // Средняя Азия: Археология. История. Культура. Материалы международной конференции. М.: 2000. 247-251 с.
51. Юсупова М.А. Садово-парковые ансамбли Бухарского ханства. – Ташкент, Санъатшунослик масалалари. 2-Вып. 2016. - 115-123 с.
52. Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida: Terma parchalar (tuzuvchi va tarjimon Zohir A'zam). – Toshkent, YUrist-media markazi, 2008. - 176 b.
53. Qodirova T.F. Navoiy: o'tmishi, buguni va kelajagi. – Toshkent, O'zbekiston arxitekturasi va qurilishi. №6. 2000. 16-17-b.
54. Fayzullaeva N.N. Mustaqillik yillarda Buxoro shahrining bog'-parkchilik san'atida erishgan yutuqlari. //Me'morchilik va qurilish

muammolari ilm. tex. jurnali. – Samarqand, №2. 2015. -46-50 b.

### **Xorijiy adabiyotlar**

55. Mosser M., Teyssof G. The Architecture of Western Gardens. – Cambridge, USA, 1991. - 543 r.
56. Tobey G.B. A History of landscape Architecture. - Sidney.:Published August 1973 by Elsevier Publishing Company.1980. - 305 r.
57. Charles Quest-Ritson. Gardens of Europe: A Traveller’s Guide. Published April 1st 2007 by ACC Distribution. 400 p.
58. Саймонс. Дж.О. Ландшафт и архитектура. Изд. литературы по строительству. - Москва.: Издательство литературы по строительству, 1965 г. - 193 с.
59. Grown S., Haywood sh. The Gardens of Mughul India. – London, 1972.- 162 p.

### **Internet materiallari**

60. <http://www.visituzbekistan.travel/>
61. <https://oldsufiwebzine.wordpress.com>
62. <http://www.flora-design.ru>
63. <http://dizain-landshaft.ru/>
64. <http://www.Landscapedesign.ru>

O‘quv qo‘llanma

Mustaev B.B.

## BOG‘ - PARK SAN’ATI

Subscribe to print 15/09/2024. Format 60×90/16.

Edition of 300 copies.

Printed by “iScience” Sp. z o. o.

Warsaw, Poland

08-444, str. Grzybowska, 87

info@sciencecentrum.pl, <https://sciencecentrum.pl>



UDI QASINING  
ISLOM KARIMOV  
HESI ASOSID  
DIL SHOKAN  
ULAND SQAURE  
1993 BASU  
NUFLAT BY THE  
THE REPUBLIC  
M. KARIMOV

ISBN 978-83-68188-13-4



9 788368 188134

